ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК УНИВЕРСИТЕТИ

УСТОЗЛАР ИЗИДАН: ХОТИРАЛАР МАНГУ, ҲАЁТ БАРДАВОМ

Шарқшунос, профессор

Холида Зикриллаевна Алимова

замондошлар нигоҳида

Тошкент – 2026

Устозлар изидан: хотиралар мангу, ҳаёт бардавом. Шарқшунос, профессор Алимова Холида Зикриллаевна замондошлар нигоҳида. – Тошкент: ТДШУ, 2026. 198 б.

Ушбу тўплам таниқли шарқшунос олима, филология фанлари доктори, профессор Холида Зикриллаевна Алимова таваллудининг 60 йиллигига бағишланади. Тўпламда таниқли афғоншунос, эроншунос, тилшунос, филология фанлари доктори, профессор Холида Зикриллаевна Алимованинг ҳаёт йўли, илмий ва педагогик фаолияти ҳақида фикр юритилади. Мазкур китобда Устоз ҳақида замондошлари, ҳамкасблари ва шогирдларининг хотиралари жамланган.

Масъул муҳаррир:
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD), доцент
Нодир Нуриддинов

Тузувчилар:
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), кат.ўқитувчи
Ҳилола Ўктамова
Катта ўқитувчи
Ҳусниддин Иномиддинов

Тошкент давлат шарқшунослик университети
Кенгаши томонидан нашрга тавсия этилган
(2026 йил 27 апрелдаги 9-сонли баённома).

© Тошкент давлат шарқшунослик университети, 2026

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ДОКТОРИ, ПРОФЕССОР АЛИМОВА ХОЛИДА ЗИКРИЛЛАЕВНАНИНГ ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТИ ҲАҚИДА

Алимова Холида Зикриллаевна – шарқшунос олима, филология фанлари доктори, профессор.

1966 йили Тошкент шаҳрида туғилган. 1988 йили Тошкент давлат университетининг (ҳозирги ЎзМУ) шарқ факультети афғон филологияси кафедрасини тамомлаб, ўша йилдан ҳозирги кунга қадар Тошкент давлат шарқшунослик университетида турли лавозимларда ишлаб келмоқда: 1991-йилдан эрон-афғон филологияси кафедраси ўқитувчиси, 2005 йилдан катта ўқитувчи, 2007 йилдан доцент, 2012-2018 йиллар эрон-афғон филологияси кафедраси мудири ва 2022 йилдан буён эроншунослик ва афғоншунослик олий мактаби профессори.

Алимова Холида илмий фаолияти давомида дарий ва форс тилшунослиги тугун ва ечимлари билан боғлиқ илмий-тадқиқот ишларини олиб бормоқда. У эрон-афғон филологиясининг долзарб масалаларига бағишланган кўплаб илмий мақола ва ўқув адабиётлари муаллифидир. Х. Алимова университет, республика ва халқаро миқёсдаги илмий-назарий ва амалий анжуманларда ҳам фаол иштирок этиб келмоқда.

Алимова Холида Зикриллаевна дарий тили, форс ва дарий тиллари назарий грамматикаси, дарий (форс) ва ўзбек (рус) тиллари чоғиштирма грамматикаси, Афғонистонда тил вазияти ва сиёсати бўйича университетдаги етакчи мутахассислардан. У 100 га яқин илмий, ўқув-услубий ишлар эълон қилган, шулардан 2 та монография, 5 та дарслик, 7 та ўқув қўлланма, 80 дан ортиқ илмий мақола чоп этган. Х. Алимова томонидан тайёрланган дарслик ва ўқув қўлланмалар Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Мувофиқлаштирувчи кенгашининг грифини олган. Ҳозирда бу ўқув адабиётлари чоп этилиб, хорижий ва шарқ

филологияси йўналишида ўқув жараёнига татбиқ этилган. Шунингдек, унинг илмий тадқиқотлари юзасидан 30 дан ортиқ илмий мақола мамлакатимиз ва чет эл илмий журналларида, халқаро илмий-амалий анжуманлар тўпламларида чоп этилган.

Х.З. Алимова 2005 йилда Тошкент давлат шарқшунослик институти ҳузуридаги Ихтисослашган кенгашда “Дарий тилида соматизмларнинг структур ва семантик таснифи” мавзусида 10.02.22 – Осиё, Африка халқлари, Америка ва Австралия туб халқлари тиллари ихтисослиги бўйича номзодлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилган. 2009 йилда доцент унвонини олган. 2019 йилда Тошкент давлат шарқшунослик институти, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, Ўзбекистон миллий университети ҳузуридаги илмий даражалар берувчи DSc.27.06.2017.Fil.21.01 рақамли Илмий кенгашда 10.00.05 – Осиё ва Африка халқлари тили ва адабиёти ихтисослиги доирасида “Дарий тилида сўз ясалишининг ички лингвистик усуллари” мавзусидаги филология фанлари доктори (DSc) диссертациясини ҳимоя қилган. 2022 йилда унга профессор унвони берилган.

Х.З. Алимова 38 йиллик илмий-педагогик фаолияти давомида “Филология ва тилларни ўқитиш (шарқ тиллари)” таълим йўналиши бакалавр босқичи талабаларига “Дарий тили”, “Дарий тили лексикологияси”, “Форс ва дарий тиллари назарияси”, “Дарий (форс) ва ўзбек (рус) тиллари чоғиштирма грамматикаси”, “Эрон тилшунослиги”, “Мутахассисликка кириш”, “Қўшма гап синтаксиси”, “Дарий тилида иш юритиш” фанларидан, “Лингвистика (шарқ тиллари бўйича)”, “Тарих (йўналишлар ва фаолият турлари бўйича)” мутахассисликларида “Мутахассисликка оид махсус адабиёт таҳлили”, “Мутахассисликнинг назарий масалалари”, “Шарқ мамлакатларида тил вазияти ва сиёсати (Афғонистон, Эрон)”, “Маданиятлараро мулоқот”, “Илмий матн таҳлили”, “Лингвистическая терминология” каби

фанлардан дарс бериб келмоқда. У маъруза ва амалий машғулотлар, семинар-тренингларни олиб бориш жараёнида замонавий ўқитиш усулларидан, педагогик ва ахборот-коммуникация технологиялари ҳамда мультимедиа таълим ресурсларидан самарали фойдаланади.

Х.З. Алимова ўзи фаолият юритаётган олий мактаб ўқув-услубий салоҳиятини ошириш ва замонавий педагогик технологиялари борасидаги фаолиятини кучайтириш юзасидан юқори натижаларга эришмоқда. У педагог-олим сифатида олий мактаб томонидан ўқитиладиган шарқ тиллари ва мутахассислик фанлари бўйича ўқув дастурлари ва ўқув адабиётларини яратиш жараёнларида фаол иштирок этмоқда. Унинг якка муаллифликда ва ҳамммуаллифликда тайёрлаган фан дастурлари, ўқув-тарқатма материалларидан ТДШУ ўқув жараёнида фойдаланиб келинмоқда. Шунингдек, бир қатор ўқув адабиётларига масъул муҳаррирлик, ўқув адабиётлари ва дастурлари, диссертация, автореферат, битирув лойиҳа ишлари ва илмий мақолаларга хулоса ва тақризлар берган.

Х.З. Алимова раҳбарлигида 40 дан ортиқ бакалавр, 10 дан ортиқ магистр, шунингдек, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси ишлари муваффақиятли ҳимоя қилинди. Айни вақтда ҳам таянч докторантлар ва магистрлик ишларига илмий раҳбар.

У 2006, 2017 ва 2020 йилларда Эрон Ислом Республикасида “Форс тили ва адабиёти бўйича педагог кадрлар малакасини ошириш” курсларини, 2020 йили Аллома Таботабоий университети ва Фан, тадқиқот ва технологиялар вазирлигининг Халқаро илмий ҳамкорликлар маркази ҳамкорлигида “Форс тили тарихи ва адабиёти” онлайн малака ошириш курсини муваффақиятли якунлаган ва шунингдек, ўз маърузалари билан иштирок этган.

Х.З. Алимова ўзининг касбий фаолияти билан бир қаторда бир қанча Илмий кенгаш ва Илмий семинарларда ҳам фаолият олиб бормоқда. У Тошкент давлат

шарқшунослик университети ҳузуридаги илмий даражалар берувчи DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 рақамли Илмий кенгаш аъзоси ва Кенгаш қошидаги 10.00.05 – Осиё ва Африка халқлари тили ва адабиёти, 10.00.06 – Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик (филология фанлари) ихтисосликлари бўйича Илмий семинар раиси, Самарқанд давлат университети ҳузуридаги илмий даражалар берувчи DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 рақамли Илмий кенгаш аъзосидир.

Х.З. Алимова 2018 йил Президент ташаббуси билан таъсис этилган “Ўзбекистон-Афғонистон” дўстлик жамиятининг ижрочи директори (2018-2024 йиллар) сифатида Ўзбекистон ва Афғонистон халқлари орасидаги маданий-маърифий, таълим-фан соҳасидаги алоқаларни ривожлантиришга қаратилган бир қатор тадбирларни ташкиллаштиришда фаол қатнашиб келди: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитаси, “Ўзбекистон-Афғонистон” дўстлик жамияти томонидан Афғонистон мустақиллигининг 100 йиллигига бағишлаб ва кейинги йилларда ўтказилган туркум тадбирлар (“Маҳмуд Тарзий – Афғонистон матбуоти ва маърифатпарварлик адабиёти асосчиси, йирик сиёсий ва маданият арбоби”, Ўзбекистонда яшаётган Афғонистон вакиллари билан ҳамкорликда “Ўзбекистон-Афғонистон алоқаларида янги босқич” номли давра суҳбати, “Афғон мумтоз адабиётининг буюк вакиллари Хушҳолхон Хаттак ва Раҳмон бобо ижодида тинчлик, ватанпарварлик ва инсонпарварлик масалалари” номли ижодий кеча ва б.) шулар жумласидандир.

Х.З. Алимова, шунингдек, университет, факультет, олий мактаб миқёсида ўтказиладиган маънавий-маърифий тадбирларда фаол иштирок этиб келмоқда. У ТДШУ Эроншунослик ва афғоншунослик олий мактаби ва

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси, Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти ўртасидаги корпоратив ҳамкорлик доирасида корпоратив ва инновацион ҳамкорликни самарали ривожлантиришга ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда. Жумладан, Республика олий таълим ва олий ҳарбий таълим муассасалари ўртасида форс тилидан (умумкасбий йўналиш) ўтказилган фан олимпиадаларида ҳайъат раиси (2017-2018), “Ҳарбий соҳада мақсадга йўналтирилган чет тилларни ўқитишдаги муаммолар ва уларни ҳал етиш йўллари” (2018), “Олий таълим муассасаларида тил ўқитиш замонавий усулларининг амалий қўлланиши” (2021), “Чет тилини ўқитишда ва ўргатишда тил кўникмаларини ривожлантиришнинг долзарб масалалари” (2022) каби мавзулардаги бир қатор республика илмий-амалий ва илмий-услубий анжуманларда, “Мамлакатимиз Қуролли Кучлари – тинчлик ва осойишталигимиз гарови”, “Система образования в мире” мавзусидаги давра суҳбатларида фаол қатнашган.

Х.З. Алимова маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, уни янги босқичга кўтаришда салмоқли ҳисса қўшишга ва илмий ҳаётда юқори даражаларга эришишга доимо ҳаракатда. У ўзининг самимийлиги, камтаринлиги, меҳнатсеварлиги, изланувчанлиги, профессионал соҳасига садоқати ва юртига бўлган меҳри билан кенг жамоатчилик орасида обрў-эътиборга эга.

АЛИМОВА ХОЛИДА ЗИКРИЛЛАЕВНАГА УСТОЗ, ҲАМКАСБ ВА ШОГИРДЛАР ДИЛНОМАСИ

Гулчеҳра РИХСИЕВА,
Тошкент давлат шарқшунослик
университети ректори, профессор

ФИДОЙИ ПЕДАГОГ ВА ШАРҚШУНОС ОЛИМА

Шарқшунослик университети – ўзининг анъаналари ва қадриятларига эга даргоҳ. Бу фикрнинг тагида етарлича асос бор, чунки бу олий таълим даргоҳида аждодлар тарихини яхши биладиган, анъаналарини қадрлайдиган ва ёшларга таълим-тарбия беришда уларга амал қиладиган устозлар бор. Игна билан қудуқ қазишдек мураккаб бўлган илм-фан саҳифаларида ўзига алоҳида саҳифа яратган ва шарқшунослик соҳасининг айнан илмга асосланганилигини ўзи англаган ва ёшларга англатаётган олиму олимлари бор.

Эрон-афғон филологияси кафедраси (бугунги кунда олий мактаби)нинг улуғ дарғаларидан таълим олган Холида Алимова ҳам айнан шу фикрларимга ойдин мисол бўла оладиган шарқшунослардан. Бугун Холида Зикриллаевнанинг мўътабар аёл ёшига етганлари муносабати билан муборакбод этиш асносида уларнинг ҳаёт йўллари, айниқса, соҳа ривожига қўшган ҳиссалари ҳақида тўхталиш жоиз.

Алимова Холида Зикриллаевна – бугунги кунда шарқшунос олима, филология фанлари доктори, профессор. 1988 йилда Тошкент давлат университетининг (ҳозирги ЎзМУ) шарқ факультети афғон филологияси кафедрасини тамомлаб, ўша йилдан ҳозирги кунга қадар Тошкент давлат шарқшунослик университетида турли лавозимларда ишлаб келмоқдалар. Ўқитувчиликдан бошлаб кафедра мудири бўлиб ишлаган даврларида, профессор лавозимида ҳам форс,

дарий, пашту тилларининг ўқитилиши бўйича педагогик фаолият “қозонида қайнаб”, илмий-тадқиқотлар “денгизида сузиб” қанчадан қанча ёш эроншуносларни, афғоншуносларни етиштиришда ҳисса қўшиб келганлар.

Холида Зикриллаевна дарий тили, форс ва дарий тиллари назарий грамматикаси, дарий (форс) ва ўзбек (рус) тиллари чоғиштирма грамматикаси, Афғонистонда тил вазияти ва сиёсати бўйича университетдаги етакчи мутахассислардан.

Холида Алимова илмий фаолияти давомида дарий ва форс тилшунослигининг муҳим илмий муаммоларига оид тадқиқотлар олиб борган олима, кўплаб илмий мақола ва ўқув адабиётлари муаллифидир. Олима университет, республика ва халқаро миқёсдаги илмий-назарий ва амалий анжуманларда ҳам фаол иштирок этиб келмоқдалар. Холида Алимова томонидан тайёрланган дарслик ва ўқув қўлланмалар Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Мувофиқлаштирувчи кенгашининг грифи билан чоп этилиб, олий таълим муассасаларида хорижий ва шарқ филологияси йўналишида ўқув жараёнига татбиқ этилган.

Х.З. Алимованинг “Дарий тилида соматизмларнинг структур ва семантик таснифи” мавзусидаги номзодлик диссертацияси ҳамда “Дарий тилида сўз ясалишининг ички лингвистик усуллари” мавзусидаги филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси ўзбек эрон-афғон филологиясининг муҳим тадқиқотларидан ҳисобланади. Илмий даражалар асосида педагогик фаолиятни мунтазам олиб борган Холида Зикриллаевна доцент ва профессорлик унвонларига ҳам босқичма-босқич эга бўлганлар.

Х.З. Алимова 38 йиллик илмий-педагогик фаолияти давомида “Дарий тили”, “Дарий тили лексикологияси”, “Форс ва дарий тиллари назарияси”, “Дарий (форс) ва ўзбек (рус) тиллари чоғиштирма грамматикаси”, “Эрон тилшунослиги”, “Мутахассисликка кириш”, “Қўшма гап синтаксиси”, “Дарий тилида иш юритиш” фанларидан,

“Лингвистика (шарқ тиллари бўйича)”, “Тарих (йўналишлар ва фаолият турлари бўйича)” мутахассисликларида “Мутахассисликка оид махсус адабиёт таҳлили”, “Мутахассисликнинг назарий масалалари”, “Шарқ мамлакатларида тил вазияти ва сиёсати (Афғонистон, Эрон)”, “Маданиятлараро мулоқот”, “Илмий матн таҳлили”, “Лингвистическая терминология” каби фанлардан талабаларга дарс бериб келмоқдалар.

Х.З. Алимова раҳбарлигида 40 дан ортиқ бакалавр, 10 дан ортиқ магистр, шунингдек, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси ишлари муваффақиятли ҳимоя қилинди. Айни вақтда ҳам таянч докторантлар ва магистрлик ишларига илмий раҳбарлик қилмоқдалар.

Х.З. Алимова нафақат форс ва дарий тиллари бўйича юқори малакали кадрлар тайёрлашда фаол, балки университетда шарқ тиллари ва қиёсий, чоғиштирма тилшунослик бўйича иш юритувчи Илмий кенгаш ва Илмий семинарларда ҳам фаолият олиб бормоқдалар. Тошкент давлат шарқшунослик университети ҳузуридаги илмий даражалар берувчи Илмий кенгаш аъзоси ва Кенгаш қошидаги Илмий семинар раиси, Самарқанд давлат университети ҳузуридаги илмий даражалар берувчи Илмий кенгаш аъзосилар.

Х.З. Алимова 2018 йил Президентимиз ташаббуслари билан таъсис этилган “Ўзбекистон-Афғонистон” дўстлик жамиятининг ижрочи директори (2018-2024 йиллар) сифатида Ўзбекистон ва Афғонистон халқлари орасидаги маданий-маърифий, таълим-фан соҳасидаги алоқаларни ривожлантиришга қаратилган бир қатор тадбирларни ташкиллаштиришда фаол қатнашиб келмоқдалар.

Холида Зикриллаевна педагог, олима, устоз бўлиш билан бирга, намунали оиланинг бекаси, она ва бувижон, ўзбек қизларимизга ўрнак бўладиган аёллар тимсоли. Ушбу таваллуд айёмлари билан уларни табриклаб, мустаҳкам

саломатлик, оилавий бахт-иқбол, фарзанду набиралари, шогирдлари бахтига доим соғ бўлишларини тилайман.

Шарқшунослик анъаналарини кўплаб авлодларга муносиб етказишда, ўтказишда туганмас куч-ғайрат билан кўплаб шогирдлар тайёрлаб, янги ташаббуслар билан фаолиятларини давом эттириб, кучли олиму олимларнинг севимли устози бўлиб, ҳормай-толмай юрсинлар, қадрли Холида опамиз!

Абдураҳим МАННОНОВ,

ТДШУ Эроншунослик ва афғоншунослик олий мактаби профессори, филология фанлари доктори

ХОЛИДАХОН ҲАҚИДА КЎНГИЛ ТЎРИДАГИ СЎЗЛАРИМ

Мен Холидахонни талабаликка илк қадам қўйган чоғларидан биламан. Биринчи курсдаёқ у киши ўзининг билимга бўлган катта меҳри, қобилияти билан кўзга ташланиб турадиган талабаларимиздан бири эдилар.

Ўқишлари, ўзбекона одоб, миллатимизнинг сара қизларига хос гап-сўзлари, баланд орияти, иффати ва ички маданияти, ақиллилиги, қалби поклиги каби бир неча гўзал сифатлари билан кўпчилик дугоналаридан ажралиб турар эди. Ҳар бир сабоқ берган устозга нисбатан беқиёс ҳурмат ва эътиборлари, берилган уй вазифаларини бекаму кўст, олий даражада ижро этиб келишлари билан доимо факультетимизнинг аксарият қизларига ўрнак эди.

Холидахоннинг аъло баҳоларга ўқишлари, иккинчи курсдаёқ талабалар илмий жамиятининг фаол иштирокчиси сифатида ўрганилаётган тилларга оид илмий изланишларга катта қизиқиш билдирганликларининг гувоҳиман.

Тўғри, Холидахоннинг бу хислатларининг намоён бўлишида, аввало, оталари – устозимиз Зикрилла Акбаровичнинг маҳоратли педагогик ва инсоний фазилатларининг таъсирини ҳам инкор этиб бўлмайди. Аммо Холидахоннинг ҳеч бир хатти-ҳаракатларида оталарининг нуфузларига суяниш мутлақо сезилмайди. Лекин оталаридан қолган билимга бўлган меҳр, қобилият ва инсонийлик туйғулари у кишининг қонида бор эди.

Факультетни аъло кўрсаткичлар билан тамомлаган Холидахон кафедрага ишга қабул қилинди ва шу даврдан эътиборан у киши, мана қарийб 38 йилдан бери кафедрада педагогик ва илмий фаолиятларини катта муваффақият билан узлуксиз давом эттириб келмоқдалар.

У киши ҳар бир ишга алоҳида заковат ва салоҳият билан ёндашадилар. Эрон-афғон кафедрасининг улуғ устозлари, олиму-фузалоларининг таъсири ва тарбиясидан, уларнинг бу кишига кўрсатган самимий эътиборларидан баҳраманд бўлдилар. Ва ўзлари ҳам маълум вақтдан кейин кафедрамизнинг энг жонкуяр, тиним билмас, заҳматкаш, ўзи танлаган касб-соҳасига беқиёс садоқатли ходимасига, аъзосига айландилар.

Холидахоннинг илмий-педагогик фаолиятлари, бу соҳада эришган салмоқли муваффақиятлари алоҳида монографик тадқиқотга муносиб, деб ўйлайман. У кишининг илмий-педагогик фаолиятлари, бу соҳада фан ва таълимга қўшган ва қўшиб келаётган катта ҳиссалари ҳақида истеъдодли шогирдлари албатта салмоқли китоб ёзадилар.

Холидахоннинг нафақат йирик олима, мутахассис эканликлари, балки дарс бериш маҳоратлари, Афғонистоннинг миллий тиллари тарихига ёндашувлари, дарий тилига, қолаверса форс тилига оид юзга яқин илмий, илмий-оммабоп мақолалари, бир неча фундаментал монографик тадқиқотлари ва энг муҳими Ўзбекистонимизда биринчилардан бўлиб дарий тили бўйича яратган ўта зарур дарслик ва қатор қўлланмаларини қайта-қайта таъкидлашни истар эдим.

Факультетимизда дарий тили асосий шарқ тили сифатида 1963 йилдан эътиборан ўқитила бошланган эди. Бу фаннинг биринчи мударриси москвалик олима бу тил бўйича собиқ совет иттифоқида биринчи қўлланмани ёзган Л.Н. Киселева (Дорофеева) эдилар. У киши устоз Ш.М. Шомуҳамедовнинг илтимослари билан Тошкентга келиб, илк бор 3-курс афғон бўлими талабаларига, жумладан бизларга ҳам бут тил грамматикаси бўйича уч ойлик маърузалар курсини ўқиган эдилар.

У киши Москвага қайтиб кетганларидан кейин дарий тилини бўлғуси афғоншунос талабаларга устоз Нодир

Олимхонов ва устоз Умаров Зикрилла Акбаровичлар ўқитдилар.

У пайтлар бирон-бир дарслик у ёқда турсин, кичик бир қўлланма ҳам йўқ эди. Асосий қўлланма ўша рус олимаси Л.Н. Киселева қолдирган маърузалари матни ҳамда Афғонистондан келиб қолган дарий тилидаги бирон-бир газета ёки мактаблар учун чиқарилган ўқув китобчаларидан олинган турли мавзулардаги ўқиш матнлари эди.

Кейинчалик Л.Н. Киселеванинг "Язык дари Афганистана" (1988) номли асари, Б.Я. Островскийнинг дарий тилига оид кичик монографияси ва "Дарий тили дарслиги" (2004 й.) босилиб чиққан бўлса-да, лекин ўзбек тилида бирон бир қўлланма ёки дарслик йўқ эди.

Ўзбек тилида 2000 йиллардан эътиборан А.Ғ. Ғаниев, З.У. Умаров, О.З. Шокировларнинг дарий тили бўйича бирин-кетин дарслик ва қўлланмалари, илмий тадқиқотлар амалга оширилди.

Аммо бу соҳада ҳозирда тизимли ва тўхтовсиз изланишлар олиб борган, салмоқли дарслик ва қўлланма ҳамда монографик тадқиқотларни амалга ошириб келаётган, соҳа бўйича бошқа илмий ва тадрисий ишларнинг вужудга келишига бош-қош бўлаётган олима айни Холидахон Алимовадир.

Гарчи у кишининг дастлабки ҳамкорликда ёзган дарсликлари Эрон форс тилисига оид бўлса-да, лекин бу ишларнинг аксарият қисми дарий тили билан боғликдир. Проф. А. Қуронбеков раҳбарлигида Холидахон 2008 йилда “Дарий тилида соматизмларнинг структур ва семантик таснифи” мавзусидаги номзодлик диссертациясини муваффақият билан ҳимоя қилганидан кейин, у кишининг бирин-кетин “Дарий тилида соматик қўшма сўзлар” (2007), “Дарий тили (морфология)” ўқув қўлланма (2013), “Дарий тили” (2012) (Ю. Хўжақулов, Г. Қурбонова ҳамкорлигида), “Дарий тили сўз ясалиши” (2019), “Дарий тилида сўз ясалишининг ички лингвистик усуллари” (2019) асарлари

босилиб чиқди. Бу ишлар орасида соҳага оид энг салмоқли нашр Ё. Хўжақулов билан ҳаммуаллифликдаги “Дарий тили” дарсликлари (2019) ҳисобланади.

Шунингдек, Холидахон дарий тилини ўрганаётган талаба ва магистрантлар учун ўқиладиган фанлардан маърузалар матнини тайёрлаб, уларнинг бир қисмини чоп ҳам эттирганлар.

Назаримизда, ҳозирда Холидахоннинг шу пайтгача босилиб чиққан илмий мақолалари, монографик тадқиқотлари ва дарсликларини жамлаб бир неча жилдлик асарлари тўпламини қайта нашр этиш вақти келди. Бу иш олиманинг 1980 йилдан эътиборан босқичма-босқич амалга оширган илмий-педагогик фаолиятининг ўзига хос салмоқли сарҳисоби бўлар эди.

Холидахон тилшунослик соҳасида йирик, маҳоратли, тажрибали олимлар мақомига эришган, назарий билимларга тўлиб тошган олима-педагогдир. У киши 2012–2018 йиллар давомида Эрон-афғон филологияси кафедрасини ўта самарали бошқарган раҳбар ҳамдир. Шу даврда у кишининг кафедрадаги ўқув-илмий фаолияти, кадрлар салоҳияти ва илмий ишларнинг ривожидаги фаолиятлари институтимизнинг кўпчилик кафедра мудирларига ўрнак бўларли эди. Мен ректор сифатида у кишининг кафедра мудири сифатидаги ишларидан жуда мамнун эдим.

Дарҳақиқат, кафедрани у киши бошқарган йиллари илмий, услубий, таълимий салоҳият, обрўси жуда юқори даражада бўлди. Холидахоннинг бевосита раҳбарлигида ўнлаб магистрантлар ва бир қанча ёш ўқитувчилар илмий ишлар олиб бордилар, баъзилари эса у киши раҳбарлигида докторлик (PhD) диссертацияларини тайёрладилар ва ҳимоя ҳам қилдилар.

Холидахоннинг илмий салоҳиятининг авж нуқталаридан — у кишининг кўп йиллардан буён филология, қиёсий тилшунослик ва таржимашунослик йўналишидаги Илмий кенгаш қошидаги илмий семинарларга раҳбарлик қилиб

келаётган вазифасида амалда яққол кузатилади. Илмий семинар раиси сифатида у киши ёзилган диссертация ишларининг илмий савияси, талабларга тўлиқ жавоб бериши юзасидан талабчанлик, кези келганда ўта адолатли, қаттиққўллик билан иш юритмоқдалар.

Натижада, айнан Холидахоннинг жонкуярлиги ва талабчанлиги туфайли ҳимояга тавсия этилган аксарият диссертациялар “минг чиғириқ”дан ўтиб, ҳам назарий, ҳам илмий-методологик жиҳатдан етилиб ҳимояга чиқмоқда.

Шу ўринда дилим тўридаги яна бир гап. Холидахон халқимиз таъбири билан айтганда — “отасининг қизидир”. Университетда ва ундан ташқарида аҳли илм соҳиблари Холидахоннинг севимли оталарининг ўз вақтида ўзбек шарқшунослиги, тилшунослиги, матншунослиги, луғатшунослигида ўчмас из қолдирган ҳиссаларини қайта тиклаш йўлида катта ва машаққатли меҳнатни амалга ошириб, устоз Зикрилла Умаровнинг номзодлик диссертациялари асосида ёзилган, аммо ўз вақтида босилмай қолган лигнвистикамизга оид фундаментал асарлари – навоийшунос Мирзо Меҳдихоннинг "Мабони ул-луғат" асарининг таржимаси ва унинг эски ўзбек тилининг ривожидаги ўрни билан боғлиқ тадқиқотларини бир неча нашрини (2006, 2008, 2013, 2025 йиллар) амалга оширдилар ва бу нашрлар устознинг эски ўзбек тилини ўрганишга қўшган ҳиссаларини ҳамда уларнинг илмдаги номларини абадийлаштиришга қаратилган ўта хайрли, ҳақиқий фарзандлик ишларидир.

Холидахон дилимнинг энг тубида сизга нисбатан ҳам илмий ходима, ҳам тажрибали педагог, ҳам бениҳоя садоқатли, фозила, оилапарвар, куюнчак, инсон сифатидаги хислатларингиз ҳақида айтадиган гапларимнинг адоғи йўқ. Ҳали бу соҳаларда режалаштирган улкан ишларингиз беҳисоб. Сизга узоқ умр, оилавий хотиржамлик, илмий-педагогик фаолиятингизда янада улкан муваффақиятлар тилайман.

Муҳаммаджон ИМОМНАЗАРОВ,
ТДШУ Эроншунослик ва афғоншунослик олий мактаби профессори, филология фанлари доктори

ХОЛИДАХОН АЛИМОВА ҲАҚИДА

Мен Холидахон ҳақида кафедра аъзоларининг барчаси биладиган гапларни айтишим мумкин. Бу биринчи навбатда барча юмушларга ўта масъулият билан ёндашиш, ўз илмий-ижодий қудрати етган даражада мукаммал бажаришга интилиш дейиш мумкин. Яна бир хислати ҳолислик ва ҳар бир ишга – хоҳ раҳбарият, хоҳ ҳамкасаба, хоҳ талаба-шогирд бўлсин меҳр ва самимият билан муносабатда бўлиш.

Бу хислатлар Холидахоннинг адаларида хам ёркин намоён бўлар эди. Зикрила ака хам худди шундай самимий ва меҳрли инсон эдилар, Афсус, бу ёруғ оламни анча эрта тарк этдилар. Холидахон амалга оширган энг қутлуғ юмуш - адалари яратган илмий ишни жуда чиройли нашрга тайёрлаб, қўлимизга етказганлари бўлди.

Бизнинг афсусимиз бор эдики, акахонимиз катта илмий-амалий аҳамиятга эга бўлган илмий тадқиқотлари натижасини нашр эттириб, кўпчилик баҳраманд бўладиган ҳолатга эришиб улгурмаган эдилар. Айни шу камчиликни (илм олами учун) фарзандлари бартараф қилишга эришдилар. Натижада бизнинг қўлимизда бугун устоз яратган илмий монографиядан фойдаланиш, баҳра олиш имкони яратилди. Шу билан ота мероси кўпчиликнинг маънавий бойлигига айланди. Ҳар бир фарзанднинг эзгу амали ана шунда намоён бўлади: у нафақат оила даврасида аждодини ёд этади, балки кенг жамоатчиликни ҳам олим ижодидан баҳраманд этишни йўлга қўяди. Бу эса, шубҳасиз, ўта савобли ва гўзал амалдир. Фарзанд ҳам илм ва ижод соҳасида ота изидан бормоқда, шу билан бирга, ота қолдирган қимматли маънавий меросни кенг жамоатчилик эътиборига етказмоқда. Қизимизнинг умри узоқ бўлсин, эзгу иш-амаллари зиёда бўлсин, оилавий бахт, фарзандлар бахти-камолини кўришлари бардавом бўлсин.

Qosimjon SODIQOV,
TDSHU Turkshunoslik oliy maktabi
professori, filologiya fanlari doktori

XOLIDA ZIKRILLA QIZI NASHRGA TAYYORLAGAN IKKI KITOB HAQIDA IKKI OG‘IZ SO‘Z

Men Alimova Xolida Zikrilla qizini ko‘pdan beri taniyman: bilimli olima, dariy tili bo‘yicha o‘tkir mutaxassis, tajribali o‘qituvchi, odobli o‘zbek ayoli. Uning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoyasida kengash a’zosi sifatida qatnashganman; uning ilmini juda hurmat qilaman. Xolida Alimova otasi yozib qoldirgan ilmiy asarlarini yuzaga chiqarish yo‘lida yaxshi bir ishga qo‘l urdi. Men ana shular haqida ikki og‘iz so‘z yuritmoqchiman.

XVIII yuzyilda Eronda Mirzo Muhammad Mehdixon degan bir olim yashab o‘tgan; turkologiyada taniqli inson. U Astrobodda tug‘ilgan. Eron tarixchilari u kishini Mirzo Muhammad Mahdixon Astrabodiy mo‘nshiy, deb yozadilar. Bunga sabab, u Eron hukmdori Nodirshohning kotibi va saroy tarixchisi edi. Shu bilan birga, davlatning siyosiy-diplomatik ishlarida ham faol qatnashgan, kerak vaqtda elchilik vazifasini ham bajargan.

Mirzo Mehdixon o‘z davrining kuchli tilshunosi ham edi. Uning “Sanglox” degan lug‘ati bor; o‘zbekcha anglami “Toshloq” degani; qiyinligiga ko‘ra shunday atalgan bo‘lib, so‘zlik egasi uni 1760- yili tuzib tugatgan. “Sanglox” eski o‘zbek tili (chig‘atoy tili) so‘z boyligi bo‘yicha tuzilgan forscha izohli lug‘at bo‘lib, unga Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Mavlono Mir Haydar, sulton Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida qo‘llangan turkiy so‘zlar jamlangan; so‘z anglami uchun keltirilgan jonli o‘rnaklar ham ularning asarlaridan olinadi. Eski o‘zbek tili, xususan, Alisher Navoiy davri asarlarida qo‘llangan so‘z boyligi bo‘yicha

tuzilgan lug‘atlar ichida “Sanglox”ga tenglashadigani oz. Eski o‘zbek tilining so‘z boyligini to‘liq aks ettirgan izohli lug‘at.

Mirzo Mehdixon lug‘atining grammatika qismi “Maboniu-l-lug‘at” (“Til asoslari”) deb ataladi.

“Maboniu-l-lug‘at” Alisher Navoiy asarlari tilining ilk ilmiy grammatikasidir. Uning muqaddimasida urg‘ulanishicha, ushbu asar turkiy fe’l shakllari qoidalari, ularning yasalish usullari haqidagi birinchi asar bo‘lib, muallifning maqsadi faqat Navoiy hazratlarining she’riy va nasriy asarlari tilini tahlil qilishdan iborat bo‘lgan (*qarang:* “Мабони ул-луғат”, 9-10- b.). Mirzo Mehdixonni turkiy til bilimdoni, turkiy tilshunoslik tarixida chuqur iz qoldirgan ulug‘ olimlardan biri desa bo‘ladi. U o‘z asarida Navoiy asarlari tilini chuqur tahlil qilib, klassik tilning ilmiy asoslarini, boshqa tillarda uchramaydigan o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bera olgan. Olimning eski o‘zbek yozma adabiy tili qonun-qoidalari, grammarik qurumi haqida yozgan yaxshi fikrlari bor. U “Maboniu-l-lug‘at”da tilshunos Farog‘iy fikriga qarshi o‘laroq: “Garchi Farog‘iy o‘z asarida turk so‘zlari vazn va masdar tartibiga ega bo‘lmagani uchun o‘z kitobimga qadimgilarning she’rlarini asos qilib oldim desa ham, uning fikrlari haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki turk tilida aniq va mavjud bo‘lgan uyg‘un tartib va qoidalar na fors tilida bor-u, na arab tilida. Uning [ya’ni turk tilining] barcha fe’l shakllari grammatik qoidaga muvofiq yasalgandir”, deb yozgan edi (“Мабони ул-луғат”, 10- b.).

Xolida Alimovaning otasi Zikrilla Umarov fors tilining bilimdonlaridan edi (Alloh rahmat qilsin u kishini); uzun yillar Toshkent davlat universiteti sharq fakultetining eron-afg‘on bo‘limida dars bergan. U kishi 1967- yili domla Aliybek Rustamov ilmiy rahbarligida Mirzo Mehdixonning “Maboniu-l-lug‘at” asari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan (*qarang: Умаров З.А.* Грамматика староузбекского языка “Мабани ул-лугат” Мирзы Мехдихана. Автореферат кандидатской диссертации. – Ташкент, 1967).

Xolida Alimova otasining ilmiy ishlari bir chetda qolib ketmasin, yuzaga chiqsin degan istakda “Maboniu-l-lug‘at”ning otasi o‘zbek tiliga o‘girgan matnini chop ettirdi. U kezlar taniqli turkolog Qozoqboy Mahmudov tirik edilar (Alloh rahmat qilsin u kishini); birgalikda matnni sinchiklab ko‘rib chiqishdi; nashr hozirgi turkologiya, xususan, navoiyshunoslik talablari darajasidagi to‘kis kitob bo‘ldi. Kerak degan mutaxassis va izlanuvchi o‘sha kitobni o‘qib chiqsin; turkiy tilshunoslik tarixida yaratilgan muhim bir asarning ilmiy nashri. Kitobning atalishi shunday:

Мирзо Меҳдихон. Мабони ул-луғат. Форсийдан Зикрилло Умаров таржимаси. Нашрга тайёрловчи Холида Алимова. – Тошкент, 2008. – 125 б.

Asarga “Maboniu-l-lug‘at”, ya’ni chig‘atoy tili grammatikasi. Muallif Mirzo Muhammad Mehdixon Astrobodiy – Nodir tarixini tuzuvchi” deb sarlavha qo‘yilgan. U so‘zboshi, muqaddima, tarsif va olti mabnodan tuzilgan. *Mabno* degani grammatik asos; ko‘pligi – *maboni*: Birinchi mabno fe’l shakllariga bag‘ishlangan; Ikkinchi mabno fe’l shakllarining yasalish yo‘llari haqida; Uchinchi mabno olmoshlar va ko‘rsatish ismlari bayoni; To‘rtinchi mabno birikmagan holda ma’no anglatmagan so‘zlar (sharq grammatikasida *harf* atalgan) haqida; Beshinchi mabno mustaqil ma’noga ega bo‘lgan, lekin o‘z ma’nosini ifodalamaydigan so‘zlar haqida; Oltinchi mabno imlo qoidalari haqida. Shunday qilib, kitob Navoiy asarlari morfologiyasini keng ko‘lamda qamrab oladi; kerakli til hodisalarning birortasi chetda qolmagan. Til bilimida aniq yondashuv; klassik yozma adabiy tilga juda mos tushadi; ulardan ko‘p narsa o‘rgansak bo‘ladi.

Oradan yillar o‘tdi. Ilmiy suhbatlarning birida Xolida Alimova otasining yorqin xotirasi uchun uning yana bir ishini yuzaga chiqarish harakatida ekanini aytib qoldi; Zikrilla Umarov yoqlagan dissertatsiyasi matnini monografiya shaklida chop ettirish istagida ekanini bildirdi; ma’qul dedim.

Aytishiga qaraganda, O‘zbekiston Milliy universiteti (ilgarigi ToshDU) arxividan dissertatsiyaning mashinkalangan ikkinchi nusxasini arang izlab topibdi. Xolida monografiya matnini o‘sha asosida qayta tikladi; undagi har bir so‘zni o‘zgartirmay, asliday qoldirishga harakat qildi. Bu ishni tugatish uchun ham bir necha yil ketdi.

Xolida Alimovaning bu ishi ham hozirgi navoiyshunoslik talablari darajasidagi to‘kis ilmiy nashr bo‘ldi. Kerak degan mutaxassis va izlanuvchi bu kitobni ham o‘qib chiqsin. Ushbu kitobning atalishu shunday:

Зикрилла Умаров. Мирзо Меҳдихоннинг “Мабониу-л-луғат” эски ўзбек тили грамматикаси. Нашрга тайёрловчи Холида Алимова. – Тошкент, 2025. – 288 б.

Birinchi bob “Maboniu-l-lug‘at” asaridagi grammatik tizim” deb atalgan. Unda Mirzo Mehdixon qo‘llagan grammarik tizim ilmiy jihatdan keng ko‘lamda talqin qilingan. Muallif klassik tilning qay jihatiga e’tibor qaratgani, ishlatilgan atamalarning ilmiy ma’nosi hozirgi tushunchalar doirasida ochiqlanib, Navoiy asarlaridan keltirilgan jonli o‘rnaklar tahlilga tortiladi.

Masalan, Z. Umarovning yozishicha, beshinchi mabno mustaqil ma’noga ega bo‘lib, o‘z ma’nosida qo‘llanmaydigan so‘zlar (ko‘makchi fe’llar)ga bag‘ishlanib, ikki qismga bo‘lib tekshirilgan. Birinchi qism *kalamot-i mufrada*, ya’ni “sodda so‘zlar” deb atalib, *almaq, bilmäk, tüšmäk, kirišmäk, yazmaq, körmäk* fe’llarini o‘z ichiga oladi va ular mustaqil ma’noga ega bo‘lib, birikkan shaklda ko‘makchi vazifasida ishlatiladi: *ala almaq, bara almaq; bara bilmän; ara tüšti; tuta kirištilär; qïla kör* singari.

Ikkinchi qism *kalamot-i murakkaba*, ya’ni “murakkab so‘zlar” deb atalib, quyidagi (allegoriya, metafora) idiomatik birikmalardan tashkil topgan: *qaš qaralamaq,* ya’ni shom qorong‘iligining paydo bo‘lishi; *qulaγ tutmaq,* ya’ni ahd qilmoq; *qabaq baγlamaq,* ya’ni yolg‘on narsani biron kishiga to‘nkamak; *qatïγ közlük*, ya’ni qattiq ko‘z, sharmsizlik, hayosizlik singari (49-50- b.).

Bob so‘ngida Mirzo Mehdihon ishlatgan lingvistik atamalar so‘zligi berilgan: *taf’il* (**تفعيل**) – orttirma nisbat; *mufo’ila* (**مفاعله**) – birgalik nisbat; *suqut* (**سقوط**) – harf va tovushning tushib qolishi; *moziy* (**ماضى**) – o‘tgan zamon singari (72-79- b.). Ushbu so‘zlik tarixiy tilshunoslikning til materialiga yondashuv prinsiplarini, grammatik atamalarning mag‘zini aniqlashga imkon beradi.

Ikkinchi bob “Maboniu-l-lug‘at” asaridagi grammatik material” deb atalgan. Unda Navoiy asarlari tilining morfologik xususiyatlari, qonun-qoidalari jonli o‘rnaklar misolida bayon qilingan.

Ilmiy tadqiqot so‘ngida “Maboniu-l-lug‘at”ning sxematik ko‘rinishi, boblarlarning, mabnolarning sxematik ko‘rinishlari ilova qilib berilgan.

Muhimi shundaki, ushbu kitobga Zikrilla Umarovning ilmiy ishi bilan birga “Maboniu-l-lug‘at”ning o‘zbekcha tarjimasi ham kiritilgan.

Xolida Alimova bu kitoblarni chop ettirib, fan olamida otasiga mangutosh tikladi.

Shorustam SHOMUSAROV,
TDSHU Arabshunoslik oliy maktabi
professori, filologiya fanlari doktori

USTOZINING MUNOSIB SHOGIRDI

Xolida Alimova to‘g‘risida gapirilganda, meni ko‘z oldimga, birinchi navbatda, u kishining padari buzrukvorlari, hammamizning ustozimiz – Zikrillo domla siymolari keladi.

Zikrillo ustoz – o‘zbek afg‘onshunosligining munosib yirik darg‘alaridan, zamonasining ziyoli, o‘qimishli insonlaridan edilar.

Men yosh o‘qituvchilik paytim, paxtaga borganimizda, o‘tin yoqiladigan pechka oldida, kuz oqshomlarida ular Sharq madaniyati, adabiyotiga oid qiziqarli ilmiy ma’lumotlar aytardilar, biz esa katta qiziqish bilan eshitardik, o‘zlari bosh bo‘lib sa’diyxonlik, xofizxonlik, xayyomxonlikni boshlardilar, biz qo‘shilardik. Ularni Alloh o‘z rahmatiga olgan bo‘lsin!

Oldingi paytlarda ham, hozirda ham va bundan keyin ham ustozlarning farzandlari bizning oliy o‘quv yurtimizda o‘qishgan, bundan keyin ham o‘qishadi. Lekin Xolidaxon man uchun Ustozning farzandidek ulug‘ nomga sazovor bo‘lgan, ustozlarimiz farzandlari ichida namuna bo‘la oladigan darajadagi munosib farzandi arjumandlari edilar va hozirgacha mana shu bayroqni baland ko‘tarib kelmoqdalar.

Bu yerda yana bir muhim gap bor. Xolida Alimova Zikrillo domlaning munosib qizlari bo‘lish bilan birga, hammamizning ustozimiz, marhum Ahmadjon Quronbekovning ardoqli shogirdlari hamdir. O‘z paytida ustoz-shogirdlikni o‘rniga qo‘ygan, doimo ustozidan oq fotihalar olgan benazir olima – Xolida Alimova kam bo‘lgani yo‘q, alhamdulillah, kam bo‘lmaydi ham.

Oxirgi paytda hammani, shu jumladan meni ham, olqishini olgan katta va yirik loyihalaridan va ishlardan biri – ustoz Zikrillo domlaning nomzodlik dissertatsiyalarini qaytadan,

to‘ldirib, nashr etilgani bo‘ldi. Bu – Vatanimiz ilm ahlini nihoyatda quvontirdi.

Barakalla, Xolidaxon! Otangizni hayotlarida qilgan cheksiz hurmatingiz, ular vafotlaridan keyin ham davom etmoqda! Ustozning ruhlari shod bo‘lmoqda!

Jahonda keyingi yillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra, insonning eng sermahsul ijod payti – 60-70 yoshlariga to‘g‘ri kelarkan!

Xolidaxon! Siz ijodingizning eng sermahsul pallasidasiz! Sizga uzoq umr, oilangizga mustahkam tinchlik, ijodingizga baraka bersin!

Har doim talabalarning mehribon ustozi, ilm ahlining zukko olimasi, nabiralaringizning sevimli buvijonisi bo‘lib yurishingizga tilakdoshmiz!

Улфатхон МУҲИБОВА,
ТДШУ Жанубий Осиё тиллари ва адабиёти олий мактаби профессори, филология фанлари доктори, ҳиндшунос олима

ЭНГ ҚАДРДОН ҲАМКАСБИМ

Тошкент давлат шарқшунослик университети шарқшуносликнинг катта ва кучли марказларидан бири ҳисобланади. Ушбу даргоҳда XX асрнинг ўрталаридан бошлаб шарқ илмининг энг йирик дарғалари фаолият олиб борганлар ва, айнан, уларнинг фаолияти ўзбек шарқшунослигиниинг номини юқори даражага кўтарганлигига бугунги кунда асло шубҳа йўқдир.

Эроншунослик сохаси эса шарқ илмини ўрганишнинг энг муҳим йўналишларидан ҳисобланади. Бу йўналишда университет (аввалги шарқ факультети) тил ва адабиёт соҳасида жуда кучли мутахассисларни етиштирган. Шундай кучли эроншунослардан бири Зикрулла ака Умаров эдилар. Зикрулла ака билан биз эски шаҳарда бир маҳаллада яшар эдик. Уларнинг форс тили бўйича кучли мутахассис эканликларини мактабда ўқиб юрган чоғларимда эшитгандим. Йиллар ўтиб мен ҳам шарқ факультети ҳинд филологияси кафедрасининг талабаси бўлдим. Зикрулла акани факультетда тез-тез кўрадиган бўлдим. Зикрулла ака эрон-афғон филологияси кафедрасида форс тилидан дарс берар эдилар. Мен ўқишни битириб ўзим ўқиган Ҳинд филологияси кафедрасида ишлай бошладим. Факультетда ишлаган даврымда мен бу устозни яна ҳам яқиндан таний бошлаганман ва ҳар доим шунча билимга эга бўлган инсон шунчалик камтарин ва оддийлигига ҳайрон қолар эдим.

Мана шу камтарин, билимдон устоз Зикрулла Умаровнинг қизлари Холидахон Умарова бўладилар. Холидахон ҳам ота касбини танлаб, Шарқ факультетининг эрон-афғон филологияси кафедрасига ўқишга кириб дарий тили мутахассиси сифатида ўқишни якунладилар. Албатта,

Холидахон ҳам ушбу соҳани яна ҳам чуқур эгаллаш мақсадида илм йўлини танлаб, кафедрада ишга қолиб ишлай бошладилар. Йиллар ўтиб ҳар икковимиз ҳам фан номзоди бўлдик, доцент унвонига эга бўлдик ва ҳар иккимиз ҳам кафедра мудири лавозимида ишлай бошладик. Мен адабиётшунослик йўналишида, Холидахон тилшунослик йўналишида илмий-педагогик фаолиятимизни, шунингдек, раҳбарлик лавозимимизни баб-баробар давом эттирдик. Ўрганадиган малакатимиз икки хиллигини ҳисобга олмаганда қолган барча фаолиятимиз бир хил бўлгани боис доим бамаслаҳат иш юритар эдик. Ўқув ва илмий соҳаларда жуда кўп синовларни бирга бошимиздан кечирганмиз. Айниқса, институтимизнинг ҳар беш йилда аттестация-аккредитациядан ўтиши жараёнлари бизни яна ҳам яқинлаштирган. Аттестациялар даврида 3 йиллик ҳужжатни тайёрлаш ишлари анчагина вақтимизни олар эди. Бу ишларни аниқ ва тўғри бажариш учун биз кунига бир неча мартадан учрашиб, ташкилий ишлар бўйича, ҳужжатларни расмийлаштириш бўйича бир-биримиз билан тажриба алмашиб ишлайверардик. Аттестация ҳужжатларининг кети узилмаслигидан доим кеч соат 23.00ларгача институтда қолиб кетар эдик. Шундай кезларда уйимиз ҳам бир йўналишда бўлгани боис Холидахонни олиб кетиш учун келган умр йўлдошлари мени ҳам уйимгача олиб бориб қўяр эдилар. Холидахон билан кўп йиллар мана шундай мудир лавозимида ишлаб, бир-биримизни қўллаб-қувватлаб, бир-биримизга ёрдам бериб жуда аҳиллик билан ишлаганмиз.

Мен ва Холидахон бугунги шарқшунослик соҳасидаги бахтли шогирдлардан ҳисобланамиз. Чунки, Холидахон ҳам, мен ҳам шарқшуносликнинг энг мумтоз даврини, энг кучли шарқшуносларни кўрган, уларнинг илмидан, фаолиятидан, уларнинг меҳридан бахраманд бўлган инсонлармиз, деб ўйлайман. Бугунги кун шарқшунослиги ҳам, албатта, аввалгидан ҳам кенгайиб, янги-янги йўналишлар билан бойиб бормоқда. Лекин, ХХ аср шарқшуносларининг ўрни алоҳида таҳсинга сазовордир. Уларни ўз кўзи билан кўрган, улар

билан ёнма-ён ишлаган, уларнинг илмидан баҳраманд бўлган, уларга шогирд бўлган инсогина буни тушуниб етиши мумкин.

Холидахон бугунги кунда ўз отасининг номини оқлаган, афғоншуносликда энг кучли мутахассислардан бири бўлиб етишган олимадир. Университетда илмий даражалар берувчи Ихтисослашган Кенгаш қошидаги Илмий семинарнинг раиси сифатида ҳам кўп йиллардан бери ишлаб келмоқда. Зикрулла ака бугун ўз қизлари номида барҳаёт яшамоқдалар. Бугунги кунда қизларини кўрганларида, албатта, жуда фахрланган бўлар эдилар. Умримни бағишлаган соҳамни фарзандим мендан ҳам аъло даражада давом эттираётган экан, деб хотиржам бўлган бўлар эдилар. Нафақат Холидахон, балки Зикурулла аканинг катта қизлари, Холидахоннинг опалари Нафисахон Умарова ҳам, уларнинг келинлари Динарахон Юсупова ҳам, Холидахоннинг қизлари Шаҳбора Алимова ҳам форс ва хитой тиллари бўйича жуда малакали мутахассислар сифатида етишиб чиққанлар ва ҳозирда Олий таълим даргоҳларида мазкур шарқ тилларидан ёшларга сабоқ бериб келмоқдалар. Холидахон ҳам шарқшунослик университетида дарий тилшунослиги бўйича докторлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилиб, бугунги кунда профессор лавозомига ҳам эга бўлган. Холидахонлар оиласида шарқшуносликнинг уч авлоди етишиб чиққан ва бу оила шарқшуносликка садоқати кучли оилалардан биридир.

Мен қадрдон, меҳнаткаш ва самимий ҳамкасбим Холидахон Алимовага, уларнинг оилаларидаги барча шарқшуносларга ўз касбининг бундан ҳам юксак чўққиларига эришишларини тилаб қоламан.

Салимахон РУСТАМИЙ,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси
Араб тили ва адабиёти ал-Азҳар кафедраси
профессори, филология фанлари доктори

ОТА ИЗИДАН: ИЛМ ВА ФИДОЙИЛИК ЙЎЛИ

Инсоният тарихи шуни кўрсатадики, жамиятнинг маънавий ва илмий юксалиши нафақат алоҳида шахсларнинг, балки сулолавий давомийлик ва устоз-шогирд анъаналарининг мустаҳкамлигига ҳам боғлиқдир.

Холида Алимованинг ҳаёт йўли – бу ота изидан боришнинг, илмга садоқатнинг ва тинимсиз изланишнинг ёрқин намунасидир. Унинг фаолиятида биз нафақат академик ютуқларни, балки миллий ўзликни англаш, қўшни халқлар билан дўстлик ришталарини боғлаш ва келажак авлодга муносиб мерос қолдириш иштиёқини кўрамиз.

Холида Зикриллаевна учун ота касби – бу шараф ва бурч эди. У отасининг илм йўлида чеккан заҳматларини кўриб, бу йўлнинг нақадар машаққатли эканини англарди. Шунга қарамай, у шарқшуносликни, хусусан, Афғонистон тили ва маданиятини ўрганишни ўз ҳаётининг мақсади деб билди. Бу танлов – отага бўлган юксак эҳтиром ва унинг бошлаган хайрли ишларини янада юқори чўққига олиб чиқиш истагининг натижаси эди.

1988 йил Холида Алимова ҳаётида янги ва муҳим босқич бошланди. Тошкент давлат университети (ҳозирги ЎзМУ) шарқ факультетининг афғон филологияси кафедрасини муваффақиятли тамомлаган ёш мутахассис, ўз фаолиятини ўша даврдаги Шарқшунослик институти (ҳозирги ТДШУ) билан боғлади.

Холиданинг меҳнат дафтаридаги қайдлар унинг қадамма-қадам юксалиб борганини кўрсатади. У ишни 1991 йилда эрон-афғон филологияси кафедраси ўқитувчиси сифатида бошлади. Ўқитувчилик – бу нафақат билим бериш,

балки талабалар қалбига йўл топиш демакдир. Холида Алимованинг дарс ўтиш услуби ўзининг соддалиги ва мазмундорлиги билан ажралиб турарди.

Йиллар давомида тўпланган тажриба уни янги поғоналарга кўтарди: 2005 йил катта ўқитувчи лавозимида фаолият юритиб, ўқув услубий ишларни тизимлаштирди. 2007 йил доцент илмий унвонига эга бўлиб, соҳанинг етакчи назариётчиларидан бирига айланди. 2012-2018 йиллар "Эрон-афғон филологияси" кафедраси мудири сифатида ташкилотчилик салоҳиятини намойиш этди. Ушбу даврда кафедранинг илмий салоҳияти сезиларли даражада ошди. 2022 йилдан ҳозиргача Эроншунослик ва афғоншунослик олий мактаби профессори сифатида нафақат талабаларга, балки ёш тадқиқотчиларга ҳам йўл-йўриқ кўрсатиб келмокда.

Кафедра мудири бўлиб ишлаган йилларида Холида Зикриллаевна таълим сифатини ошириш, янги дарсликлар яратиш ва халқаро ҳамкорликни кенгайтиришга алоҳида урғу берди. Унинг бошчилигида дарий ва форс тилларини ўқитишнинг замонавий методикалари ишлаб чиқилди. У кафедрадаги ёш ўқитувчиларни илмий изланишларга йўналтирди, уларга ота-оналардек ғамхўрлик қилди. Унинг раҳбарлигида кафедра республикада форс, дарий тилларини ўқитиш бўйича энг нуфузли марказлардан бирига айланди.

Дарий тили Афғонистоннинг давлат тилларидан бири бўлиб, унинг тарихи ва грамматик қурилиши ўзига хос мураккабликларга эга. Холида Алимова ўз тадқиқотларида ушбу тилнинг назарий грамматикаси масалаларига чуқур тўхталди.

Унинг 100 га яқин илмий ишлари орасида 2 та монография алоҳида аҳамиятга эга. Ушбу асарларда дарий тилининг морфологик ва синтактик хусусиятлари тизимли равишда тадқиқ этилган. Олиманинг илмий мақолалари нафақат Ўзбекистонда, балки Эрон, Афғонистон, Россия ва Европа давлатларининг нуфузли илмий нашрларида чоп

этилган. Бу эса унинг халқаро илмий ҳамжамиятда тан олинган мутахассис эканидан далолат беради.

Таълим тизимидаги энг катта муаммо – бу замон талабларига жавоб берадиган ўқув адабиётларининг етишмаслигидир. Холида Зикриллаевна бу муаммони ҳал қилишда катта жонбозлик кўрсатди. У муаллифлик қилган 5 та дарслик ва 7 та ўқув қўлланмаси нашр қилинган.

Ушбу китобларнинг ўзига хос жиҳати шундаки, улар тил ўрганишни фақат қоида ёдлаш деб эмас, балки тилнинг мантиғини тушуниш орқали амалга оширишни таклиф қилади. Хорижий ва шарқ филологияси йўналишидаги талабалар учун бу адабиётлар бугунги кунда асосий билим манбаи бўлиб хизмат қилмоқда.

Холида Алимованинг ҳаётидаги энг ёрқин саҳифалардан бири – бу унинг жамоатчилик ва халқ дипломатияси соҳасидаги хизматларидир.

2018 йилда Президентимиз ташаббуси билан таъсис этилган “Ўзбекистон-Афғонистон” дўстлик жамиятининг ижрочи директори этиб тайинланиши Холиданинг зиммасига тарихий масъулият юклади. 2018–2024 йиллар давомида у икки қўшни халқ ўртасидаги маданий-маърифий, таълим ва фан соҳасидаги алоқаларни ривожлантиришда жонбозлик кўрсатди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитаси билан ҳамкорликда бир қатор йирик тадбирлар ташкил этилди. Бу тадбирлар икки давлат ўртасидаги сиёсий муносабатларни маданий жиҳатдан қўллаб-қувватлашга хизмат қилди.

Жамият томонидан Афғонистон мустақиллигининг 100 йиллигига бағишлаб ўтказилган тадбирлар алоҳида эътиборга лойиқ. Холида Алимова ташаббуси билан “Маҳмуд Тарзий – Афғонистон матбуоти ва маърифатпарварлик адабиёти асосчиси” мавзусидаги илмий анжуман ташкил этилди. Маҳмуд Тарзий каби буюк сиёсий

ва маданият арбобининг меросини ўрганиш орқали икки халқнинг тарихий муштараклиги яна бир бор намоён бўлди.

Шунингдек, Афғонистон вакиллари билан ўтказилган “Ўзбекистон-Афғонистон алоқаларида янги босқич” мавзусидаги давра суҳбатлари икки давлат зиёлиларининг фикр алмашиш минбарига айланди. Афғон мумтоз адабиётининг буюк вакиллари Хушҳолхон Хаттак ва Раҳмон бобо ижодига бағишланган кечаларда эса тинчлик, ватанпарварлик ва инсонпарварлик ғоялари улуғланди. Бу тадбирлар орқали Афғонистон халқининг бой маданияти ўзбекистонликларга, ўзбек маданияти эса қўшни халққа яқиндан таништирилди.

Холида Алимованинг фаолияти фақат гуманитар соҳа билан чекланиб қолмай, балки давлат хавфсизлиги ва ҳарбий таълимни ривожлантиришга ҳам йўналтирилган.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси ва Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти билан олиб борилган корпоратив ҳамкорлик доирасида Холида ҳарбий кадрларга чет тилларини ўқитишнинг инновацион усулларини жорий этишга ҳисса қўшди. Тил билиш – бу разведка, дипломатия ва халқаро хавфсизликнинг асосий қуролидир.

2017–2018 йилларда форс тили бўйича ўтказилган республика фан олимпиадаларида ҳайъат раиси сифатида у бўлажак офицерларнинг билим даражасини баҳолаб, уларга тўғри йўналиш берди. “Ҳарбий соҳада мақсадга йўналтирилган чет тилларини ўқитишдаги муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари” мавзусидаги анжуманларда олима ўз тажрибалари билан ўртоқлашди. Унинг иштирокидаги давра суҳбатлари ҳарбий таълим муассасаларида тил ўқитиш сифатини янги босқичга кўтарди.

Илм – бу фақат китоб ёзиш эмас, балки инсонийликни сақлаб қолишдир. Холида Зикриллаевна ўз ҳамкасблари,

талабалари ва яқинлари орасида ўзининг самимийлиги, камтаринлиги ва меҳнатсеварлиги билан танилган.

Профессор даражасига кўтарилган, жамоатчилик ишларини бошқарган бўлишига қарамай, у ҳар доим оддий ва самимий инсон бўлиб қолди. Унинг эшиги шогирдлари ва маслаҳат сўраб келганлар учун ҳамиша очиқ. У ўз ишига бўлган садоқати билан атрофдагиларга ўрнак бўлиб келади.

Холида Алимованинг ҳар бир қилган ишида, ёзган мақоласида ва ташкил этган тадбирида Ватанга бўлган чексиз меҳр сезилиб туради. У Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги обрўсини ошириш, қўшни давлатлар билан тинч ва дўстона муносабатларни мустаҳкамлашни ўз бурчи деб билади. Унинг фаолияти – бу ватанпарварликнинг амалдаги ифодасидир.

Холида Зикриллаевна Алимованинг ҳаёт йўли – бу ота изидан бориб, ўз йўлини топган, илмнинг машаққатли чўққиларини забт этган замондошимизнинг ибратли намунасидир. У Зикрилла Умаровдек олимнинг қизи бўлиш бахтига муяссар бўлди ва бу бахтни меҳнат билан оқлади.

Унинг дарсликларидан таълим олаётган кўплаб талабалар, у мустаҳкамлаган дўстлик алоқалари ҳали кўп йиллар давомида халқимизга хизмат қилади. Зикрилла Умаров бошлаган илм чироғи Холида Алимованинг қўлида янада ёркинроқ нур сочмоқда.

Биз Холидага келгуси илмий фаолиятларида зафарлар, соғлик-саломатлик ва оилавий бахт тилаймиз. Ота изи ҳеч қачон ўчмасин, илм ва маърифат йўли доимо мунаввар бўлсин!

Qudratulla OMONOV,
TDSHU Yoshlar masalalari va ma’naviy-
ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor,
filologiya fanlari doktori, professor

OTA DUOSINI OLGAN SHARQSHUNOS-OLIMA

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ulug‘ dargoh. Bu qutlug‘ bilim maskanida hamisha katta aql egalari, yirik bilim kishilari, sharqshunoslik ilmining darg‘alari, o‘zbek ma’naviy merosining tolmas tadqiqotchilari emgak chekkan. Ular universitetning tabbaruk oliy o‘quv yurti sifatidagi ijobiy imijini yuksaltirishda beqiyos hissa qo‘shganlar.

Sharqshunoslarning navqiron avlodi doimo ana shu yuksak maqomdagi ustozlardan bilim olganliklari bilan faxrlanib, ularga munosib bo‘lishga intilishgan.

Sharqshunoslikda ustoz va shogirdlik an’anasi, ta’lim bergan muallimning etagini mahkam tutish hissi nihoyatda ustun. Bu qutlug‘ maskanda yana bir jihat doimo yetakchilik qilib kelgan. Bu ham bo‘lsa, sulolaviy sharqshunoslik rishtalari zanjirining mavjudligidir.

Sharqshunoslikda Ubaydulla Karimov, Shoislom Shomuhamedov, Bo‘riboy Ahmedov, Turg‘un Fayziev singari o‘nlab sharqshunoslik sulolalari bor. Ular ichida Zikrilla Umarov sulolasi alohida o‘ringa ega. Zikrilla aka fors tili va bu tilda bitilgan yozma manbalar, ayniqsa, XVIII asrning mashhur filologi Mirza Mehdixonning **“Maboniul-lug‘at” asari tadqiqi bilan** sharqshunoslik rivojiga **ulkan hissa qo‘shgan olim edilar. U kishining ishlarini sharqshunoslik ilmining daqiq bilimdoni bo‘lgan qizlari, filogiya fanlari doktori, professor Alimova Xolida Zikrillaevna davom ettirib kelmoqda.**

Xolida Alimova tug‘ilgan oila sharqshunos - Zikrilla Umarov oila boshi bo‘lgan xonadon edi. Yosh Xolida bolaligidan boshlab sharqona ta’lim va tarbiya ruhida o‘sdi. Yoshlik chog‘laridan uning sharq tillariga, ayniqsa, fors va dariy

tiliga havasi, muhabbati bo‘lakcha edi. Otasi Zikrilla akadan o‘tgan bu muhabbat uni 1983 yilda Toshkent davlat universitetining sharq fakulteti, afg‘on filologiyasi kafedrasiga o‘qishga kirishiga turtki bo‘ldi. U 5 yil davomida ushbu kafedrada o‘z davrining yirik sharqshunoslari qo‘lida tahsil olib, 1988 yilda universitetni muvaffaqiyatli tamomlab, o‘sha yilning o‘zidayoq otalari duosi bilan taqdirlarini sharqshunoslik bilan bog‘ladi. Xolida Alimova mana qariyib 40 yildirki Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida turli lavozimlarda ishlab kelmoqda. Talabalikdan professorgacha, o‘qituvchilikdan kafedra mudirigacha bo‘lgan mashaqqatli ilmiy va pedagogik yo‘lni bosib o‘tdi.

Men Xolida Alimova haqlarida ko‘p va xo‘b so‘z aytishim mumkin. Biroq so‘zni yaxshisi qisqasi naqliga amal qilib, u kishining odamiylik va farzandlik burchi bilan bog‘liq ikki qirralari haqida so‘z ochmoqchiman.

2012 yildan boshlab Toshkent davlat sharqshunoslik institutining eng katta va muhim fakultetlaridan biri Sharq filologiyasi fakultetiga dekanlik qilishdek sharafli vazifa meni chekimga tushgan edi. O‘sha yili Xolida Alimova ham Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasi mudirligiga endi tayinlangan kezlar edi. Bu kezlar ta’lim sohasi uchun sinovli yillar edi. Universitet o‘qituvchi va talabalarini turli yo‘nalishdagi ishlarga jalb etish, paxta terimi, qator komissiyalar ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatar hamda bu holat ta’lim muhitini taranglashishiga olib kelar edi. Ana shu vaziyatda Xolida Alimova haqiqiy o‘zbekona muloqot, muomala odobi, samimiy yondashuv munosabatlarini ko‘rsatib, o‘zlari boshchilik qilgan kafedra a’zolari va talabalarini uyushtirib, har jabhada o‘rnak ko‘rsatar edi. Kafedraning ta’lim sifati ham, ilmiy rivoji ham, ma’naviy va ijtimoiy faolligi ham doimo yuqori bo‘lar edi. Bu o‘rinda doimo Xolida opaning ziyoli oilada tarbiya topgani, tom ma’nodagi o‘zbekona qadriyatlarni, odamiylikni baland tutgani qo‘l kelar edi.

Xolida opa Alimova ko‘plab yigitlarga namuna bo‘ladigan darajada farzandlik burchlarini ham ado etgan sharqshunosdir. U kishi otalari Zikrilla Umarov boshlagan va uzoq yillar tadqiqot ishi sifatida o‘rgangan, tili nihoyatda murakkab manba Mirza Mehdixonning **“Maboni ul-lug‘at” asarini padari buzrukvorlari nomidan katta tadqiqot sifatida chop ettirdi. Zikrilla Umarovning ishlarini bugungi sharqshunoslarning yangi avlodiga yetkazib, otalarining ruhlarini shod etgan farzand sifatida ko‘plab sharqshunoslarning e’tirofiga sazovor bo‘ldilar.**

Xolida Alimovaning qiziqishlari farzandlariga ham o‘tgan. U kishining qizlari, o‘g‘illari ham sharqshunos sifatida o‘z bobolari va onalari ishlarini davom ettirmoqdalar. Bu avlodning ilmidan uzoq yillar sharqshunoslar bahramand bo‘lishiga umid bildirib, Xolida Alimovaning qutlug‘ yoshlari bilan tabriklab, u kishiga o‘quv, ilmiy, oilaviy faoliyatlarida ulkan yuksalishlar tilab qolaman. Xolida opa bilimingiz, tarbiyangiz, salohiyatingiz doim shogirdlaringizga yuqib yursin. Aziz boshingiz omon, qutlug‘ yuzingiz yorug‘ bo‘lsin.

Акрамжон КАРИМОВ,
ТДШУ Хитойшунослик олий мактаби
профессори, филология фанлари номзоди

ОЛИМА, ОНА ВА МУРАББИЙ

Холида Зикриллаевна Алимова тўғрисида гап кетганда беихтиёр оталари Зикрилла Акбарович Умаров ёдга тушади. Холида Зикриллаевнани форс тилига меҳр қўйишлари ва шарқшунос бўлишида оталарини ҳиссаси каттадир. Зикрилла Умаров нафақат йирик афғоншунос олим, балки зўр педагог ҳам эдилар. Фарзандларига тўғри тарбия беришдан ташқари, талабаларга ҳам меҳрибон ва ғамхўр мураббий эдилар.

70-йилларда биз талабалик даврimиз бунга гувоҳ бўлганмиз. Собиқ Иттифоқ пайтларида талабаларни пахта теришга Сирдарё ва Жиззах вилоятларига юборишарди. Факультет ўқитувчилари эса галма-гал иккитадан ҳар баракда назорат қилиб туришарди. Зикриллакани гали келганда талабаларга анча енгил бўларди, улар талабалар билан тез тил топишарди, керакли сўзларни топиб, кўнглини кўтарардилар. Гоҳида чарчаб салқинда ўтирсак, домла далага ҳайдамас, балки форс тилида ёзилган ғазаллардан парчалар ўқиб, содда қилиб шарҳлаб берардилар. Бу талабаларда ўз касбига бўлган меҳрини кучайтирарди.

Тўғрисини айтганда биз хитойшунослар форс ва дарий тилларини ўрганаётган талабаларга ҳавас қилардик. Чунки биз биринчилардан эдик ва кейинги ҳаётимиз қанақа кечишини тасаввур қила олмас эдик, ҳатто ўз кафедрамиз ҳам йўқ эди. Буни сезган Зикрилла ака бизларни қўллаб-қувватлаб, келажакда бизлар олтинга тенг мутахассис бўлишимизни тушунтирар эдилар. Улар сизлар Ўзбекистонда хитойшуносликни ривожлантирадиган инсонлар бўласизлар, деб ишонтирардилар. Қаранг, айтган

гаплари ҳозирги кунда рўёбга чиқиб турибди. Ҳозирда Шарқшунослик университетимизда хитойшунослик олий мактаби илмий салоҳияти энг юқори йўналишлардан бири ҳисобланади. Хитойшунос олимларнинг сони ҳам энг кўп.

Холидахон шундай улуғ инсоннинг фарзанди. Холида Зикриллаевна ўз оталарининг ишини давом эттириб, форс ва дарий тилларига тегишли юздан ортиқ илмий ишларни чоп эттирдилар. Жуда кўп шогирдларни тарбияладилар. Бир неча олимларнинг илмий раҳбари бўлдилар. Энг асосийси тилшунос олимларнинг ишларини кўриб, нуқсонларини кўрсатиб, ёш олимларни йўлга соладиган илмий семинар раисидирлар. Бу жуда машаққатлик ва ўта масъулиятли ишдир. Ёш олимларнинг шаштини туширмасдан чиройли равишда камчиликларини кўрсатиб, тўғри йўлга солиш катта билим ва меҳнатни талаб қилади. Мен шу семинар аъзоси сифатида ҳар мажлисимизда бунинг тасдиғини кўриб келаман. Холида Зикриллаевнанинг тилшунос олимлар сонининг кўпайишида ҳиссаси каттадир.

Холида Зикриллаевна олима бўлиши билан бир қаторда, ажойиб инсон ва онадир. Фарзандларига тўғри тарбия бериб, уларга ўз йўлларини тўғри топишда намуна бўлиб келадилар. Мен Холидахоннинг фарзандларига дарс бериб, иккаласига ҳам илмий раҳбарлик қилганман. Қизлари Шахборахон хитой тилшунослигида энг қийин ва мужмал тугунлардан бири бўлган ҳаракат йўналишини кўрсатадиган мадификаторлар тўғрисида диссертация ёзиб, уни ўз вақтида ҳимоя қилиб, PhD илмий даражасга эга бўлди. Ўз ўрнида қизлари ҳам икки фарзанд онаси бўлиб, уларга ўзбекона тарбия бериб келяпти. Ўғиллари ҳам хитой тилшунослгида жуда мураккаб ва кўп маъноли бўлган иероглиф 就 ҳақида илмий тадқиқот ишларини олиб борган. Шундай талабаларни илмий раҳбари бўлганимдан бахтиёрман. Шундай фарзандларни ўстирган Холида Зикриллаевна Алимовага катта раҳмат.

Ҳурматли Холида Зикриллаевна, сизни отангиз кирмаган ёшларга кирганингиз билан табриклайман. Аллоҳ умрингизни яна ҳам узун ва сермазмун қилсин, ёш олимларни тарбиялашда ва илмий тадқиқот ишларингизга барака берсин!

Хайрулла ҲАМИДОВ,
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси,
ТДШУ Таржимашунослик, тилшунослик ва халқаро
журналистика олий мактаби профессори,
филология фанлари доктори

ШАРҚШУНОС-АФҒОНШУНОС-ДАРИЙШУНОС ОЛИМА

Холидахоним Алимовани 2002 йилдан бери танийман. Ўшанда Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги малака ошириш марказида ўз дарсларимиздан ажралмаган ҳолда “Митрофанов” биномизда бир гуруҳда малака оширганмиз. Шоматов домла, Саида Ҳафизовналар дарс бергани ёдимда. У пайтлар мен институтга янги ишга келган (1998 йилдан бошлаб) оддий ўқитувчи эдим, турк тилидан дарс берардим.

Мана орадан чорак аср вақт ўтибди. Бу давр мобайнида улар билан жуда кўп ҳамсуҳбат бўлдик. Лекин бу суҳбатларнинг деярли ҳаммаси иш шароитида бўлди. Сўнгги 6-7 йилдан буён Тошкент давлат шарқшунослик университети ҳузуридаги илмий даражалар берувчи DSc.03/30.12. 2019.Фил/ Тар.21.01 рақамли (ҳозирда янги рақам берилган) Илмий кенгаш қошидаги 10.00.05 – Осиё ва Африка халқлари тили ва адабиёти, 10.00.06 – Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик ихтисосликлари бўйича Илмий семинар мажлислари сирасида (Холидахоним устозлари Аҳмаджон Қуронбеков вафот этганларидан кейин ана шу семинар раиси бўлиб келмоқдалар) анча йиллардан ишчи муҳитда, илмий масалаларда мулоқот қилиб келамиз. 2020-2023 йилларда мен ушбу семинарда котиб ҳам бўлганман.

Холидахоним ва ҳамкасбларимиз билан баъзан самимий давраларда, бир пиёла чой устида учрашиб қолганимизда бир нарсани нуқул кулиб эслайдилар, у ҳам бўлса бундан

роса 8 йил олдин мен 55 ёшда эдим ўшанда, 170 та илмий мақола, тезис ва китоблари муаллифи бўлганман, илм қилганман, лекин PhD ҳимоясига ҳечам ҳафсала қилмаганман. Унга қадар салкам 5 йил “Таржима назарияси ва амалиёти” кафедраси мудири, магистратура бўлими бошлиғи, институт касаба уюшмаси раиси лавозимларида ишлаб, таржимон сифатида танилиб етарли эътибор, эътирофга лойиқ бўлганим сабаб фалсафа докторлигини қилмасдан яна 5 йил ишлаб пенсияга чиқиб кетаман деб бамайлихотир юрганман. Шунда устозим – Абдураҳим Маннонов домла, ўша даврда илмий ишлар проректори, бугун эса университетимиз ректори – Гулчеҳра Рихсиева, ўша даврлар семинар раиси Аҳмаджон Қуронбековларнинг қўллаб-қувватлашлари, Холидахонимнинг амалий ёрдамлари билан семинарлардан ўтиб, диссертация ҳимоясига чиққанман. Кафедра муҳокамасидан ўтиб семинарга чиққанимда, Холидахон ҳужжатларни тезда тайёрлаш кераклигини айтганида, “Менга керак эмас ҳеч нарса!” деган эканман, улар эса семинар раиси Аҳмаджон акага сездирмасдан ҳамма ҳужжатларимни ўзлари тайёрлаб, семинардан ўтказганлар. Кўпчилик дўстларимиз ўша воқеани ҳалиям кулиб эслашади.

Энди, Холидахонимнинг илмий фаолиятлари билан узоқдан танишман, фақат у кишининг ўз меҳнат фаолиятлари давомида шарқшунос-афғоншунос-дарийшунос ўлароқ университетимизнинг ривожига ва дунё миқёсида танилишига буюк хизматлари борлиги, ушбу илм даргоҳида салкам қирқ йил турли лавозимлар, хусусан Эрон-афғон филологияси кафедраси мудири лавозимида кўп йиллар меҳнат қилганликлари, дарий ва форс тилларининг турли соҳалари бўйича фундаментал тадқиқотлар муаллифи ўлароқ ўз соҳаларида энг кучли олим, юксак салоҳиятли нотиқ, юзлаб илмий ва ўқув-услубий ишлар муаллифи эканликлари, ёш олимларга илмий раҳбарлик қилганликлари, республикамизнинг кўзга

кўринган тилшунос-дарийшунос, филология ва таржимашунослик билимларини эгаллаган йирик мутахассис эканликлари, Мустақил Ўзбекистонимизнинг тинчлиги, равнақи, гуллаб-яшнаши, ёшларимиз таълим-тарбияси, илм-фан тараққиёти йўлида олиб бораётган илмий ишлари учун юксак эътирофларга сазовор бўлганликларини биламан. Қолаверса, Холида Алимованинг илмий соҳадаги фаолиятлари, у киши яратган илмий мактаб ҳақида бугун, устознинг муборак таваллуд кунлари барча ҳамкасблари, дўсту яқинлари, шогирдлари фикр билдирмоқда ва мен улардан ошириб бир нима дейишга ожизман. Юқорида айтганларим Холидахонимнинг айнан ўқув, университетимизда олиб борилаётган илмий-тадқиқотлар соҳасидаги фидойиликлари ҳақидаги ўз фикрларимдир.

Холидахонимнинг муаллимаю олималиклари тарозининг бир палласида турса, одамийликлари, падари-бузрукворлари ва устозларининг ҳақиқий тарбиясини олиб, уларнинг қутлуғ йўлларидан шаҳдам қадам ташлаб бораётганликлари, қолаверса фарзандларини ҳам ана шу йўлга етаклаб олиб кирганликлари, ҳамкасблари, шогирдларига муносабатлари, жонкуярликлари иккинчи паллага сиғмаса керак.

Холидахоним – кўп қиррали филолог-олима. Бир мисол. Мен олдинроқ котиб, ҳозирда аъзо бўлиб келаётган илмий семинарлар ва ҳимоя кенгашларида уларнинг ҳар қандай диссертация ишининг, тилшунослик бўладими, таржимашуносликми, қайси шарқ тили соҳаси бўлишидан қатъий назар ишнинг ичига кириб кетиши, наҳр остидан керакли тошни топиб чиққан ғаввос каби диссертацияларнинг энг кўз илғамас камчиликларини топиб таҳлил қилиб беришлари кишини ҳайратлантиради. Хуллас, бу олима ва ва муаллима ҳақида анча нарса ёзиш мумкин. Шу боис, қолган гапларни яна ўн йил ўтиб нашрга тайёрланажак китоб учун асраб, янада пишитиб қўямиз.

Менга берилган имкониятдан истифода этиб, Холидахонимга ҳамиша шундай кўнглингиз баҳор, чеҳрангиз ёз, кайфиятингиз тоғлар мисол баланд, қаддингиз сарвлар каби тик, қадамларингиз бугунгидай илдам бўлиб юринг, 19 ёшингиз ўзингиз, аҳли оилангиз, яқинларингизга қутлуғ бўлсин, танингиз соғ, умрингиз узоқ, поччамиз билан бирга фарзанду набиралар бахту камолини кўринг, кўнглингизда тугиб қўйган ва ҳали амалга ошмаган порлоқ режаларингиз, эзгу орзу-умидларингиз ушалишига Яратганнинг ўзи Сизга мададкор бўлсин, дея шу ерда сўзимни мухтасар қиламан!

Jasurbek ZIYAMUXAMEDOV,
TDSHU Xitoyshunoslik oliy maktabi
professori, filologiya fanlari doktori

ZAMONAVIY O‘ZBEK AYOLINING YORQIN TIMSOLI

Zamonaviy o‘zbek oilasidagi ayollarning holatini bundan 30-40 yillar ilgaridagi o‘zbek ayolining ahvoli bilan aslo qiyoslab bo‘lmaydi. Alhamdulillah, hozir sharoitlar ancha yaxshi, hur zamonda yashayapmiz. Nolishga aslo o‘rin yo‘q! Shunday bo‘lsada ba’zan xotin-qizlarimizning hayotdan nolib qolganlarini guvohi bo‘laman. Men hozir yozayotgan ushbu nomamga bejiz shunday sarlavha qo‘ymadim. Bizning ilm dargohda ham yuzlab xotin-qizlar faoliyat yuritadilar. Bular ichida professor Xolida Alimova ham aynan ana shu sarlavhadagi ta’rifga loyiq insonlardan biridirlar!

Adabiyotshunoslikda “obrazli portret” tushunchasi bor. Ayni damda men Xolida opamning “obrazli portret”larini yaratishga qaror qildim. Aminmanki, yaratilajak ushbu “portret”da Xolida Alimova qiyofasidagi zamonaviy o‘zbek ayolining yorqin timsoli paydo bo‘ladi.

Xolida Alimova: 1. Ziyoli va olim insonlarning farzandi. 2. Iymoni but, dini-diyonatli, iboli va hayoli, farishtali va sarishtali o‘zbek ayoli. 3. Vafoli va sodiq turmush o‘rtoq. 4. Mehribon, kuyunchak va munisa ona. 5. Qaynona va qaynotaga mehribon, g‘amxo‘r va itoatkor kelin. 6. Qayin-bo‘yin va qarindosh-urug‘ga silayi-rahmda bardavom bo‘lgan Allohning suygan bandasi. 7. Oilani deb ishni tashlab qo‘ymagan va aksincha ishni deb oiladan kechmagan shijoatli, g‘ayratli va mehnatkash inson. 8. Mustahkam ilmga, zamonaviy *bilim va* yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga *ega olima. 9. Talabalarga g‘amxo‘r va talabchan Ustoz, na*faqat bilim beruvchi, balki axborot asrida talabasini yo‘naltiruvchi, kreativ fikrlaydigan, raqamli texnologiyalarni mukammal biladigan va pedagogik mahorat bilan psixologik yondashuvni

birlashtirgan zamonaviy Ustoz. 10. Samimiy do‘st va qadrdon, jonkuyar hamkasb-birodar. 11. Rahbarlik davrida ham ma’naviyat va madaniyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo‘lida samarali foydalana olgan, boshqaruv tizimidagi ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlik g‘oyalari asosida rivojlantirib bora olgan, kafedra jamoasini yuksak natijalar sari yetaklay olgan, adolatli va yuqori professional kompetensiyalarga ega bo‘lgan yetakchi sifatida namoyon eta olgan rahbar. 12. Eng asosiysi kamtar, halol, madaniyatli inson!

Yuqorida sanab o‘tgan sifatlar Xolida opamning suvratlari-yu siyratlariga berilgan ta’rif edi. Nazarimda bu sifatlarni bayon etishda hech qanday mubolag‘a bo‘lmadi. Demak, aynan ana shunday bo‘lishi kerak haqiqiy va zamonaviy o‘zbek ayoli! Xolida opam bilan biz bir necha yilgi qadrdonlarmiz, oilaviy qadrdonmiz desak ham bo‘ladi. Turmush o‘rtoqlari Kamol akamiz bilan ko‘p martta hamsuhbat bo‘lganmiz. Farzandlari Shaxbora va Shahbozlarga universitetda ustozlik qilganman. Bunday farzandlarni tarbiya qilgan ota-onasiga ming-ming rahmat deyish kerak. Juda odobli, kamtar, bilimli, zehni o‘tkir, ota-onalariga munosib va eng asosiysi hamma havas qiladigan ajoyib farzandlar bo‘lishgan! Ilohim baxtli bo‘lishsin, ko‘z tegmasin!

Xullas, Xolida opam bilan ko‘p yillik qadrdonmiz. Ayniqsa 2005-yilda men adabiyotshunoslikdan, u kishi esa tilshunoslikdan nomzodlik dissertatsiyani bir kunda himoya qilganmiz. Himoya oldi “yugur-yugur”larining mashaqqatlarini birga totganmiz, rossa “hamdard” bo‘lganmiz. Keyinchalik esa men “Sharq filologiyasi fakulteti”ga dekan bo‘lganimda, Xolida opam fakeltetimiz tasarrufidagi “Eron-afg‘on kafedrasiga” mudirlik qildilar. Yana birga ishladik. Bunda ham qadrdon bo‘lib, bir-birimizga yaqindan yordam berib ishladik. Xolida opam hech qachon o‘zgalardan yordamini ayagan inson emas. Yoshmi-qarimi barchaga barobar yordam beradilar, maslahatlarini ayamaydilar. Shu sababli ham ayni choqqacha bironta odamning Xolida opam haqlarida “negativ” fikr

bildirganini eslolmayman. Afsuski, bunday gapni men boshqalar haqida ayta olmayman. Professor Xolida Alimovani shogirdlari ham juda yaxshi ko‘rishadi, hamkasabalari esa ular bilan faxrlanishadi. Shu emasmi aslida bir insonga berilgan haqiqiy e’tirof!

Nodirjon Nuriddinov (Shu yigitni men juda hurmat qilaman: odobli, aqlli, oqibatli va kamtar yigit, ham yaxshi olim! Ko‘p savobli va yaxshi ishlarni boshlab yuradi. Kam bo‘lmasin ilohim!) menga “Xolida opamning qutlug‘ sanalariga kitob tayyorlayapmiz” deganini eshitib, juda xursand bo‘lib ketdim. Xolida opamga bunday ehtirom ko‘rsatilsa arziydi, u kishi bunga loyiqlar! Bu xabarni eshitdimu, ertasi kuniyoq mazkur nomani yozishga kirishdim. “1-2 kunda yozarman” deb o‘ylagandim. Yo‘q, unday bo‘lmadi. Bir o‘tirishda, sportchilar ta’biri bilan aytganda “bir nafasda” yozib bo‘ldim. Nega shunday, bilasizmi? O‘zimni majburlab yozmadim, bajonidil, xohlab yozdim. Gohida u yoki bu shaxslarning yubileylarga atab bir betgina narsani kunlab yozaman. Egasiga ham bog‘liq bo‘lsa kerakda! Mening rahmatli Onamlar ham Xolida opamni juda hurmat qilardilar, ularni ko‘p duo qilganlar. Xolida opam ham Onam bilan ko‘p suhbatda bo‘lganlar.

Aslida Xolida opam ota-onalaridan, qaynona-qaynotalaridan, el-yurtdan ko‘p duo olgan insonlar. Duo olgan omondir, deydi dono xalqimiz. Men Xolida opamga havas qilaman. Zarracha kibri yo‘q inson! Qutlug‘ kunlar arafasida ekanmiz, men Xolida opamga Allohdan yana ko‘p yillar huzur-halovatli va barokotli umr so‘rayman. Kamol akamiz bilan qo‘sha qarib, farzandlar, nabiralar va albatta shogirdlar ardog‘ida umrguzaronlik qilsinlar. Hormasinlar va tolmasinlar aslo! Mavlud ayyomingiz, muchal yoshingiz muborak bo‘lsin, Opajon! O‘zingiz doim boshqalarga bildiradigan tilak bilan so‘zimni yakunlayman: “Hamisha sog‘-omon bo‘ling!”.

Ukangiz va qadrdoningiz
Jasurbek Ziyamuxamedov

Жумали ШАБАНОВ,
ТДШУ Туркшунослик олий мактаби
доценти, филология фанлари номзоди

ИЛМ ВА ҚАЛБ УЙҒУНЛИГИ: ШАРҚШУНОС ОЛИМА ХОЛИДА АЛИМОВА ФЕНОМЕНИ

Баъзан инсон ҳаёти баланд шовқинлар билан эмас, балки сокин, изчил ва чуқур қадамлари билан тарихга киради. Холида Алимованинг ҳаёт йўли айнан шундай — кўзга ташланмайдиган, аммо мазмунан ниҳоятда бой ва мустаҳкам.

Мен Холида хонимни деярли 40 йилдан бери танийман, кўп йиллар шу университетда биргаликда ишладик. У ниҳоятда камтарин, камгап инсон, лекин билими ва савияси жуда юксак шахсдир. Инсонийлиги бир олам, ҳаммага маслаҳат беришга, ёрдам кўрсатишга доимо тайёр турадилар. Жуда ғамхўр, керак бўлганда эса қаттиққўл ва талабчандир.

Холида хонимнинг кўплаб яхши фазилатларини айниқса пандемия даврида янада яққол англаб етдик. У киши мени кўп ҳолларда қийин вазиятлардан олиб чиққанлар. Холида хоним ҳақида ёзиш жуда қийин, аммо жуда мароқли. Мен ҳам бу ҳақда ёзишга ҳаракат қилиб кўряпман.

1966-йилда Тошкент шаҳрида туғилган Холида Алимова эҳтимол ўша пайтда келажакда юзлаб талабалар тақдирига йўл кўрсатадиган, илмий мактаб яратадиган олима бўлишини тасаввур ҳам қилмагандир. Аммо ҳаётнинг ўзи баъзан инсонни ўз йўлига етаклайди. Шарқ тилларига бўлган қизиқиш, тилнинг сеҳрли оламига кириб бориш истаги уни илм йўлига олиб чиқди.

Талабалик йиллари — изланишнинг илк нафаси. Айнан шу даврда у тилни нафақат ўрганиш, балки уни англаш, ҳис қилиш мумкинлигини тушунди. Дарий ва форс тиллари унинг учун оддий коммуникация воситаси эмас, балки

бутун бир маданият, тарих ва тафаккур оламига эшик эди. Холида Алимованинг илмий қарашларида тил оддий грамматик тизим эмас. У тилни тирик организм, жамиятнинг ички руҳий акс-садоси сифатида кўради. Унинг илмий ишларида дарий тилидаги сўз ясалиши, семантик қатламлар, соматизмлар — буларнинг барчаси инсон тафаккури билан узвий боғлиқ ҳолда талқин қилинади. Гўё у тилни таҳлил қилмайди, балки уни “тинглайди”. Тил орқали инсонни тушуниш — бу унинг илмий фалсафасининг марказида туради. Шу сабабли унинг илмий изланишлари фақат назария билан чекланмайди. У ҳар бир грамматик ҳодиса ортида яширин маъно, тарихий қатлам ва маданий кодни кўра олади.

Холида Алимова 1988 йилдан бошлаб Эрон-афғон кафедрасида фаолият юритиб келмоқдалар. Кафедрадаги соғлом илмий муҳит у кишини илм йўлига етаклади. Нафақат Ўзбекистонда, балки бутун иттифоқ миқёсида ном қозонган устозлар — филология фанлари докторлари ва профессорлар А. Маннонов, А. Қуронбеков, М. Имомназаров, Ш. Шомуҳаммедов, Р. Иномхўжаев, шунингдек доцентлар О. Шокиров, Н. Муҳаммедова, М. Ғаниҳонов, А. Абдусаматова ва А. Исмоилов каби етук мутахассислар билан бир жамоада ишлаш у киши учун улкан бахт бўлди. У устозлардан жуда кўп билим ва тажриба олдилар.

Х.З. Алимова 2005 йилда Тошкент давлат шарқшунослик институти ҳузуридаги Ихтисослашган кенгашда “Дарий тилида соматизмларнинг структур ва семантик таснифи” мавзусида 10.02.22 – Осиё, Африка халқлари, Америка ва Австралия туб халқлари тиллари ихтисослиги бўйича номзодлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилди. 2009 йилда доцент унвонини олди. 2019 йилда Тошкент давлат шарқшунослик институти, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, Ўзбекистон миллий университети ҳузуридаги илмий

даражалар берувчи DSc.27.06.2017.Fil.21.01 рақамли Илмий кенгашда 10.00.05 – Осиё ва Африка халқлари тили ва адабиёти ихтисослиги доирасида “Дарий тилида сўз ясалишининг ички лингвистик усуллари” мавзусидаги филология фанлари доктори (DSc) диссертациясини ҳимоя қилган. 2022 йилда унга профессор унвони берилди.

Баъзи инсонлар дарс беради. Баъзилари эса ўргатади. Аммо жуда кам инсонлар бор – улар илҳомлантиради. Холида Алимова ана шундай устозлардан биридир. Унинг аудиторияга кириб келиши – бу оддий дарс бошланиши эмас, балки янги фикрлар, янги саволлар, янги қарашлар бошланишидир. Талабалар учун у фақат билим манбаи эмас, балки фикрлашни ўргатувчи йўлбошчи. У замонавий педагогик технологияларни қўллайди, лекин унинг асосий қуроли – бу самимият ва талабчанлик уйғунлигидир. Ҳар бир талаба унинг назарида шунчаки тингловчи эмас, балки келажак олими, мустақил фикрловчи шахсдир.

Х.З. Алимова 38 йиллик илмий ва педагогик фаолияти давомида “Филология ва тилларни ўқитиш (шарқ тиллари)” таълим йўналиши бакалавр босқичи талабаларига турли ихтисослик фанларидан таълим бериб келмоқда. У жумладан “Дарий тили”, “Дарий тили лексикологияси”, “Форс ва дарий тиллари назарияси”, “Дарий (форс) ва ўзбек (рус) тиллари қиёсий грамматикаси”, “Эрон тилшунослиги”, “Мутахассисликка кириш”, “Қўшма гап синтаксиси” ҳамда “Дарий тилида иш юритиш” каби фанларни ўқитади.

Бундан ташқари, “Лингвистика (шарқ тиллари бўйича)” ва “Тарих (йўналишлар ва фаолият турлари бўйича)” мутахассисликларида таҳсил олаётган талабаларга ҳам “Мутахассисликка оид махсус адабиёт таҳлили”, “Мутахассисликнинг назарий асослари”, “Шарқ мамлакатларида тил сиёсати ва тил муҳити (Афғонистон, Эрон)”, “Маданиятлараро мулоқот”, “Илмий матнларни таҳлил қилиш” ва “Лингвистик терминология” фанларидан сабоқ бериб келади.

У таълим жараёнида маъруза ва амалий машғулотлар, шунингдек семинар ва тренингларни самарали ташкил этиб, замонавий ўқитиш услублари, ахборот-коммуникация технологиялари ҳамда мультимедиа воситаларидан кенг ва самарали фойдаланади.

Х.З. Алимова ўзи фаолият юритаётган олий мактаб ўқув-услубий салоҳиятини ошириш ва замонавий педагогик технологиялари борасидаги фаолиятини кучайтириш юзасидан юқори натижаларга эришмоқда. У педагог-олим сифатида олий мактаб томонидан ўқитиладиган шарқ тиллари ва мутахассислик фанлари бўйича ўқув дастурлари ва ўқув адабиётларини яратиш жараёнларида фаол иштирок этмоқда. Унинг якка муаллифликда ва ҳамммуаллифликда тайёрлаган фан дастурлари, ўқув-тарқатма материалларидан ТДШУ ўқув жараёнида фойдаланиб келинмоқда. Шунингдек, бир қатор ўқув адабиётларига масъул муҳаррирлик, ўқув адабиётлари ва дастурлари, диссертация, автореферат, битирув лойиҳа ишлари ва илмий мақолаларга хулоса ва тақризлар берган.

Х.З. Алимова раҳбарлигида 40 дан ортиқ бакалавр, 10 дан ортиқ магистр, шунингдек, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси ишлари муваффақиятли ҳимоя қилинди. Айни вақтда ҳам таянч докторантлар ва магистрлик ишларига илмий раҳбарлик қилмоқдалар. Кўпинча катта илмий ютуқлар ортида катта қурбонликлар туради. Аммо баъзан инсон ҳаёти бошқача уйғунликни ҳам топа олади – илм ва оиланинг мувозанатини.

Холида Алимованинг ҳаётида оила алоҳида ўрин тутади. У илм билан яшаган бўлса-да, инсоний қадриятларни ҳеч қачон иккинчи ўринга қўймаган. Оила – бу унинг учун таянч, руҳий мувозанат манбаи, илҳом манбаи. У кишининг икки нафар фарзанди бор: ўғли Шаҳбоз ва қизи Шаҳбора. Ҳар иккаласи ҳам Шарқшунослик университетини тамомлаган. Шаҳбора эса бобоси Зикрилло устоз ва онаси

Холида хоним изидан бориб, фан номзоди (PhD) илмий даражасини ҳимоя қилган.

Х.З. Алимова устоз сифатида юзлаб талабаларни тарбиялаган бўлса, инсон ва она сифатида ҳам меҳр, сабр ва садоқат тимсоли бўлиб қолмоқда.

Илмий изланишлар билан банд бўлган кунлардан сўнг, оилавий муҳитга қайтиш – бу унинг учун дам олиш эмас, балки ички кучни тиклаш жараёнидир.

Динара АЗИМДЖАНОВА,
Доцент Высшей школы иранистики и афганистики
ТГУВ, кандидат филологических наук

ПОСВЯЩАЕТСЯ ХОЛИДЕ ЗИКРИЛЛАЕВНЕ АЛИМОВОЙ. МОЕЙ КОЛЛЕГЕ И ПОДРУГЕ

Считается, что востоковедение – это не просто профессия, это судьба, которая передается по наследству. В случае с Холидой Закриллаевной Алимовой, эти слова обретают свой особый смысл. Вся ее жизнь, деятельность неразрывно связана со стенами Ташкентского государственного университета востоковедения (образованного на базе Восточного факультета ТашГУ, преобразованного в Институт Востоковедения, а затем и в Университет Востоковедения), который стал для неё не просто альма-матер, а вторым домом, а члены кафедры не просто коллегами , а семьей.

Путь в науку Холида начала не с громких званий, а с фундамента — с должности лаборанта. Это тот самый случай, когда человек прошел все ступени академической лестницы, познавая все тонкости профессии и работу университета изнутри. Именно её невероятное трудолюбие, терпение при преодолении трудностей, внимание к деталям, уважение к коллегам и студентам и заложило основу той безмерной любви и глубокого почтения, которым она пользуется среди востоковедов.

На мой взгляд, немалую роль сыграла и семейная преемственность. Дочь Умарова Зикриллы Акбаровича, являвшегося одним из ведущих преподавателей кафедры ирано-афганской филологии восточного факультета, она с детства впитывала атмосферу академических дискуссий и любовь к восточным языкам. Но быть «дочерью востоковеда» – это не только привилегия, но и огромная ответственность. Ей удалось не просто продолжить

династию, сохранить и приумножить достижения своего отца, но и вписать собственную яркую страницу в историю отечественного востоковедения.

Сегодня Холида Зикриллаевна - один из ведущих специалистов по языку дари. Её знание языка, глубокое видение научных задач и путей их решения, тонкостей и нюансов востоковедения вызывает восхищение не только в Узбекистане, но и за его пределами. Для неё востоковедение — это не просто объект исследования, это живой организм, красоту которого она раскрывает перед своими слушателями.

Звание профессора для неё – это не просто статус, а миссия. За годы работы она воспитала целую плеяду учеников: бакалавров; магистров, которые под её руководством делали первые серьезные шаги в науке; докторантов, ставшие ныне её достойными коллегами.

Студенты и коллеги единодушны: её лекции – это всегда поиск истины, а Холида не только Ученый с большой буквы. Без всякого сомнения ее можно назвать и Человеком с большой буквы, потому что общение с ней – это школа этики, профессионализма и человечности. Потому что она из тех редких людей, кто никогда не откажет в помощи – будь то сложный академический вопрос или жизненный совет.

В заключении хотелось бы привести такие слова. Один мудрец сказал: «Учитель – это не тот, кто наполняет сосуд, а тот, кто зажигает огонь». Когда его спросили, какой огонь горит дольше всего, он ответил: «Тот, который передается от одного сердца к другому, не теряя своего тепла».

И Холида именно такой человек. Она не просто передает знания, она отдает частицу своей души каждому ученику, коллегам, и этот свет возвращается к ней в виде уважения и любви коллег.

Авазбек ВАХИДОВ,
ТДШУ Амалий фанлар факультети декани,
Эроншунослик ва афғоншунослик олий
мактаби доценти, филология фанлари номзоди

ИЛМГА БАХШИДА УМР ВА САДОҚАТ ТИМСОЛИ

Инсон умрини дарёга ўхшатишади. Кимдир шунчаки оқиб ўтади, кимдир эса ўзидан катта бир мактаб, эзгу ном ва муносиб из қолдиради. Бугун умр довонининг навбатдаги маррасини забт этаётган азиз ҳамкасбимиз, филология фанлари доктори, профессор Алимова Холида Зикриллаевна ана шундай бахтли инсонлардандир.

Бизнинг танишлигимиз узоқ йилларга – беғубор талабалик йилларига бориб тақалади. Пахта далаларидаги меҳнат жараёнларида бошланган қадрдонлигимиз вақт синовидан ўтиб, бугун мустаҳкам ҳамкасблик ришталарига айланди. Ўша пайтлардаёқ ундаги илмга бўлган иштиёқ ва инсоний самимият ажралиб турарди.

Менинг талабалик йилларимда у кишининг падари бузрукворлари – олижаноб устозимиз Зикрулла Акбарович кафедра мудири сифатида бизга махсус курслардан сабоқ бергандилар. Тақдирни қарангки, йиллар ўтиб мен Москвада аспирантурани битириб қайтиб, кафедрада талабаларга дарс беришни бошлаган, факультет декани ва проректор лавозимларида ишлаган кезларимда, олима сифатида шаклланаётган ҳамкасбим билан илмий изланишлар борасида тез-тез маслаҳатлашадиган бўлдик. У кишининг укаси Шукрилло мен раҳбарлик қилган академик гуруҳнинг мумтоз талабаларидан эди. Унинг номзодлик диссертацияси устида ишлаш жараёнидаги тиришқоқлиги ва илмий изланувчанлиги ҳамон ёдимда. Тез орада илмий иш муваффақиятли ҳимоя қилинди ва бу йўл давом эттирлиб докторлик диссертацияси ҳам илмий жамоатчиликка тақдим этилди. Оталари изидан бориб,

кафедрага мудирлик вазифасини ҳам намунали тарзда бажардилар.

Бугун у киши нафақат республика, балки халқаро илмий давраларда ҳам ўз сўзи ва обрўсига эга йирик олима. Университет илмий семинари раҳбари сифатида ёш тадқиқотчиларнинг йўлчи юлдузига айланган. Бироқ мени энг ҳайратлантирадиган жиҳати – унинг отасининг илмий меросига бўлган чексиз эҳтиромидир. Падари бузруквори қолдирган хазинани авайлаб-асраб, уни илмий жамоатчиликка етказиш йўлидаги саъй-ҳаракатлари ҳақиқий фарзандлик бурчининг олий намунасидир.

Илм йўлидаги заҳматлари билан бирга, у оилада оқила аёл, меҳрибон она ва ажойиб рафиқа сифатида ҳам барчага ўрнак бўлиб келмоқда. Оила ва илмни бирдек юксак мақомда ушлаб туриш ҳар кимга ҳам насиб этавермайдиган бахт.

Азиз ҳамкасбим! Сизни қутлуғ ёшингиз билан муборакбод этаман. Шогирдлар ардоғида, оила даврасида ва илм чўққиларида ҳамиша омон бўлинг. Отангизнинг илмий чироғини ёқиб юришдан асло чарчаманг!

Юсуфбек ХЎЖАҚУЛОВ,
ТДШУ Эроншунослик ва афғоншунослик
олий мактаби катта ўқитувчиси

ЗИЁ УММОНИДА МУНАВВАР ГАВҲАР

Инсон ҳаётида мактаб, айниқса олий таълим даври чуқур из қолдиради ва унинг келажак ҳаёти пойдеворига асос солади. Мазкур пойдеворнинг мустаҳкам бўлишига ҳар бир инсоннинг ота-онаси, биринчи устози ва атроф муҳит муҳим роль ўйнайди. Бунда зиё таратувчининг зиёсидан баҳраманд бўлиш, уни ўзига сингдириш даражаси ушбу олинган зиёнинг келажакда мунаввар ва ёрқин нур таратишига замин яратади.

Ҳозирги кунда зиё таратувчи олима, етук шарқшунос, профессор Холидахон Зикруллаевнани талабалик йилларидан таниган барча инсонлар, жумладан, ҳамма афғоншунослар баралла “келажакда жуда моҳир афғоншунос шаклланмоқда” деган фикрни айтишарди, чунки талаба Холидахон Умарова илмга жуда чанқоқ, ҳар бир ишга режа асосида масъулият билан ёндашадиган хислатга эга толиби илм сифатида таассурот қолдирган ва албатта, бу сифатлари дарс жараёнлари, айниқса талабалар илмий анжуманлари, илмий мунозара ва кейинчалик илмий изланишларида ўз аксини топди. Масъулиятлари нафақат таҳсил олиш, балки талабалик йилларидаги жамоат ишлари жараёнлари, жумладан, пахта далаларида барча талабалар қатори меҳнатда ҳам намоён бўларди.

Ота орзуларини рўёбга чиқарган жигарбанд шогирд

Профессор Холидахон Зикруллаевна зиёли оилада дунёга келиб, марҳум устозимиз етук шарқшунос Зикрулла ака Умаровнинг тарбияларидан баҳраманд бўлишдек шарафга муяссар бўлган инсондирлар. Устозимиз Зикрулла ака Умаровнинг билимларидан баҳра олишга муяссар

бўлган инсон сифатида шуни таъкидлаб ўтишим лозимки, устоз форс, дарий, рус ва ўзбек тилларини мукаммал ўзлаштирган, ҳам амалий ва ҳам назарий билимлар соҳиби бўлган олим эдилар. Устознинг дарслари жуда қизиқарли, суҳбатлари сермазмун бўларди, илмий салоҳиятлари юқори инсон сифатида илмий ва амалий ишларга бағишланган жуда кўплаб режалари бор эди, афсуски режаларининг бир қисми амалга ошмай қолди. Устознинг ушбу режалари ва орзуларини амалга ошириш устоз ёқиб кетган чироқ, тарбиялаган шогирд ва жигарбандлари олима Холидахон Зикруллаевна томонидан амалга оширилди. Устозимизнинг вафотларидан сўнг мерос қилиб қолдирган илмий ишларини жигарбандлари ва шогирдлари профессор Холидахон Зикруллаевна амалга оишрдилар, марҳум устозни ёш шарқшуносларга танитиш, қилган меҳнатларини қадрлаш ва хотираларига эҳтиром сифатида китобларини нашр этишдек эзгу ишларни амалга оширдилар.

Садоқатли турмуш ўртоқ ва меҳрибон она

Профессор Холида Зикруллаевна илм бобида юқори чўққиларни забт этиш билан бирга оқила турмуш ўртоқ, меҳрибон она ва дилсўз келинлик вазифаларини ҳам аъло даражада амалга ошираётган инсондирлар. Турмуш ўртоқлари Камол ака билан шахсан танишман ва дўстимиз Камолнинг юриш-туришларида Холидахоннинг меҳнат ва муносабатлари яққол ўз аксини топганига гувоҳ бўласиз, чунки эркак кишида аёлининг турмуш ўтроғига бўлган ҳурмати намоён бўлиб туради. “Инсоннинг синамоқчи бўлсанг, у билан бирга сафарга чиқ”, дейишади. Холидахон оилавий хорижий хизмат сафарида ҳам бўлиб қайтдилар ва мусофирчилик инсонларнинг орасидаги муносабат, оиладаги меҳр-муҳаббат ва ришталарни янада мустаҳкамлайди ва ушбу хорижий хизмат сафари том маънода уларга ижобий таъсир кўрсатди.

Оқил фарзанд ҳар бир ота-онанинг орзусидир. Холидахон Зикруллаевна ҳаётнинг барча жабҳаларида пешқадам бўлганлари каби фарзанд тарбияси бобида ҳам мумтоздирлар ва икки фарзандни чиройли тарбиялаб, олий маълумотли бўлишларига замин яратиб, ўз тажриба ва билимларини фарзандларига юқтирган инсон, қизлари Шаҳборахонни ҳам зиё олами сари етаклаб, ўзлари каби олима бўлишига эришдилар ва ҳозирги кунда қизлари Шаҳборахон ҳам олий таълим тизимида шогирд етиштириш каби шарафли иш билан машғулдир.

Меҳрибон устоз, дилсўз мураббий

Профессор Холидахон Зикруллаевна таълим тизимидаги фаолиятларини талабалик даврларидан бошлаганлар ва таҳсил-таълим билан боғлиқ жараёнлардаги устозлар учун зарур бўлган кўникма-тажрибаларини талаба бўлган ҳолда ўзлаштиришга муяссар бўлганлар. Ўқишни тугатишлари билан ўзлаштирган билимлари ва кўникма даражалари асосида олий таълимда дарс бера бошладилар, жумладан, аспирантурага кириб, илмий ишларини муваффақиятли ҳимоя қилдилар, кейинчалик, катта ўқитувчи, доцент, кафедра мудири, докторлик иши ишини ҳимоя қилиб, қатор илмий рисолалар ва кўплаб дарсликлар яратишга муваффақ бўлдилар.

Профессор Холидахон Зикруллаевна кўплаб шогирдларга устозлик, жумладан, магистрлар ва айниқса бир қатор фалсафа докторларига раҳбар ва DS ишларига маслаҳатчи ҳамда илмий маслаҳатгўйликни ажойиб ва самарали тарзда амалга ошириб келмоқдалар. Профессор Холидахон Зикруллаевна ҳам илмий, ҳам амалий йўналишда ўз соҳасининг етук мутахассиси, ўз касбининг билимдони сифатида замонамизнинг таниқли шарқшунос олималари сафидан аллақачон ўрин эгаллаб бўлдилар ва том маънода зиёни ўзида акс эттирган, айни пайтда ушбу зиёни таратаётган олималаримиздандир.

Севара ШОМУРОДОВА,
ЎзМУ Ўзбек адабиётшунослиги
кафедраси катта ўқитувчиси

ЗАҲМАТКАШ ОЛИМА ВА КАМТАРИН ИНСОН

Мен Холида Зикриллаевна Алимовани тўғрисида ўйлаганимда беихтиёр буюк мутафаккир шоир Алишер Навоийнинг қуйидаги мисралари ёдимга тушади;

Одами эрсанг демагил одами,
Онинг ким йўқ халқ ғамидин ғами.

Шу боис сарлавҳада “заҳматкаш олима”, “камтарин инсон” ибораларини ишлатдим. Чунки Холида чиндан ҳам халқнинг ғамини еб, куйиб-пишиб илм-фан, таълим-тарбия соҳасида унинг равнақи учун хизмат қилиб келмоқда. Мен Холида Зикириллаевна Алимова билан Тошкент давлат университетининг шарқшунослик факультетида 3-курсда таҳсил олаётган олтин талабалик даврида танишганман.

1983 йил эди. Шарқшунослик факультети ҳовлиси ҳар доимгидек гавжум, аммо мен учун ўша йил қандайдир бошқача туюларди. Чунки мен аллақачон учинчи курс талабасига айланган, институт ҳаётига анча-мунча кўникиб улгурган эдим. Кунлардан бир куни янги талабалар орасида Холидани кўриб қолдим. У энди биринчи курсга қабул қилинган, ҳаётнинг янги босқичига қадам қўяётган қизлардан бири эди. Кичкина, оппоққина, жуда содда кўринишли эди. Энг эътиборимни тортган жиҳати – сочларини иккига бўлиб, чиройли қилиб ўриб олгани бўлди. Унинг шу содда қиёфасида қандайдир беғуборлик ва поклик мужассам эди. Уни биринчи кўрганимдаёқ негадир, бу қиз оддий талабалардан эмасдек туюлди. Балки, унинг қарашларидаги самимият ёки янги муҳитга эндигина қадам қўяётган инсонга хос ҳаяжон шундай ҳис уйғотгандир. Мен эса учинчи курс талабаси сифатида институт йўлаклари, дарслар ва устозларга анча аввал кўникиб кетган эдим.

Аммо ўша куни ўша кичкина, сочлари иккита қилиб ўрилган, оппоқ қиз сабаб мен ҳам ўзимни гўё аввалги, биринчи курсга кирган пайтларимга қайтгандек ҳис қилдим. Балким, ҳаёт шундай: кимдир янги йўлни бошлайди, кимдир эса ўша йўлда давом этади. Лекин баъзи учрашувлар инсон хотирасида умрбод сақланиб қолади. Холиданинг ўша содда, беғубор қиёфаси, китобга чўмиб ўтирган пайтлари баъзан хаёлимдан ўтиб кетади. Вақт ҳамма нарсани ўзгартирса-да, хотираларни ўзгартира олмас экан.

Ҳаёт бизни турли томонларга тарқатди. Аммо қалбимнинг бир чеккасида ўша талабалик йиллари, ўша учрашувлар ва ўша одамлар илиқ бир хотира бўлиб сақланиб қолган. Йиллар ўтди. Биз ҳам катта бўлдик. Кечагина қўлларидан етаклаб юрган болаларимиз ҳам аста-секин улғайиб, ўз йўлларини топа бошлашди. Ҳаёт эса одатдагидек давом этар, кунлар бир-бирига уланиб кетаверарди.

Бир куни малака ошириш учун яна Шарқшунослик институтига бориш насиб қилди. Бу масканга қадам қўйишим биланоқ юрагимда қандайдир таниш ҳислар уйғонди. Гўё йиллар орқага қайтгандек бўлдим. Эрон-афғон кафедрасига кирдим. Эшикдан киришим биланоқ таниш чеҳралар кўзимга ташланди. Кафедра мудири Қуранбеков Аҳмаджон ака, Зияева Тўхтахон опа, Шаматова Набира опа, Шокиров Олимжон ака… Улар ҳали ҳам ўша-ўша, фақат йиллар уларга бироз вазминлик ва ҳаёт тажрибасини қўшгандек эди.

Яна бир қарасам талабалик даврimда бирга ўқиган Холида ҳам шу ерда экан. Уни кўриб, кўнглим бир лаҳза тўлқинланиб кетди. Бир пайтлар сочларини иккига бўлиб ўриб юрган ўша кичкина, оппоққина қиз энди улғайган, ҳаётни кўрган, салобатли инсонга айланган эди.

Холида Алимовани нафақат етук олима ва устоз сифатида эмас, балки талабалик давриданоқ таниб билган

инсон сифатида эслайман. У пайтлардаёқ унинг илмга бўлган чанқоқлиги, интизоми ва меҳнатсеварлиги уни бошқалардан ажратиб турарди. Шу боис у доимо аъло баҳоларга ўқиб, устозлар эътиборини қозонган, курсдошлари орасида эса ҳурматга сазовор бўлган эди.

Ўша куни мен бир нарсани яна бир бор англадим: инсон қай даражада узоқ кетмасин, унинг илдизи, уни тарбиялаган маскан ва устозлари доимо қалбида яшайди. Шарқшунослик институти эса мен учун нафақат таълим даргоҳи, балки ёшлигим, орзуларим ва энг гўзал хотираларим маскани бўлиб қолаверади.

Ўша пайтларда мен Шарқшунослик институти қошидаги академик лицейда ишлар эдим. Форс тилидан дарс берар, ёшларга тил ўргатишдан, уларнинг илмга бўлган қизиқишини кўриб завқ олар эдим. Холида эса шарқшунослик институтида дарий тилидан дарс берарди. Уни энди нафақат собиқ факультетдош, балки етук мутахассис, устоз сифатида кўриш менга алоҳида бир фахр ҳиссини бағишларди.

Эшитишимча, у номзодлик диссертациясини ҳам муваффақиятли ҳимоя қилган эди. Бу хабар мени ҳеч ажаблантирмади. Чунки мен уни талабалик пайтиданоқ билимга чанқоқ, меҳнаткаш ва интизомли қиз сифатида билардим. Холида ҳақиқатан ҳам шу даражага арзир эди. Унинг меҳнати, сабри ва илмга бўлган муҳаббати уни шу поғонага олиб чиққанини яхши тушунардим. Унда қандайдир табиий камтарлик билан бирга, кучли ирода ва мақсадга интилиш бор эди. Мен уни кузатар эканман, қалбимда фақат бир фикр уйғонарди: инсон агар чин дилдан интилса, албатта ўз орзуларига етади. Холида эса ана шундай инсонлардан бири эди. Жимгина меҳнат қилиб, ўз ўрнини топган, ҳурматга сазовор инсон.

Малака ошириш кунлари давомида институт муҳити яна менга жуда яқин туюла бошлади. Бир куни йўлакда туриб, аудитория ичида устозларнинг дарс бераётганини кузатдим.

Уларнинг овози, талабаларнинг диққат билан тинглаши барчаси қалбимда алоҳида бир ҳаяжон уйғотди. Шу лаҳзада менинг ичимдан бир орзу ўтди: “Қани энди мен ҳам шу институтда дарс берсам…”. Бу орзуни ичимда сақлаб юролмадим. Бир куни Холида билан ёлғиз қолган пайтимда унга секингина айтдим:

– Холида, мен ҳам институтда дарс беришни жуда хоҳлаяпман…

У менга диққат билан қаради. Кўзларида қўллаб-қувватлаш ва илиқлик бор эди. Табассум қилиб:

– Севара опа, сиз бунга, албатта, лойиқсиз, — деди.

– Сизнинг билимингиз ҳам, тажрибангиз ҳам етарли. Нега бўлмасин?

Унинг бу сўзлари менга куч ва ишонч берди. Гўё ичимдаги иккиланишлар бир оз тарқагандек бўлди. Шу пайт тушундим: баъзан инсонга орзусини айтишнинг ўзи ҳам катта қадам экан.

Ўша кундан бошлаб, қалбимда янги бир умид пайдо бўлди. Балки бир кун келиб, мен ҳам шу даргоҳда талабаларга дарс берарман… Балки бу орзу ҳам амалга ошар. Мен институтда ишлаш орзусини янада жиддий ўйлай бошладим. Шунинг учун Холидадан ишга кириш йўл-йўриқларини сўрадим. У менинг гапларимни диққат билан эшитди ва ҳеч иккиланмасдан, чин дилдан ёрдам беришга тайёр эканини билдирди.

Холида менга барча керакли маълумотларни бирма-бир тушунтириб берди: қаерга мурожаат қилиш, қандай ҳужжатлар тайёрлаш, кимлар билан гаплашиш керак – ҳаммасини сабр билан изоҳлади. Унинг гапларида самимият ва менинг муваффақиятимни чиндан хоҳлаш ҳисси аниқ сезилиб турарди. Мен уни тинглар эканман, яна бир бор унинг қандай инсон эканига тан бердим. У фақат билимли ва иқтидорли эмас, балки бағрикенг, бошқаларга яхшилик қилишдан мамнун бўладиган инсон эди. Шу пайтда мен бир нарсани чуқур ҳис қилдим: ҳаётда шундай инсонлар

учрайдики, улар сенинг йўлингни очишга, сенга ишонч беришга сабабчи бўлади. Холида ҳам мен учун ана шундай инсонлардан бири эди. Вақт ўтди ва менинг орзуйим амалга ошди – мен институтга, Эрон-афғон кафедрасига ишга кирдим. Бу мен учун жуда катта бахт ва масъулият эди.

Энг қизиғи, мен ўша ерда Холида билан бирга ишлай бошладим. Бир пайтлар талабалик йилларимда уни оддий, содда қиз сифатида танисам, энди у менинг ҳамкасбим, тажрибали устоз сифатида олдимда эди.

Кафедрада яна бир таниш ва қадрли манзара мени кутиб олди. Талабалик давримда дарс берган устозларим ҳам ўша ерда эди. Улар билан яна бир жамоада, бир масканда ишлаш мен учун алоҳида фахр туйғусини уйғотди.Шу тариқа, мен ўзим учун жуда қадрли бўлган муҳитга қайтдим. Бир пайтлар орзу қилганим, энди ҳаётимнинг бир қисмига айланган эди. Дарс бериш, тил ўргатиш, талабалар билан ишлаш, ҳаммаси мен учун нафақат иш, балки қалбга яқин бир масканга айланганди. Холида билан бир кафедрада ишлаш эса бу йўлни янада мазмунли қилди. Унинг самимийлиги, меҳнатсеварлиги ва устоз сифатидаги масъулияти мени ҳар доим илҳомлантириб турарди.

Холиданинг самимий қўллаб-қувватлаши менга катта куч берди. Энди мен ўз орзуйимга янада ишонч билан қадам ташлашга тайёр эдим. Чунки орзу қилган инсон, албатта, унга бир қадам яқинлашади.

Ўша дамларда мен нафақат устоз, балки бир пайтлар бирга ўқиган инсон сифатида ҳам унга фахрланиб қарардим. Холида ҳақиқатан ҳам шундай инсон эдики, ким ундан нимадир ёрдам сўраса, жони-дили билан қўллаб-қувватларди. Унинг табиатида самимият, меҳнатсеварлик ва инсонларга нисбатан меҳр доимо сезилиб турарди.

Орадан кўп вақт ўтмай, у докторлик диссертациясини ҳам ҳимоя қилди. Бу хабар мен учун қувончли воқеа бўлди. Чунки Холида ҳар доим изланувчан, билимга чанқоқ инсон эди. Ҳимоя куни мен ҳам уни қўллаб-қувватлаш учун

бордим. Аудиториядаги муҳит жуда жиддий ва ҳаяжонли эди. Катта устозлар, профессорлар томонидан берилган саволлар бир-биридан мураккаб эди.

Лекин Холида ҳеч бир савол олдида довдирамади. У ҳар бир саволга аниқ, равшан ва ишонч билан жавоб берди. Унинг билим даражаси, фикрлаш доираси ва ўз ишига бўлган чуқур тайёргарлиги барчага яққол кўриниб турарди. Ҳимоя якунида мен ичимдан фахр билан унга қарадим. У нафақат илмий даража олди, балки ўз меҳнати, сабри ва иродаси билан бу мақомга муносиб эканини яна бир бор исботлади.

Бугунги кунда у филология фанлари доктори, профессор, етук шарқшунос олима ҳисобланади. Унинг дарий ва форс тилшунослигига оид илмий тадқиқотлари, яратган дарслик ва қўлланмалари кўплаб талабалар ва мутахассислар учун муҳим манба бўлиб хизмат қилмоқда. Холида Зикриллаевнанинг илмий фаолияти билан бир қаторда, унинг педагогик маҳорати ҳам алоҳида эътирофга лойиқ. У ўз дарсларида замонавий усуллардан самарали фойдаланиб, талабаларга нафақат билим, балки мустақил фикрлаш, изланиш ва таҳлил қилиш кўникмаларини ҳам сингдиради. Унинг раҳбарлигида кўплаб ёшлар ўз илмий йўлини топиб, муваффақиятли ҳимоялар қилгани бунинг яққол исботидир.

Холида Зикриллаевна Алимова илм ва фидойиликни уйғунлаштирган, ўз меҳнати билан юксак мартабага эришган, айни пайтда инсонийлик фазилатларини йўқотмаган нодир шахслардандир. Унинг ҳаёт йўли ва фаолияти ёш авлод учун ҳақиқий ибрат мактабидир.

Холида Зикриллаевна Алимова нафақат ишда, балки уйда ҳам намуна бўладиган инсон. У яхши келин сифатида қайнота ва қайнонасининг дуоларини олган, уларнинг хизматларида бўлган, оиласида меҳр ва ҳурматни сақлай олган инсон эканини исботлаган. Унинг ҳаётидаги бу гўзал фазилатлар сабр, меҳр ва масъулият уни янада улуғ қилади. Бундай инсонлар доимо ҳурмат ва эътиборга лойиқ бўлади.

Холидага турмуш ўртоғи билан қўша қариб фарзандларининг камолини, бахтини кўриш насиб этсин, тинч ва осуда ҳаёт кечиришларига муяссар бўлсин.

Холида Зикриллаевна Алимовага доимо омад ҳамроҳ бўлсин. Мартабаси янада юксалсин, ишида, ҳаётида яхшиликлар кўпайсин. Унинг йўли доимо очиқ, қалби эса хотиржам ва бахтли бўлсин.

Dilfuza AXMEDOVA,
TDSHU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik oliy maktabi professori, filologiya fanlari doktori

TANQIDDAN KAMOLOTGA: USTOZ BILAN YO‘L

Ustozni talabalik davrlarimda ko‘p ham eslay olmayman. Sababi, biz fors guruhida tahsil olganmiz, ustoz esa dariy tilidan saboq bergan edilar. Ularni aslida kafedraga ishga qabul qilinganimdan so‘ng, ayniqsa nomzodlik dissertatsiyam himoyasi jarayonida qayta kashf etdim, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dissertatsiyamning dastlabki kafedra muhokamasidan tortib, to himoya jarayonigacha ustoz menga o‘zimdan ham ko‘proq mehnat qildilar. Avvaliga muhokama davomida bildirgan keskin, tanqidiy fikrlaridan biroz ranjidim. Biroq vaqt o‘tib, bu tanqidlarning aslida men uchun naqadar foydali bo‘lganini anglab yetdim. Muhokamadan keyin ustoz har bir e’tiroz va mulohaza ustida men bilan birga ishladilar, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatdilar. Natijada seminar bosqichidan osonlik bilan o‘tdim. Buni marhum ustozimiz Ahmadjon Quronbekov ham alohida ta’kidlagan edilar. Ayniqsa, Ozod Shamatovdan ijobiy taqriz olishning o‘zi katta yutuq hisoblanadi, deganlari hamon yodimda. Ammo bu muvaffaqiyat ortida ustozlarim Ahmadjon Quronbekov hamda Xolida Zikrillayevnaning beqiyos mehnatlari mujassam edi. Himoya jarayonida ham ustoz tashqi taqrizchiga ishni olib borishgacha yonimda bo‘ldilar, meni qo‘llab-quvvatladilar. Bu e’tibor va mehrni aslo unutmayman.

Shu tariqa ustoz bilan yaqinlashib, mana necha yillardan buyon birga, yonma-yon faoliyat olib borayotganimni o‘zim uchun katta sharaf deb bilaman. Ularning kafedra mudiri sifatidagi faoliyatlari ham asosan biz shogirdlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi.

Ammo Xolida opa bilan bog‘liq bir voqea hanuz meni hijolatga soladi. 2017-yilda biz birga Eron Islom Respublikasiga

bir oylik malaka oshirish uchun bordik. Bu safarga borishimda ham aynan Xolida opaning sa’y-harakatlari sabab bo‘lgan edi. Afsuski, men bir hafta o‘tib Toshkentga qaytib keldim va ustozni yolg‘iz qoldirdim. O‘sha paytda buni chuqur his qilmagan ekanman. Keyinchalik esa ustozning menga bildirgan ishonchini oqlay olmaganimni, ularni noqulay vaziyatga solib qo‘yganimni angladim. Shunga qaramay, ustoz menga biror marta ham e’tiroz bildirmadilar. Shu bois bu holat uchun hanuz qalban hijolatdaman.

Xolida opaning insoniy fazilatlari haqida esa alohida to‘xtalib o‘tirmayman. Zero, ularni tanigan har bir inson bu fazilatlarni yaxshi biladi. Faqat shuni ta’kidlashni istayman: ustoz bilan birga ishlash, ularning saboqlari va bilimlaridan bahramand bo‘lish nasib etgani men uchun hayotimdagi eng katta ne’matlardan biridir.

Ustoz, oilangiz, farzandlaringiz, shogirdlaringiz va kasbdoshlaringiz baxtiga doimo sog‘-salomat bo‘ling!

Ҳулкар МИРЗАХМЕДОВА
ТДШУ Илмий тадқиқотлар ва инновациялар бошқармаси бошлиғи, Эроншунослик ва афғоншунослик олий мактаби доценти, филология фанлари доктори

КАТТА ФИКРЛИ ШАХС!

Ходида Зикриллаевна Алимова ҳақларидаги катта фикрлар қаршисида менинг айтилажак бу кичик гапларим кўримсизгина бўлиб қолади... . Ишончим комил, кўпгина ҳамкасблар Холида Зикриллаевнани олима, устоз ва/ёки раҳбар сифатида таърифлашади. Мен уларни "қиз фарзанд" сифатида таниганимни айтмоқчиман... .

Мен Холида Зикриллаевнанинг кафедра мудири бўлиб ишлаганларидан сўнг кафедра бошқаруви вазифасига ўтганман. Шундан кейин кафедра тарихи, ҳаёти, у ердаги ишларни чуқурроқ ўрганишни бошлаганман. Бу жараёнда билганманки, "Эрон-афғон филологияси кафедраси" (ҳозирги – "Эроншунослик ва афғоншунослик олий мактаби") нафақат жуда чуқур тарихга эга, балки кўплаб олимлар, давлат ва жамоат арбобларини етказиб чиқарган маскан бўлган ва шу кунга қадар ўзининг қатъий илмий позицияси ва жамоа орасида адолатли стратегиясига содиқ. Бу сўзларни айтиш учун асос бор – кафедрага кучли устозлар раҳбарлик қилган ва бу ҳамон давом этмоқда. Шулардан бири Холида Зикриллаевнанинг адалари – Зикрилла Умаров. У киши 1977-1984 йилларда оғир сиёсий вазият бўлишига қарамасдан кафедрани бошқариб, унинг ривожи учун хизмат қилган мутахассис бўлган. Олим "Грамматика староузбекского языка "Мабани ул-лугат" Мирзы Мехдихани" номли номзодлик диссертациясини 1967 йилда ҳимоя қилган. Вақт ўтиб, номзодлик диссертацияси ўзбек тилида монография шаклида нашр қилинган. Орадан қарийб 50 йил муддат ушбу Холида Зикриллаевна томонидан тўлдирилган ва қайта ишланган

“Мирзо Меҳдихоннинг “Мабониу-л-луғат” эски ўзбек тили грамматикаси” номи остида Зикрилла Умаров исми билан нашр этилди. Ушбу китоб тайёрланаётганда мен Холида опага: “Шунча меҳнатингиз қолиб кетмасин, уни монография сифатида нашр қилар экансиз, албатта ўзингизни фамилиянгизни киритинг, бу сизнинг KPI кўрсаткичингизга ижобий таъсир қилади”, – дедим. Шунда Холида Зикриллаевна: “Бу китобни отамнинг ёрқин хотиралари учун нашр қилишни режа қилган эдим, гарчи ўз отам бўлса ҳам, майли, ўзларини исмлари қолаверсин”, – деб китобни яккамуаллифликда чоп қилдилар. Унинг тақдимоти университетда катта масштабда бундан роппа роса 1 йил олдин – 2025 йилнинг 25 май санасида ўтказилди: унга олимлар ва соҳа мутахассислари ташриф буюришди, китоб ва унинг муаллифи ҳақида илиқ фикрлар айтишди; Зикрилла Умаровнинг хотиралари абадий қолишини, ўша даврдаги яратилган монография бугунги кун учун долзарб аҳамиятга эга эканлигини, уни илмий жамоатчиликка кенг тарғиб қилиш лозимлиги қайд этилди. Бу даврадаги энг диққатли жумла сифатида: “отасига муносиб фарзанд”, “Зикрилла Умаровнинг руҳлари шод бўлсин”, “шарқшунослик учун катта илмий натижа” деган фразалар янгради. Шарқшуносликда, хусусан, афғоншуносликда яна катта анъана ўз йўлида давом этарди – бу каттага ҳурмат, устозларни хотирлаш ва адолатли ёндашув!

Ислом таълимотига кўра, инсон вафот этганидан сўнг унинг амаллар дафтари, яъни номаи аъмоли умумий маънода ёпилса-да, **учта нарса (амал)** туфайли унга савоб ёзилишда давом этади. Бу ҳақда Ҳадиси Шарифларда шундай келади: Абу Ҳурайра розияллоҳу анҳудан ривоят қилинган ҳадисда Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам шундай деганлар: *«Инсон вафот этганда, уч нарсадан бошқа барча амаллари савоби ундан узилади: жорий садақа, фойдаси тегадиган илм ёки унинг ҳаққига дуо қиладиган солиҳ фарзанд»* (Имом Муслим ривояти). Ушбу Ҳадис

мазмуни китоб тақдимотида бот-бот такрорланди. Хусусан, устозимиз Қосимжон Содиқов томонларидан чиройли таърифлар билан изоҳланди: “Холида фарзандлик вазифасини тўлиқ бажарди, отасининг қилган ишларини мукаммал кўринишда илмий жамоатчиликка тақдим қилди ва отасининг амал дафтарини савоблар, яхшиликлар билан тўлиши учун замин ҳозирлади”.

Бир нарсани тушуниб етдим: ҳаммамиз бу дунёда қўлимиздан келганича яшамоқдамиз, ишламоқдамиз ва қайсидир вазифаларни ўз вақтида бажаришга ҳаракат қилмоқдамиз. Аммо айрим кўринмас чегаралар бор: тарбия, билим ва мақом. Дастлабки иккитаси ота-она ва жамиятдан ўзлаштирилади, биз бажаришимиз учун эса биргина нарса қоларкан: ушбу тарбия ва билимни фарзандлик ҳамда **етук шахсият мақоми**да кўрсатиб бериш! Холида Зикриллаевна худди шу нарсани тўлиқлигича уддалаган **шахс**! Биз ҳавасдамиз!

Холида Алимовага узоқ умр, хотиржамлик ва шогирдлар ютуғини кўриб юришларини тилайман. Қилаётган меҳнатларини Роббим улкан ажр билан сийласин! Қутлуғ ёшлари қуллуқ кирсин!

Маликахон НАСИРОВА,
Oriental университети Илмий ишлар
ва инновациялар бўйича проректори,
филология фанлари номзоди, профессор

ХОЛИДАХОН АЛИМОВА – КАМТАРЛИК ВА САМИМИЯТ БИЛАН БЕЗАЛГАН УМР ЙЎЛИ

Талабалик даврларим..... Кўпчилик ёшларнинг орзуси бўлган Тошкент давлат университетининг шарқшунослик факультети... араб бўлими... . Қувончимизнинг чегараси йўқ.... Дарсларга жиддий тайёргарлик кўриб, кеч қолмасдан, бетоб бўлсак ҳам дарс қолдирмасдан ўқир эдик. Дарсга бормасликка уялар эдик, “қочиб кетиш”ни хаёлимизга ҳам келтирмасдик. Чунки устозларимнинг салобати, ҳайбати ўзгача эди ... .

Барчага маълум, собиқ шўролар даврида пахта масаласи жиддий сиёсий масала бўлган. Ялпи сафарбарлик эълон қиланар, ҳаммамиз ўқишимизни “йиғиштириб” пахта тергани Сирдарё вилоятига кетар эдик. “Пахта компанияси”нинг бир афзал томони барча талабалар бир-бири билан яқин ўртоқ, иноқ дўст бўлиб қайтар эди. Шарқшунослик факультетимиз нисбатан кам сонли, кичик факультетлардан эди. Ҳар йили барча йўналишларга (араб, форс, афғон, ҳинд, хитой, шарқ мамлакатлари тарихи) жами 100 нафар талаба қабул қиланар эди. Шу боисми ҳамма бир-бирини яхши танир эди. Аммо пахтадан ҳамма қалин ўртоқ бўлиб қайтарди. Биз ҳам Холидахон билан пахтада жуда иноқлашиб кетдик. Бунинг сабаби Холидахондаги туғма камтарлик, самимият, барчага бир хил муомала, очиқ чеҳра эди.

Орадан бир неча йил ўтиб, 5-курсни тамомлагач, мен ҳам, Холидахон ҳам факультетимиз, ўзимизнинг қадрдон кафедрамизда устозларимиз қаторида ишлаш бахтига муяссар бўлдик. 1990 йилдан бошлаган педогогик фаолиятимиз шу бугунги кунимизга қадар давом этиб келмоқда. Бу йиллар мобайнида кўплаб талабаларга устозлик қилдик.

Мутахассислик фанларимизга оид дарслик ва ўқув адабиётларини яратдик. Ўқув режа, танлов фанлари ва ҳкз.лар бўйича доимий фикр алмашинуви, маслаҳатлар, БМИ ва МД ларга раҳбарлик, тақризлар билан йилларни ўтказдик. Ҳамон ўша самимият, очиқ чеҳра Холидахонни тарк этгани йўқ.

Илмий фаолиятимиз ҳам бир-бирига яқин. Холида дарий тили, тилшунослиги бўйича, мен араб тилшунослиги бўйича илмий тадқиқот олиб бордик. Бирин кетин ҳимояга чиқдик. Илмий анжуманларда маърузалар қилдик, семинар ва учрашувлар, давра суҳбатларини олиб бордик, шогирдлар етиштирдик ...

Холидахон Алимова кўп йиллар эрон-афғон филологияси кафедрасининг мудири лавозимида самарали ва баракали фаолият олиб борди. Кўплаб шогирдлар етиштириб, университет ва соҳа ривожига катта ҳисса қўшиб келмоқда. Шарқшунослик университети ҳузуридаги илмий даражалар берувчи Илмий Кенгаш аъзоси, кенгаш қошидаги семинар раиси сифатидаги фаолияти ҳақида анча гапириш, ёзиш мумкин. Бу – янги мавзу, Холидахоннинг портретига бошқа чизгилар бўлади ... .

Холида Алимова кучли назариётчи сифатида нафақат Ўзбекистонда, балки хорижда ҳам тан олинган ўз соҳасининг етук мутахассиси. Илмий даража, илмий унвонлар, эътироф... буларнинг барчаси йиллар ўтиб борсада Холидахоннинг феълидаги камтарлик, инсонийлик, халимликка асло таъсир қилгани йўқ.

Дугонам, сафдошим, яқин инсоним Холида Алимовани таваллудининг 60 йиллиги билан чин дилдан муборакбод этаман. Сермазмун, жўшқин, аммо шу билан бирга хотиржам ҳаёт, соғлик-саломатлик тилайман. Илм йўлидаги машаққатли меҳнатида устозлар дуоси ва шогирдлар эътирофи ҳамроҳлик қилсин!

Марям ЭШМУҲАММЕДОВА,
ТДШУ Туркшунослик олий мактаби
доценти, филология фанлари номзоди

ҲАЗРАТИ АЁЛ

Яхши хотунлар сафоий зуҳдидин,
Олам ичра гар ёруғлуқ бўлса фош.
Йўқ ажаб, чунким араб алфозида
Истилоҳ ичра муаннасдур қуёш.
Алишер Навоий

Биз Холидахон Алимова билан Тошкент давлат шарқшунослик университетида бир вақтда иш фаолиятимизни бошлаганмиз, у киши Эрон-афғон кафедрасида, мен Туркийёт кафедрасида.

Холидахон илм оламида йиллар давомида илгарилаб борди: аввал номзодлик, кейин докторлик диссертацияларини ҳимоя қилди, ўз соҳасининг етук олимларидан бўлиб етишди.

Олима бир неча фазилат эгаси. У аввало мутахассис сифатида олий таълим талабаларига кўплаб дарсликлар, ўқув қўлланмалар ёзди. Иккита монография, 80 дан ортиқ илмий мақолалар муаллифидир. Холидахоннинг раҳбарлигида бир қанча магистрлик диссертациялари ва филология бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун диссертациялар ҳимоя қилинди.

Иккинчи фазилати у оилада ажойиб бека, ҳақиқий Шарқ аёлидир. Холидахоннинг турмуш ўртоғига бўлган ҳурмати, ардоғи бундай мавқега эришган ҳар бир аёл жуфтининг орзуси бўлса керак.

Учинчи фазилати Холидахон куюнчак ва меҳрибон она. Икки фарзандини турмуш ўртоғи билан бирга авайлаб ўстирди ва уларга яхши тарбия берди, камолини кўрди.

Шу билан бирга у қайнота ва қайноналарининг салкам қирқ йилдан бери хизматида. Ҳеч оғринмай шу кунгача келинлик эмас, фарзандлик вазифасини адо этиб келяпти.

Холидахондаги яна бир муҳим, айни дамда ноёб фазилат – у *ҳазрати аёл.* Олима мансаб пиллапояларидан юқори кўтариладими, турли мажлисларда унга минбарлардан жой ажратиладими, ёзган китоблари ҳатто хорижлик олимлар томонидан эътироф этилиб, юқори баҳоланадими, қатъий назар, булар уни ***ҳазрати аёллик*** мартабасидан тушира олмади...

Холидахон, қутлуғ ёшингиз муборак бўлсин. Ҳамиша оила аъзоларингиз ва илм аҳли ардоғида бўлинг.

Қадрингиз баланд бўлсин, *ҳазрати аёл*.

Nafisa ZIKRILLO QIZI,
O‘zMU O‘zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi katta o‘qituvchisi

AZIZ SINGLIM XOLIDAGA!

Bugun qadrli singlim Xolida muborak 60 yoshni qarshilamoqda. Inson umrining bu dovoni ortga nazar tashlab, bosib o‘tilgan yo‘lni xotiralar bilan yana bir bor ko‘zdan kechirishga undaydi. Xolida ana shunday mazmunli hayot yo‘lini bosib o‘tgan, ilm, mehnat va samimiyat bilan o‘z nomini hurmatga sazovor qilgan insondir. U o‘zining tinimsiz izlanishlari, mehnatsevarligi va ota-onamizning, shuningdek, qaynota-qaynonasining duolarini olib, ilm yo‘lida yuksak darajaga erishdi. Bugun u olima, professor sifatida tanilgan bo‘lsa, bu – uning sabr-toqati, intilishi va fidoyiligidan dalolat beradi.

Bolaligimizni eslasam, qalbim iliqlikka to‘ladi. Har bir opa-singil kabi biz ham birga o‘ynab, quvonchli damlarni baham ko‘rganmiz. Otamiz Zikrillo Umarov, Olloh rahmatiga olgan bo‘lsin, eronshunos olimlardan edilar. U kishi Afg‘onistondan olib kelgan yapon tasma bilan ishlaydigan magnitofon biz uchun o‘sha paytda juda qiziqarli bir mo‘jiza edi. Ba’zan uyda yolg‘iz qolsak, mikrofonni olib, go‘yoki katta sahnadagidek “konsert” uyushtirardik. Ovozimizni yozib olib, keyin qayta eshitib rosa kulardik. Ayniqsa, mening qo‘shig‘im oxiriga yetmay qolgan paytlarda hammamizning kulgimiz tutib ketardi. O‘sha beg‘ubor damlar bugun ham xotiramizda eng shirin sahifalar bo‘lib qolgan.

Talabalik yillarimiz ham o‘zgacha xotiralarga boy edi. Biz ToshDU (hozirgi O‘zMU)ning eron-afg‘on bo‘limida o‘qiganmiz: Xolida 1-kursda, men esa 4-kurs talabasi edim. O‘sha davr talabalari kabi biz ham paxta terimiga chiqardik. Ba’zan oylab Sirdaryodagi oddiy barak xonalarda yashab, mehnat qilgan kunlarimiz bo‘lgan. Tan olishim kerak, bu borada

men biroz dangasaroq edim. Komsomollar kuni “ударный день” deb, rosa paxta terib, keyin chang bosgan qo‘llari, oftobdan qoraygan yuzlarini ko‘rsatib “Mehnat insonni go‘zallashtiradi”, deb hazillashishardi.

Talabalik davrimdagi yana bir voqea hech esimdan chiqmaydi. O‘sha paytda diplom ishlari mashinkada terilar, arab-fors alifbosidagi harflar esa unda bo‘lmagani uchun, kerakli joylari qo‘lda yozib to‘ldirilardi. Diplom ishimni tayyorlayotganimda Xolida rahmatli otam boshchiligida tun bo‘yi, tonggacha o‘tirib, arab-fors yozuvidagi joylarini chiroyli qilib qo‘lda yozib bergan edi. Shu tufayli diplom ishimni muvaffaqiyatli himoya qilganman. O‘sha diplom ishi hozirgacha qo‘limda saqlanib turibdi va har safar ko‘rganimda mehribon singlimning fidoyiligini yodga soladi.

Xolidaning ajoyib fazilati, kimdir yordam so‘rasa, qanday sharoit bo‘lishidan qat’i nazar, yordam qo‘lini cho‘zadi. Uning fitratida kattalik ham, manmanlik ham yo‘q – hamma bilan birdek samimiy. Oilada u sadoqatli turmush o‘rtoq, farzandlariga suyanchiq, mehribon ona va hurmatli qaynona sifatida barchaning mehrini qozongan.

Yoshim katta bo‘lsa-da, singlimdan ibrat oladigan, havas qiladigan jihatlar ko‘p. Uning kamtarligi, mehnatsevarligi va odamlarga mehr bilan munosabatda bo‘lishi – uning eng go‘zal fazilatlaridir.

Aziz singlim, muborak 60 yoshing bilan chin qalbimdan tabriklayman. Hayoting bundan buyon ham sog‘lik, baraka, oila bag‘ridagi quvonch va ilm yo‘lidagi yangi yutuqlar bilan bezalib borsin. Sen biz uchun nafaqat singil, balki faxr va ibrat manbaisan.

Нигора АБДУСАТТОРОВА (САЙФУТДИНОВА)
Курсдоши, эроншунос

ҚУТЛОВ

Олима Алимова Холида ҳақида гапирганда, устозимиз Зикрилла Умаровни ёдга олмай иложимиз йўқ. Бу инсон узоқ йиллар Тошкент давлат университетида фаолият олиб борган, кўплаб шогирдларни тарбиялаган, қатор илмий асарлар ва қўлланмалар, луғатларга муаллифлик қилган етук олим эдилар. Биз бу инсонни ҳамиша чуқур билим эгаси сифатида ёдга оламиз. Холидахон ана шундай зиёли оилада дунёга келган ва тарбия топган. Оиладаги илмга бўлган муҳаббат муҳити Холидахонга ўз таъсирини ўтказган бўлса ажабмас.

Биз Холидахон билан битта курсда таълим олганмиз. Ўзига талабчанлиги ва тиришқоқлиги уни бошка талабалардан ажратиб турарди. У дарсларга ҳамиша тайёр, илм олишда ҳам, жамоат ишларида ҳам доимо фаол бўлган. Беш йиллик ўқишимиз давомида Холидахонни бирон марта дарсга кечиккани ёки тайёр бўлмаган ҳолда келганини эслай олмайман. Мен ҳар доим унинг ўзини тутиши, сўзлашиши ва маданиятига ҳавас билан қарардим. Унинг нутқ маданияти талабалик даврларидаёқ мукаммал эди. Холидахон ҳамиша равон сўзлаб, фикрини аниқ баён эта олган. Бу эса унинг яна бир яхши хислати китобхонлик, яъни китоб мутолаа қилишни севувчи инсон эканлигига далолатдир. Шу билан бирга у ўта камтар ва юқори маданиятли шахс сифатида ҳам қалблардан жой олган. Холидахон ўз устида ишлаб чарчамайдиган, илм чўққиларини забт этишдан завқ оладиган инсон.

Ҳозирда Холидахон Тошкент давлат шарқшунослик университетининг етакчи олималаридан ҳисобланади. Талабалар бу инсондан илм олиш билан бирга гўзал инсоний хислатларни ҳам ўрганишларига ишонаман.

Мен Холидахонга илмий изланишлари ва кўплаб шогирдларни тарбиялашдек шарафли ишларида чин қалбдан муваффакиятлар тилайман.

Имом Ғаззолийнинг «Сиз илмга бор-йўғингизни бермагунингизча илм сизга ҳеч нарса бермайди» деган нақли бор. Шу ҳикмат маъносидан келиб чиқадиган бўлсак, Холидахон ҳам илмнинг энг юқори чўққиларини забт этиш учун илмга ўзининг бор-йўғини, яъни бутун ҳаётини бағишлаб келмоқда. Ҳам устози, ҳам падари бузруквори Зикрилла Умаровнинг бошлаган илмий йулини давом эттириб келмокда. Мен Холидахонга илм йўлидаги интилишларида кўплаб зафарлар тилаб қоламан.

Гулнора МУТАЛОВА,
ТДШУ Арабшунослик олий мактаби доценти
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ИНСОНИЙЛИК ВА САМИМИЯТНИ МУЖАССАМ ЭТГАН ОЛИМА

Ҳурматли ҳамкасбим, қадрли Холида Зикриллаевна!

Сизни муборак 60 ёшлик юбилейингиз билан чин дилдан самимий табриклайман!

Бу файзли сана Сизнинг мазмунли ҳаёт йўлингиз, самарали меҳнатингиз ва юксак инсоний фазилатларингизнинг ёрқин ифодасидир. Сиз устозлик шарафли анъаналарни давом эттирган, маърифатли оилада тарбия топган инсон сифатида нафақат билимингиз, балки камтарлигингиз, юксак одоб-ахлоқингиз билан ҳам барчамизга ибрат бўлиб келмоқдасиз.

Менинг Сиз билан илк танишувим ҳам бежиз эмас, у аввало Сизнинг муҳтарам отангиз, ноёб мутахассис ва жуда ҳам ажойиб инсон – Умаров Зикрилла Акбаровични таниш, улардан дуо ва ҳаётий ўгитлар олиш бахти билан бошланган эди. Ҳанузгача уларнинг чиройли дуолари – “Бахтли бўлинг, қизим, бахтли бўлинг!” деган сўзлари юзларидаги ўша юмшоқлик ва самимият билан ёдимда. Уларнинг овозлари, бир оз кулимсираб қарашлари ҳамон кўз ўнгимда жонланиб туради. Табаррук падари бузрукворингиз, Зикрилла Умарович устозимизнинг руҳлари шод бўлсин, охиратлари обод бўлиб, Яратган уларни фирдавс боғлари билан мукофотласин.

Ана шу нурли тарбия ва дуоларнинг самараси Сизнинг бутун фаолиятингизда, инсонийлик фазилатларингизда ўзининг аксини топган ва гўзал ифодасини топиб келмоқда.

Илк бор Сиз билан бевосита танишишим 1999 йилнинг охирларига тўғри келади. Ўша пайтдаёқ Сизни ҳеч ким билан адаштириб бўлмасди: юзингиздаги ўша самимий

юмшоқлик, чиройли кулгичлар беихтиёр муҳтарам Зикрилла Акбаровични ёдга солар эди. Бу ўхшашлик нафақат ташқи қиёфада, балки ички нур, инсонийлик ва самимиятда ҳам намоён бўлиб, Сизнинг қандай оилавий муҳитда тарбия топганингизни яққол ҳис эттирарди.

Сал кам ўттиз йиллик бир-биримизни танишлик, ёнма-ён меҳнат қилишимиз давомида Сиздаги шарқона латофат, ўзбек аёлига хос мулойимлик, босиқлик ва мулоҳазалилик ва шу билан бирга айни пайтда кўпчиликка хос бўлмаган қатъият, ўз фикрида собит туриш фазилатлари билан уйғунлашиб, Сизни алоҳида шахс сифатида намоён этаётганига гувоҳ бўлиб келмоқдаман. Ана шу ноёб уйғунлик, доимий собитлик, мансаб, вазият ва атрофдаги фикрлардан қатъий назар ўзгармаслик Сизнинг шахсиятингизнинг энг гўзал жиҳатларидан бири бўлиб, самимий ҳавас ва чуқур ҳурмат-эҳтиромга лойиқдир.

Сиз билан бир жамоада ишлаш, биргаликда фаолият юритиш мен учун шараф ва катта бахт! Айниқса, бирга ўтказган самимий суҳбатларимиз, қувноқ дамларимиз ва иш жараёнидаги ўзаро тушуниш ҳамда қўллаб-қувватлашларимиз қалбимда илиқ хотиралар сифатида сақланиб қолган. Сизнинг самимиятингиз ва ҳаётий тажрибангиз катта жамоамизнинг муҳитини янада аҳил ва мазмунли қилади.

Сиз нафақат дарий ва форс тилшунослиги соҳасидаги етук мутахассис, балки ҳақиқий устоз, ишончли дўст ва доимо тўғри йўл кўрсатувчи маслаҳатчидирсиз. Сизнинг ҳаёт мактабингиздан ўрганадиган жиҳатлар жуда кўп.

Шу муборак айёмда Сизга мустаҳкам соғлиқ, узоқ умр, оилавий бахт-саодат ва янада юксак ютуқлар тилайман. Илмий ва касбий фаолиятингиз бардавом бўлиб, ҳали кўплаб шогирдлар тарбиялаш бахтига муяссар бўлинг!

Юбилейингиз муборак бўлсин!

Чуқур ҳурмат ва самимият билан, Гулнора Муталова

Oydin TURDIYEVA,
TDSHU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik
oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari doktori

MEHR VA FIDOYILIK TIMSOLI

Har bir inson hayotida iz qoldiradigan, yo‘l ko‘rsatadigan ustozlar bo‘ladi. Men uchun ana shunday ulug‘ insonlardan biri Xolida Alimova ustozimizdir. Ularning hayot yo‘li, sabr-toqati va mehr bilan bergan ta’limlari ko‘plab shogirdlar qalbida chuqur iz qoldirgan.

Ustozimiz nafaqat bilim beruvchi, balki hayotiy saboqlarni ham o‘rgatgan insondir. Har bir aytgan so‘zlari, bergan maslahatlari bugungi kunda ham biz uchun yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. U kishining sabr bilan tushuntirishi, har bir shogirdga alohida e’tibor bilan yondashishi bizni doimo hayratga solgan.

Xolida opa nafaqat yaxshi ustoz, balki hayotning har bir jabhasida ibrat bo‘la oladigan insondirlar. Ular mehribon ona, o‘z ro‘zg‘orini namunali yuritadigan oqila beka, turmush o‘rtog‘iga suyanch bo‘la oladigan sadoqatli yor hamdir. Shu bilan birga, atrofdagilarga mehr ulashadigan, doimo yaxshilik qilishga intiladigan chin inson sifatida qalblarda o‘chmas iz qoldirganlar.

Men Xolida opa bilan bog‘liq faqat iliq va yorqin xotiralarni eslayman. Qiyin paytlarda aytilgan dalda so‘zlari, kichik yutuqlarimizdan quvonib, bizni yanada ilhomlantirgan lahzalar hech qachon yodimdan chiqmaydi. U kishining mehribonligi va samimiyligi bizga nafaqat yaxshi o‘quvchi, balki yaxshi inson bo‘lishni ham o‘rgatdi.

Bugun ustozimiz 60 yoshni qarshi olar ekanlar, u kishiga mustahkam sog‘liq, uzoq umr va yana ko‘plab shogirdlar yetishtirish baxtini tilayman. Ularning bergan bilim va tarbiyasi bizning kelajagimizda davom etadi va har doim faxr bilan eslanadi.

Shunday ustozim borligidan faxrlanaman.

Рихситилла АЛИМУХАМЕДОВ,
Ориентал университети Илмий тадқиқотлар,
инновациялар ва илмий педагогик кадрлар
тайёрлаш бўлими бошлиғи,
филология фанлари доктори, доцент

УСТОЗИМ ХОЛИДА ОПА ТЎҒРИСИДА

Мактабнинг юқори синфларига қадам қўйиш билан бирга ҳаёлга қайси олийгоҳга ўқишга кириш, ҳужжат топширишдек ўй-ҳаёллар ўқувчини қамраб оларкан. Мени ҳам худди шу пайтлар фикрлар чулғаб, мактабдан сўнг қайси олий таълим ташкилотига ўқишга кирсаммикан, деган ҳаёллар қийнаётган эди. Ўзимга қолсам, севган касбим – врач бўлиш иштиёқи бор эди. Бунга шу соҳани севганимданми, нима туртки бўлганини аниқ билмайман, топширмоқчи бўлганман. Аммо тақдир тақозоси билан Тошкент давлат шарқшунослик институти (ҳозирда “Университет” мақоми берилган) қошидаги академик лицейига ўқишга кирдим. Уч йил лицейда мактабда ўқиган тилим – урду тилини ўқишни давом эттирдим. Лицейдан сўнг институтга ҳужжат топшириб, талаба бўлдим. Гуруҳда 5 нафар талаба эдик. Бундай шароитда талаба ва ўқитувчилар кўпроқ мулоқотда бўладилар. Репетиторга боргандек дарс ўтиларди. Биринчи кунлардан бизга асосий шарқ тилимиз бўлган форс тилини ўргата бошлашди. Ушбу фандан бизга икки Устоз – Холида опа ва Феруза опалар дарс беришарди. Холида опа асосий устоз бўлганлари учун улар бизга кўпроқ ғамхўрлик қилардилар. Билишимча биз ўша пайт ўз таълим йўналишимизда биринчилардан бўлганимиз учун Холида опага ишониб топширишга экан. Устоз Холида опа қўлларида уч курсни тамомладик. 4-курсда, яъни 2008-йилда бизни алоҳида кафедра қилиб, “Мумтоз филология” деб номладилар. Шунданми, аниқ билмайман, бизга Холида опа ўрниларига бошқа устозлар кира бошлади. Лекин аниқ айта оламанки, шу уч курс давомида олган билимларимиз асосий форс тили бўйича билимларимиз бўлиб қолди. Эсимда,

2-курсга ўтганимизда бизга ҳали магистратурада ўқийдиган устоз – Даврон ака Каримовни амалий дарслар учун Холида опа таклиф қилдилар. Бу ҳам бежизга эмас. Бизнинг тил бўйича билимимиз пишиқ-пухта бўлиши, оғзаки нутқимиз ўсиши учун қилинган. Бунинг сабаби Холида опа дарий тили бўйича мутахассис эдилар. Шундай бўлса-да, бизга форс тили грамматикаси бўйича билим бердилар. Улардан жуда миннатдорман.

Дарс бериш асносида бизларга тарбия ҳам бердилар. Таълимда таълим тарбия билан бирга берилади. Бу чин маънодаги олий таълимдаги таълим+тарбия бўлган бизлар учун.

Тошкент давлат Шарқшунослик университетида ўқиганимдан жуда ҳам бахтлиман. Университет менга жуда ҳам кўп билим, шу билан бирга тарбия ҳам берган. Дунёқарашнинг кенг бўлиши, келажакда ўз йўлимни топишимга туртки бўлди. Албатта, бу йўлда бизга билим берган устозларимизнинг ўрни катта. Айниқса, 3-йил давомида бизга ҳар куни дарсга кирган қадрли устоз – Холида опанинг ўрни бўлакча.

Улардан ҳақиқий устоз қандай бўлиши кераклиги, дарсни қандай тартибда ўтиш, нималарга эътибор қаратишдек ҳозирда керак бўлаётган билимларни олдим. Ҳозир ҳам уларга амал қилиб келяпман.

Мана бугун ҳурматли устозимиз филология фанлари доктори, профессор Холида опа Алимова қутлуғ ёшни қаршилаётган эканлар уларга сиҳат-саломатлик, бахту саодат, оилавий хотиржамлик, яна узоқ йиллар шогирдлар ардоғида юриш насиб этишини тилаб қоламан. Юзингиздан ҳечам табассум аримасин. Илм йўлидаги меҳнатларингиз роҳатини кўриб юринг. Шогирдларингиз сафи кўпаяверсин. Нимаики эзгу тилакларингиз бўлса, барчаси амалга ошсин!

Lola SULTANOVA,
TDSHU Xitoyshunoslik oliy maktabi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SHARQ AYOLI NAMUNASI: ALIMOVA XOLIDA ZIKRILLAYEVNA TIMSOLIDA ILM, MATONAT VA FIDOYILIK

Sharq ayoli qadimdan nafaqat oilaning, balki jamiyatning ma’naviy ustuni sifatida e’zozlab kelingan. Uning donoligi, sabr-toqati, ilmga chanqoqligi va fidoyiligi har qanday davrda yuksak qadrlangan fazilatlar sirasiga kiradi. Ana shunday yuksak fazilatlarni o‘zida mujassam etgan zamonaviy olima sifatida Alimova Xolida Zikrillaevnaning hayoti va faoliyati alohida e’tiborga loyiqdir.

1966 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan Xolida Alimova ilm yo‘lini tanlab, butun umrini sharqshunoslik va tilshunoslik rivojiga bag‘ishladi. U 1988 yilda Toshkent davlat universitetining sharq fakultetini tamomlab, o‘sha yildan boshlab ilmiy-pedagogik faoliyatini boshladi. Oradan yillar o‘tib, u oddiy o‘qituvchilikdan professorlik darajasigacha ko‘tarildi. Bu esa uning mehnatsevarligi, izlanishdan to‘xtamasligi va o‘z kasbiga sadoqatining yorqin namunasidir.

Olimaning ilmiy faoliyati dariy va fors tilshunosligining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan. U tilning nafaqat nazariy jihatlarini, balki uning jamiyatdagi o‘rni, rivojlanish jarayonlari va siyosiy-ijtimoiy ahamiyatini ham chuqur o‘rganib kelmoqda. 100 ga yaqin ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlar, jumladan monografiyalar, darsliklar va maqolalar muallifi sifatida u nafaqat ilm-fan, balki ta’lim tizimiga ham katta hissa qo‘shdi.

Sharq ayolining yana bir muhim jihati – ustozlikdir. Xolida Alimova o‘nlab bakalavr va magistrlarni, shuningdek, ilmiy darajaga ega bo‘lgan tadqiqotchilarni tayyorladi. Uning shogirdlari bugungi kunda turli ilmiy va ta’lim muassasalarida

samarali faoliyat yuritmoqda. Bu esa ustozning haqiqiy merosi – bilim va tarbiya ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

U nafaqat ilmiy sohada, balki xalqaro hamkorlik va madaniy aloqalarni rivojlantirishda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi do‘stlik, madaniy va ilmiy aloqalarni mustahkamlash yo‘lidagi xizmatlari tahsinga sazovor. Bu faoliyat Sharq ayoliga xos bo‘lgan bag‘rikenglik, tinchliksevarlik va insonparvarlik fazilatlarini yaqqol namoyon etadi.

Xolida Alimovaning shaxsiy fazilatlari – kamtarlik, samimiylik, mehnatsevarlik va kasbiga sadoqat uni jamoatchilik orasida yanada hurmatli qiladi. U o‘z faoliyati bilan yosh avlodga nafaqat ilm olish, balki Vatanga xizmat qilish, halollik va fidoyilik yo‘lida yashash zarurligini ham o‘rgatib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Alimova Xolida Zikrillaevna zamonaviy Sharq ayolining yorqin timsolidir. U ilmda yetuk, hayotda faol, jamiyatda foydali va insoniy fazilatlari bilan ibrat bo‘la oladigan shaxsdir. Bunday ayollar bor ekan, jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan ravnaqi va ma’naviy yuksalish bardavom bo‘lishi shubhasiz.

Шукрулла ЗИКРИЛЛО ЎҒЛИ,
MChJ "HIGH SPEED LOGISTICS"
компанияси менежери, эроншунос

ОПА ТИМСОЛИДА УСТОЗ

Мен, Шукрулла Зикрилло ўғли, Холида опам борлигидан жуда ҳам хурсандман. Бу хурсандчилик фақат жигарлик муносабатидан эмас, балки ҳар бир инсон учун зарур бўлган дўстлик ва устозлик меҳри билан боғликдир. Қувонарлиси, бу муносабатлар бугунгача давом этиб келмоқда.

Оиламизда уч фарзанд бўлганмиз. Ростини айтсам, болаликдаги шўхликданми, ўқишга эътиборсизроқ бўлганим учун онамлар (Оллоҳ раҳмат қилсин!) жон куйдириб, менга “ўқишинг керак”, деб танбеҳ берар эдилар. Яхшиям ота-онам бор экан, ўқиб олийгоҳга кирдим.

Олийгоҳда ўқишимда эса Холида опамнинг ўрни алоҳида бўлди. Тушунмаган мавзуларим бўлса, доим мурожаат қиладиган Устозим бор эди − ва ҳозир ҳам бор. Шу жиҳатдан ўзимни омадли деб биламан.

Талабалик давримдаги бир кулгили ҳолат ҳали ҳам ёдимда. Айтиб ўтганимдек, мен учун дарслар бироз қийин кечарди. Бахтимга, Холида опам келин бўлиб тушган уй икки бекат нарида бўлиб, ўқиш бошида деярли кун ора у ерга бориб, дарс қилар эдим. Ўзбек келинлари зиммасидаги уй юмушлари, қайнота-қайнона ва оиланинг бошқа ташвишлари, айниқса, ўша вақтлар жуда кўп бўлишига қарамай, Холида опам ошхонада кечки овқат тайёрлаш пайтидан унумли фойдаланиб, тушунмаганларимни сабр билан тушунтириб берар эдилар.

Ўша даврдан яна бир кулгили воқеа ҳали ҳам ёдимда. Бир куни дарсда уй вазифаси юзасидан жавоб бераётганимда, муаллимамиз Севара опа кулиб: “Опангиз билан дарс қилдингизми?” деб сўраган эдилар. Сабаби, ўша

куни диққатсизлик қилиб, форсча сўз ўрнига дарийча ишлатиб юборган эканман (Холида опам афғон бўлимини тугатганлар, мен эса эрон бўлимида ўқирдим. Ўша вақт эрон ва афғон бўлимлари алоҳида эди).

Ота-она учун барча фарзанд бирдек азиздир. Аммо ҳар бир фарзанднинг оиладаги ўрни ўзига хос бўлади. Ота-онамиз Холида опамни гўзал хулқи, ширинсўзлиги, жонкуярлиги ва илму фасоҳати учун алоҳида қадрлашарди. Биз эса буни тўғри тушуниб, қалбимиздан самимона қабул қилганмиз. Раҳматли отамиз ҳазил аралаш шундай дер эдилар: “Сизларнинг жойингиз алмашиб қолган: сен қиз бўлиб туғилишинг, Холида эса ўғил бўлиши керак эди”. Бу гапларда ҳам ҳазил, ҳам ҳақиқат бор эди.

Юқорида айтиб ўтганимдек, ўзбекчиликда, айниқса, ўша даврларда аёлларга осон бўлмаган − оила, рўзғор, масъулият... . Шу билан бирга илм қилиш катта сабр талаб қиларди. Бугун эса фахр билан айта оламан: Холида опам ана шу машаққатлардан ўтиб, отамизнинг муносиб давомчиси бўлиб етишдилар. Шундай опам борлиги − менинг энг катта бахтим.

Nargiza SHOALIYEVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

MO‘TABAR AYOL VA SHARQSHUNOS OLIMA SIYMOSI

O‘zbek sharqshunoslik maktabi ko‘p asrlik ilmiy an’analarga ega bo‘lib, unda yetuk olimlar avlodi shakllangan. Ana shunday ilmiy maktab vakillaridan biri, filologiya fanlari doktori, professor **Xolida Zikrillayevna Alimova** hisoblanadi. Ularning ilmiy va pedagogik faoliyati o‘zbek sharqshunosligi, xususan, dariy va fors tilshunosligi hamda afg‘onshunoslik sohalarining rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Xolidaopa Alimova o‘z ilmiy izlanishlarini asosan **dariy tilshunosligi**, **fors tilshunosligi** hamda **afg‘onshunoslik** yo‘nalishlarida olib bordi. Ular tilshunoslikning murakkab va dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan leksik-semantik tizim, so‘z yasalishi hamda til birliklarining struktur xususiyatlarini chuqur o‘rgandi. 2005-yilda “Dariy tilida somatizmlarning struktur va semantik tasnifi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Mazkur tadqiqot dariy tilidagi inson tana a’zolari bilan bog‘liq leksik birliklarning tizimli tahliliga bag‘ishlanib, ushbu sohada muhim ilmiy natijalarni taqdim etdilar.

Keyinchalik olima opamiz ilmiy izlanishlarini yanada kengaytirib, dariy tilining so‘z yasalish tizimini chuqur o‘rganishga kirishdilar. Ularning 2019-yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasilari – “Dariy tilida so‘z yasalishining ichki lingvistik usullari” – ushbu tilning morfologik va leksik imkoniyatlarini tizimli tahlil qilgan muhim ilmiy ish sifatida e’tirof etildi. Bu tadqiqot nafaqat dariy tilshunosligi, balki

umumiy sharq tilshunosligi uchun ham muhim ilmiy xulosalarni taqdim etdi.

Professor Xolidaopa Alimova ilmiy izlanishlari bilan bir qatorda samarali pedagogik faoliyati bilan ham tanilganlar. U ko‘p yillar davomida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida talabalarga sharq tillari va tilshunoslik fanlaridan saboq berib kelmoqdalar. Ularning ma’ruzalari ilmiy chuqurligi, aniq metodologik yondashuvi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ko‘plab yosh tadqiqotchilar aynan uning rahbarligi va maslahatlari asosida ilmiy faoliyatga kirib kelgan. Shu jumladan kamina ham Xolidaopaning beminnat maslahatlari bilan ilmiy tadqiqotlar, ilmiy ishlar yozish metodlarini o`rganganman. Ularning onadek mehribonliklari, g`amxo‘rliklari har bir shogirdlari qalbida abadiy qolishiga shubham yo‘q.

Olima ilmiy merosining yana bir muhim jihati – uning **ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlari**dir. Xolida Alimova 80 dan ortiq ilmiy maqola, darslik va o‘quv qo‘llanmalar muallifi hisoblanadi. Ushbu asarlar sharq tillari filologiyasi, xususan dariy tilini o‘rganish va o‘qitishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning ayrimlari oliy ta’lim muassasalari uchun asosiy o‘quv adabiyotlari sifatida qo‘llanilmoqda.

Professor Xolida Alimova ilmiy va pedagogik faoliyati bilan bir qatorda xalqaro ilmiy aloqalarni rivojlantirishda ham faol ishtirok etib kelmoqdalar. Ular turli ilmiy konferensiyalar, seminarlar va akademik hamkorlik loyihalarida qatnashib, O‘zbekiston sharqshunoslik maktabining ilmiy salohiyatini xalqaro miqyosda namoyon etishga hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, u O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi madaniy hamda ilmiy aloqalarni mustahkamlash yo‘lida ham muhim tashabbuslarni ilgari surganlar.

Bugungi kunda professor Xolida Alimova nafaqat yetuk tilshunos olima, balki ko‘plab shogirdlar tarbiyalagan tajribali pedagog sifatida ham e’tirof etiladi. Uning ilmiy izlanishlari, pedagogik mahorati va ilmga sadoqati yosh tadqiqotchilar uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Olima hayotining 60 yillik yubileyi munosabati bilan uning sharqshunoslik fani rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini alohida e’tirof etish joiz. Professor Xolida Alimovaning ilmiy merosi, shubhasiz, kelajak avlod tadqiqotchilari uchun muhim manba va ilhom manbai bo‘lib qoladi.

Xolidaopa meni ko`z oldimda mehribon opa, jonkuyar ustoz, qalbi daryo samimiy inson, fazlu ilm fidoyisi sifatida gavdalanganlar, Allohim barcha ezgu ishlarini ziyoda va manfaatli qilsin! Yoshlar tarbiyasidek sharafli ishlarida aslo charchamasinlar!

Saidbek BOLTABAYEV,
Karabuk universiteti dotsenti, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Turkiya

MUSHFIQ USTOZ HAQIDA QAYSAR SHOGIRDINING XOTIRALARI

Men 2005-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik institutining mumtoz filologiya yo‘nalishiga qabul qilinganman. Qo‘shimcha qabul orqali kirganim sababli o‘qishga boshqa kursdoshlarimga qaraganda biroz kechroq boshlagandim. Aslida sentabr oyidan darslar boshlangan bo‘lsa-da, men deyarli oktabr oxirlaridan darslarga kirishgandim. Men mumtoz fors yo‘nalishi talabasi edim. Bu yo‘nalishda o‘qiyotgan talabalar soni oltita-yettita atrofida edi. Ular sentabrdan boshlab darslarni boshlagani, ko‘pchiligi sharq tillariga chuqurlashgan litseylardan kelgani sababli fors tilidan ham, arab alifbosidan ham ancha xabardor edi. Hatto bu bilimga ega bo‘lmaganlar ham allaqachon arab yozuvini o‘rganib, fors tilida ma’lum darajada yo‘l bosib qo‘yishgan edi.

Men esa o‘sha paytda arab alifbosini yaxshi bilmasdim. Ba’zi harflardan tashqari bu yozuv haqida yetarli ma’lumotim yo‘q edi. Shu sababli ilk fors tili darsida ancha qiynaldim. Darsda aytilayotgan mavzularni tushunmasdim, ustozning gaplari men uchun begona edi.

Bizga o‘sha paytda ustoz Xolida Alimova dars berar edi. Adashmasam, u kishi fors tilidagi ayrim predloglarni tushuntirayotgan edi. Ustoz mening qiynalayotganimni payqab, bir necha bor:

“Siz kechroq o‘qishga kirishdingiz. Qiynalib qolmaysizmi? Yetkazib ola olasizmi? Avvalo alifboni yaxshilab o‘rganib oling”, – deb maslahat berdilar. Men qaysi kitob orqali boshlashim kerakligini so‘radim. Ustoz menga Malik Abdusamatovning “Fors tili” kitobini tavsiya qildilar. Kitobni topib sotib oldim. O‘sha kechasi deyarli butun tun davomida

alifbo ustida ishladim: yozdim, mashq qildim. Natijada 1 kechadayoq arab alifbosini ancha o‘rganib olgandim.

Lekin ertasi kuni darsga kelganimda ham kursdoshlarimga qaraganda bilim darajam hali ancha past edi. Bu tabiiy hol edi – bir kunda hammasini o‘zlashtirib bo‘lmasdi. Ustoz yana mendan:

“Yetkazib keta olasizmi? Agar qiyin bo‘lsa, boshqa yo‘nalishni ham o‘ylab ko‘rishingiz mumkin”, – deb aytdilar. Aynan shu so‘zlar menga kuchli ta’sir qildi. Men o‘zimga: “Qanday bo‘lmasin, bu yo‘nalishda qolib, albatta yetkazib olaman, o‘zib ketaman”, deb qaror qildim. To‘g‘risi, undan oldin turk tili yo‘nalishiga o‘tib ketish haqida ham o‘ylagan edim. Ammo ustozning shu gaplaridan keyin fors tili yo‘nalishida qolishga qat’iy qaror qildim. Oradan vaqt o‘tdi. Fors tilini asta-sekin yaxshi o‘zlashtira boshladim. Turli ustozlar dars berishdi va men bu tilga tobora ko‘proq qiziqa boshladim. Bir kuni ustoz hazil aralash: “Baribir aytganni qiladigan bola ekansiz-da”, – deb qo‘ydilar.

Keyinchalik institutimizda talabalar ilmiy anjumanlari o‘tkazila boshladi. Bu anjumanlarda bakalavr talabalarining ilmiy maqolalari tinglanardi. Adashmasam, o‘sha paytda men uchinchi kursda edim. Ustozimiz menga ham shu anjumanga maqola tayyorlashni tavsiya qildilar. Ammo men fors tilida qanday mavzuda yozishni bilmay qiynaldim. Turli mavzularni o‘ylab ko‘rdim, lekin ilmiy asosga ega yaxshi mavzu topa olmadim.

Mumtoz fors yo‘nalishida o‘qiganimiz sababli bizda Navoiyshunoslik, aruz, mumtoz adabiyot kabi fanlar ham bor edi. Shu darslardan birida ustoz Qosimjon Sodiqov bilan birga Navoiy hazratlarining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini o‘qigan edik. Turkiy tilni ham, fors tilini ham bilish bu asarni tushunishda juda muhim kalit bo‘lib xizmat qilardi. Bakalavr talabasi sifatida Navoiy asarlarini to‘liq tushunish oson emas edi. Men bu borada qiynalardim. Ammo “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari menga juda yoqdi. Undagi ilmiy mulohazalar meni qiziqtirib qo‘ygandi. Shundan keyin daftarimning orqa

sahifalariga turkiy va forsiy so‘zlarning qiyosiga oid qaydlar yozib bora boshladim. Keyinchalik bu qaydlarni biroz kengaytirishga harakat qildim. Navoiy davrida turkiy va forsiy tillar o‘rtasidagi farqlar, shuningdek turkiy tilning she’riyatdagi imkoniyatlari haqida ayrim misollar to‘pladim. Aslida men buni ilmiy maqola yozish niyatida qilmagan edim. Bu faqat shaxsiy qiziqishim edi.

Bir kuni ustoz Xolida Alimova mendan: “Talabalar anjumaniga maqolangiz tayyormi?” – deb so‘radilar. Men esa: “Ustoz, hali tayyor emas. Bir nechta mavzularni qoralab qo‘yganman”, – deb yozganlarimni ko‘rsatdim. Ustoz ularni ko‘rib chiqib, biroz o‘ylanib qoldilar. Keyin daftarimning orqa sahifalaridagi “Muhokamat ul-lug‘atayn”ga oid qaydlarimga ko‘zlari tushdi. Turkiy va forsiy tillarning lug‘at boyligi haqidagi qiyosiy yozuvlarni ko‘rib, shunday dedilar:

“Mana shu mavzuda davom eting. Bu mavzu menga yoqdi. Siz buni qila olasiz”. Men esa biroz ikkilanib: “Ustoz, bu juda kichik mavzu emasmi? Navoiy aytgan fikrlarni takrorlashdan boshqa narsa chiqmasa-chi”, – dedim. Shunda ustoz juda muhim maslahat berdilar: “Ko‘proq misollar toping. Ularni tahlil qiling va tasnif qiling. Shunda maqolangiz ilmiyroq bo‘ladi”.

Bu gap ustozdan olgan eng muhim saboqlarimdan biri bo‘lib qoldi. Haqiqatan ham ilmiy maqolada misollar bo‘lishi, ular tahlil qilinishi va ma’lum tartibda tasnif qilinishi kerakligini o‘sha paytda tushunib yetgan edim. Keyinchalik men ilmiy faoliyatimni fors tilidan ko‘ra turkiy tillar yo‘nalishida davom ettirishga qaror qildim. Chunki o‘sha paytda Turkiyot kafedrasida laborant bo‘lib ishlardim. Turkologiya sohasiga qiziqishim ortib borar, ustozlar bilan suhbatlashar, ularning ilmiy ishlarini kuzatib borardim.

To‘rtinchi kursni tugatayotganimizda ustozimiz Xolida Alimova hammamiz bilan xayrlashdilar. Har birimizga iliq tilaklar bildirdilar. Menga qarab shunday deganini esimdan chiqarmayman:

“Sizda qaysarlik bor ekan. Bu xislat ilm yo‘lida sizga yutuq bo‘lishi mumkin. Siz tanlagan yo‘lingizda davom etdingiz va muvaffaqiyat qozondingiz. Kelajakda ham omad tilayman”. Keyinchalik grant orqali Turkiya Respublikasida turkologiya yo‘nalishida o‘qishni davom ettirmoqchi ekanligimni ustozga aytganimda ham juda xursand bo‘ldilar. Istanbul universitetiga qabul qilinganimni eshitib: “Qaysi sohada bo‘lsangiz ham, siz yaxshi natijalarga erisha olasiz, ishlashdan to‘xtamang”, – deb meni ruhlantirdilar.

Biz ustozga shogird bo‘lish baxtiga muyassar bo‘lganimizdan juda minnatdormiz. Alloh ularga sog‘lik-salomatlik bersin. Yangi yoshlarini muborak qilsin. Ular oila davrasida uzoq, baxtli va barakali umr kechirsinlar. Qolgan umrlari o‘tgan umrlaridan ham fayzli, mazmunli va xayrli bo‘lishini tilayman. Biz shogirdlari ustozimizning yaxshiliklarini, maslahatlarini, mushfiq onadek qilgan samimiy va mehribon yondashuvlarini hech qachon unutmaymiz.

Feruza NIZAMOVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

ILM-FAN FIDOYISI

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirishda munosib hissa qo‘shayotgan olimlar orasida ayollarimiz alohida o‘rin tutadi. Ular o‘z bilim va salohiyati, fidokorona mehnati bilan nafaqat ta’lim tizimida, balki ilmiy jamoatchilikda ham katta nufuzga ega bo‘lib kelmoqda. Ana shunday yetuk olimalardan biri - filologiya fanlari doktori, dotsent Alimova Xolida Zikrillayevnadir.

Uning ko‘p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati, ayniqsa dariy tili va eron-afg‘on filologiyasi sohasidagi tadqiqotlari milliy sharqshunoslik ilmining rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Olimaning ilmiy yo‘nalishi asosan dariy tili va uning leksikologiyasi, so‘z yasalishi, morfologiyasi kabi dolzarb masalalarni qamrab oladi. U dariy tilidagi leksik va grammatik jarayonlarni chuqur tahlil qilish orqali bu tilning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

2005-yilda u “Dariy tilida somatizmlarning struktur va semantik tasnifi” mavzusida nomzodlik dissertatsiya ishi hamda 2019-yilda “Dariy tilida so‘z yasalishining ichki lingvistik usullari” mavzusida bajarilgan doktorlik dissertatsiyalari sohadagi ilmiy izlanishlarga yangi yondashuvlarni olib kirdi.

Hayot falsafasi qiziq ekan-da. O‘zingga juda yaqin do‘st bo‘lib, har kuni bo‘lmasa ham, goh-goh ko‘rishib diydorlashib turadigan do‘sting haqida biron narsa yozib bering desa, beixtiyor boshing qotib o‘ylanib qolarkansan...

Shaxsan men uchun bugungi kunda navqiron oltmish yoshini nishonlayotgan Xolida opa Zikrillayevna shunday

insonlardan biri deb hisoblayman. Chunonchi bir necha yil farqi bilan bo‘lsa-da, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Sharq fakul’tetida o‘qib, tahsil olganmiz. Shundan keyin bir necha yillar mobaynida birgalikda Toshkent davlat sharqshunoslik institutining Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasida birga pedagogik faoliyat yuritish baxtiga musharraf bo‘lganman. Mana qariyb 30 yildirki sharqshunoslik sohasida hamkorlikda faoliyat olib borapmiz.

Xolida Zikrillayevna haqida gap ketganida, eng avvalo bu insonning kamtarligi, hokisorligi, kattami-kichikmi lavozimiyu martabasidan qat’iy nazar har qanday kishiga samimiy va hurmat-e’tibor bilan muomalada bo‘lishi, barchaga qo‘lidan kelgancha beg‘araz yordamini ayamasligini ta’kidlash zarur. Ustozning tom ma’noda insoniy fazilatlaridan yana biri o‘ziga topshirilgan har qanday vazifaga alohida fidoyilik va ma’suliyat bilan yondoshib, ushbu ishni iloji boricha ijobiy yakuniga yetkazishga intilishidir. Shuningdek, uni har qanday masalaga tartib-intizom va e’tibor bilan yondoshishini biz hammamiz ayniqsa, universitetimiz ustozlariyu talabalari juda yaxshi bilishadi va u kishidan ibrat olishga xarakat qiladi.

Fors-dariy tilining chuqur bilimdoni sifatida Xolida opa nafaqat talabalarga dars berish bilan chegaralanmasdan xorijdan kelgan yuqori martabali mehmonlar bilan hamkorlik ishlarini olib borishda ham ko‘p yillardan buyon faoliyat olib bormoqda. Ayni vaqtda yetuk olima sifatida dariy tili grammatikasi va adabiyotining turli masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalari, qo‘llanma va darsliklari kelajak yoshlari uchun ilm manbai bo‘lib xizmat qilib kelayotganini ta’kidlash lozim.

So‘zimning yakunida yosh avlodning ta’lim va tarbiyasi jarayonida unga ilm ziyosini taratib, oltmish yoshni qarshilayotgan ustozga mustahkam sihat-salomatlik, uzoq umr, ilmiy-ijodiy va o‘quv ta’lim ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilayman. Farzandlar va shogirdlaringiz kamolini ko‘rib, quvonib yurish ko‘p yillarga Sizga nasib qilsin.

Умида МАВЛЯНОВА
ТДШУ Хитойшунослик олий мактаби доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ЗАМОНАМИЗ ЗИЁЛИ АЁЛИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ!

Аёл – Яратганнинг нозик ҳилқати, табиатдаги нафис мавжудоддир. Аёл фитратан бир томондан назокат тимсоли бўлса, иккинчи томондан жамиятга энг таъсирли қудратдир. Оиладаги муҳит, фарзандлар тарбияси ва эркак кишининг матонати оиладаги аёлнинг олиб бораётган сиёсатига боғлиқ.

Холида Зикриллаевна Алимова ҳақида мақола ёзар эканман, уларни жамиятдаги бамисоли уммонга ўхшатаман. У киши ҳам она, ҳам опа, ҳам сингил, ҳам келин, ҳам меҳрибон бувижон, ҳам моҳир педагог, ҳам адолатли раҳбар, ҳам зукко олима .... ижобий сифатларининг чеки ва чегараси йўқ! Ҳар бир фаолият бор-ки, шу гўзал, латофатли, дилдор аёл ўз меҳнатлари, матонатларини аямай сарфлаб, жонкуяр шижоатлари, илиқ муҳаббатлари билан иситиб келмоқдалар.

Холида опа – зиёли аёл тимсоли сифатида жамиятнинг маънавий-маърифий асоси, оила мустаҳкамлиги ва миллат тарбиячиси ҳисобланадилар. Улар олий маълумотли, юксак маданиятли ва турли соҳаларда фаол бўлиб, жамиятда хотин-қизлар қадрини юксалтириш, оилани мустаҳкамлаш, маърифатли жамиятни қуришда кўпчилик талаба қизларга, педагог аёлларга, жумладан, менга ҳам етакчилик қилиб келмоқдалар.

Холида опа ўз фарзандларига тўғри йўл кўрсатишлари, ёт ғоялардан ҳимоя қилишлари, илм ва ҳунарга йўналтиришлари каби ишларга масъул эканликларини мен ҳис этганман. Чунки, қизлари Шаҳборахон ва ўғиллари Шаҳбозжонга хитой тилидан ўз пайтида сабоқ берганман.

Ўғил-қизларининг билим савияси, тарбияси ва ҳулқ-атворига эътибор бериш оилада долзарб масала эканлиги фарзандлари тарбиясидан шундоқ намоён бўлиб турар эди. Холида опанинг илмга ҳаррис бўлганликлари, илмий салоҳиятларининг кенглиги, пок фитрат, юксак фахм-фаросат, кучли ақл- заковатлари ўғил -қизларининг ақлан етук бўлишлари, ақлий қобилиятларининг юқори бўлишида ота- оналари билан бевосита генетик алоқаси борлиги аёндир. Холида опанинг: “Ўғлингизни ўқитсангиз, бир кишини ўқитган бўласиз, аммо қизингни ўқитсангиз, бутун бир жамият тарбия топади! Қизингизни албатта ўқитинг! Чунки, у келажакда фарзанд тарбиялайди!”, – деган насиҳатлари қуломиз тагида доим жаранглайди. Дарҳақиқат, аёл кишининг илм олиши, турли соҳада малакали таълимга эга бўлишининг аҳамияти, муҳимлик даражаси бевосита жамиятнинг ҳозирги ва келгусидаги ривожи билан боғлиқ. Яъни, аёл қанчалик илм ва тарбияга эга бўлса, фарзандларини ҳам шундай тарбия қила олади. Тарбияли онадан гўзал андаза олган, одоб-ахлоқи жойида ва илмга чанқоқ фарзандлар жамиятга манфаат келтирадиган бўлиб етишади. Бундай тарбияли ва илмли жамиятнинг эса келажаги, шубҳасиз, буюкдир! Холида опа оилада маънавий муҳитни яратиб, зукко фарзандларни улғайтириб, уларни жамият ривожига ҳисса қўшган оқила Она саналадилар!

Оилада илмли ва тарбияли аёлнинг бўлиши нафақат фарзандлар, балки оиланинг бошқа аъзолари, хоссатан, жуфти учун ҳам катта аҳамиятга эга. Ҳаётнинг турли синовларида ақл-идроки билан оиласини сақлаб қолишда ҳамда қариндош уруғ билан муносабатлардаги мувозанат ва меъёрни ушлаб туришда асосий маъсулият аёлнинг зиммасига тушади. Демак, шубҳасиз Холида опанинг ибратли оиласининг бардавомлилиги бевосита уларнинг сабрли матонат мевасидир!

Ўз соҳасининг зукко билимдони бўлиши билан бир қаторда аёлнинг зиммасида суюкли ёр, меҳрибон она ва

бувижон, оқибатли жигар, ширинсўз ва чаққон келин, ораста бека бўлишдек маьсулиятни ўзида мужассам этган Холида опа ўзларининг нозик елкаларида кўтариб, уни шараф билан адо этаётганликлари, шу билан бирга, илм талаб қилишнинг фарз эканини унутмай, муттасил изланишда бўлаётганликлари таҳсинга сазовордир!

Аёл — жамият гултожи, борлиқ кўзгуси, миллат тарбиячиси. Унинг меҳр-муҳаббати навниҳолларни, эртамиз эгаларининг униб-ўсишига, камол топишига сабаб бўлади. Аёл бахтли бўлса, жамият бахтли бўлади. Хотин-қизларни эъзозлаган, қадрлаган юртнинг эса бугуни ва эртаси шубҳасиз фаровондир!

محمدرضا اصلانی
دانشیار ارشدِ مکتب عالی ایرانشناسی و افغانشناسیِ
دانشگاه دولتی شرقشناسی تاشکند

در ذکر فضیلت و مکرمت بانو خالده، استاد فرهیخته

حکایت آن روز که بندهی کمترین، پای در سرای دانشِ دانشگاه شرقشناسی تاشکند نهادم، از خاطر نرود که جهان بر من تنگ مینمود و راهها ناپیدا؛ نه آشنایی بود که دست گیرد، نه مهربانی که دل بنوازد. در آن میان، ناگاه نسیمی از لطف الهی وزیدن گرفت و سیمای بانویی پدیدار شد که طلعتش مایهی انس بود و کلامش موجب طمأنینه.ز لطف خویش مرا سوی نور رهنمون شد.

و او کسی نبود جز خانم خالده، که ذکر خیرش بر زبانها جاری و اثر مهرش در دلها باقی است.

گفتهاند که «آغاز هر کار، دشوار آید و انجامش آسان شود»؛ لیک مرا آغاز، به برکت دیدار او، آسان گشت و انجام، به دعای خیرش، امیدبخش. چه، چون نظر بر من افکند، چنان نگریست که گویی سالهاست مرا میشناسد و از احوال درونم آگاه است. لبخندی بر لب داشت که نه از سر عادت، بل از صفای باطن بود، و سخنی بر زبان راند که نه از بهر رسم، بلکه از سر محبت.

استادان بسیارند که علم آموزند، اما اندکاند آنان که دل بپرورند. بانو خالده از آن طایفهی کمیاب است که علم را با حِلم درآمیزد و دانش را به زیور دانایی بیاراید. در حضرت او، درس نه الفاظی خشک است و نه معانی بیروح، بلکه هر سخن، چون آبی زلال است که تشنگان حقیقت را سیراب سازد، و هر نکته، چون چراغی فروزان که راه جویندگان را روشن کند.

یکی را پرسیدند که «معلم نیکو کیست؟» گفت: «آنکه پیش از آنکه زبان گشاید، دل بگشاید.» و این سخن، در وصف بانو خالده نیکو نشیند؛ که پیش از تعلیم، مهر ورزد و پیش از تذکر، حرمت نهد. شاگردان را نه به چشم عدد، بلکه به دیدهی انسان نگرد، و هر یک را چنان دارد که گویی یگانهی عالم است.

در روزگاری که شتاب، مجال تأمل ربوده و سود، جای صفا گرفته، وجود چنین کسان، نعمتی است عظیم و موهبتی است کریم. او نهتنها معلم است، بلکه راهنماست؛ نهفقط آموزگار، بلکه پرورندهی جانهاست. کلامش نرم و رفتارَش سنجیده، و خُلقش چنان که دل از او نرمد.
من را از آن دیدار نخستین، تحولی در خاطر پدید آمد که تا امروز اثر آن باقی است؛ که دانستم علم اگر با مِهر نیامیزد، بار گران است، و دانش اگر به اخلاق آراسته نشود، راه به جایی نبرد. این نکته را نه در کتاب خواندم، بل در رفتار او دیدم و از سلوک او آموختم. و نه من تنها از خوانِ دانشِ او بهرهمندم، که همسر و دخترم نیز او را نیک میشناسند و با دلِ آگاه، در ستایشِ بزرگواری و فضلش همداستان اند.
اکنون که روزگار، دوری دیگر گرفته و موسم میلاد آن بانو فرارسیده است، روا بود که این سطور به رسم یادگار نگاشته آید؛ باشد که اندکی از بسیارِ حقشناسی را ادا کرده باشیم. گرچه قلم را یارای آن نیست که قدر چنان بزرگواری به تمامی بازگوید، اما «ما لا یدرک کلّه، لا یترک کلّه».
بانوی بزرگوار، ای که نامت با مهربانی قرین است و یادت با دانایی عجین، زادروزت مبارک باد. خداوندگارت در صحت و عافیت بدارد و بر عزّت و منزلتت بیفزاید، و سایهی مهرت را از سر طالبان دانش و جویندگان حقیقت کم نکند.
دعا آن است که عمرت دراز باد و ایامت به کام،که وجودت نعمتی است بر اهل علم و آرامی است بر دلِ ناآرام.

ای نورِ خِرد، شمعِ شبافروزِ زمانه میلادِ تو فصلیست پُر از شور و ترانه
در مکتبِ جان، درسِ وفا از تو گرفتیم پاینده بمانی که تویی فخرِ زمانه

Nilufar XODJAYEVA,
Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

SHARQSHUNOS OLIMA VA IBRATLI USTOZ SIYMOSI

Ustoz – bu nafaqat ilm beruvchi, balki qalblarga yo‘l topuvchi, insonni tarbiyalovchi, hayot yo‘lida to‘g‘ri yo‘nalish ko‘rsatuvchi ulug‘ zotdir. Inson umrida ko‘plab bilimlar oladi, turli insonlarni uchratadi, ammo haqiqiy ustozning o‘rni va ta’siri qalbda umrbod muhrlanib qoladi. Ana shunday fidoyi, ilmga sadoqatli, shogird qalbiga yo‘l topa olgan ustozlardan biri – professor Xolida Zikrillayevna Alimovadir.

Xolida Zikrillayevna nafaqat o‘z sohasining yetuk mutaxassisi, balki yuksak ma’naviyat, nozik did, ilmiy salohiyat va samimiyatni o‘zida mujassam etgan ustozdir. Ustozning ilmiy faoliyati, pedagogik mahorati, talabchanligi va ayni paytda mehribonligi ko‘plab shogirdlar qalbida chuqur iz qoldirgan. U kishining har bir ma’ruzasi, har bir nasihati, har bir ilmiy mulohazasi biz uchun katta maktab, hayot sabog‘i bo‘lib xizmat qilgan.

Ustozning eng katta fazilatlaridan biri – ilmga bo‘lgan cheksiz muhabbatidir. Ilmni sevgan, uni qadrlagan va uni boshqalarga sidqidildan ulasha olgan insonlargina chin ma’noda ustoz degan sharafli nomga munosib bo‘ladilar. Xolida Zikrillayevna ana shunday ustozdir. U kishining ilmiy izlanishlari, sharqshunoslik ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi, shogirdlar tarbiyasidagi o‘rni beqiyosdir.

Professor Alimova Xolida Zikrillayevna ustoz sifatida nafaqat bilim berdilar, balki bizga sabr, matonat, ilmga sadoqat, ustozga hurmat va kasbga fidoyilikni ham o‘rgatdilar. U kishining har bir so‘zi, har bir pand-nasihati hayotiy tajriba va chuqur hikmat bilan sug‘orilgan edi. Ustozdan olgan bilim va

tarbiya bugun ham hayot yo‘limizda bizga hamroh bo‘lib kelmoqda.

Ustozning 60 yillik tavallud ayyomi munosabati bilan ularga chuqur hurmat va ezgu tilaklarimizni izhor etamiz. Ustozimizga mustahkam sog‘lik, uzoq umr, oilaviy xotirjamlik, qalb quvonchi va shogirdlar ardog‘ida yuradigan baxtli umr tilaymiz. Ilm yo‘lidagi fidokorona mehnatlari, sharqshunoslik rivojiga qo‘shgan ulkan hissalari va ustozlik maqomiga munosib hayot yo‘llari doimo e’zozda bo‘lsin.

Aziz ustoz, Sizga bo‘lgan hurmat va ehtiromimiz cheksiz. Siz biz uchun nafaqat ustoz, balki ma’naviy tayanch, ilm va ma’rifat yo‘lidagi sobit turgan fidoyi ziyoli, chinakam ibrat hamda ziyoli inson timsolisiz.

Muhabbat XABIBOVA,
TDSHU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik
oliy maktabi katta o‘qituvchisi

HAYOT YO‘LLARIMDAGI USTOZIM

Hayot yo‘llarimizda ba’zan shunday insonlar uchraydiki, ular nafaqat kasbiy faoliyatimizga, balki butun hayotimizga chuqur mazmun va yo‘nalish bag‘ishlaydi. Men uchun ana shunday bebaho insonlardan biri – ustozimiz Alimova Xolida opa hisoblanadilar.

Alimova Xolida ustozimni kafedraga ishga qabul qilingan davrimdan beri taniyman. O‘qituvchilik faoliyatimning boshlanishida menga ishonch bildirgan, doimo qo‘llab-quvvatlagan, men uchun kuyinib harakat qilgan eng yaqin insonim – ustozimdir. Ustoz degan tushuncha shunday ekanki, u sizga albatta bir fandan dars berishi shart emas. Asosiysi, u sizning shakllanishingiz uchun yetarlicha saboq bera oladigan inson bo‘lishidir.

Men u kishini kafedraga ishga qabul qilingan ilk davrlarimdanoq yaqindan tanidim. O‘qituvchilik faoliyatimning boshlanishida aynan ustozimning menga bildirgan ishonchi, bergan dalda va ko‘rsatgan e’tiborlari meni ruhlantirib, kelajak sari dadil qadam tashlashimga turtki bo‘ldi. Har bir inson hayotida ishonch eng katta kuchlardan biri sanaladi. Xolida opa menga ana shu ishonchni hadya etgan insondirlar. Ustozimning eng e’tiborga molik jihatlaridan biri – ularning insoniy fazilatlari, samimiyliklari va mehribonliklaridir. Ular har bir shogirdiga birdek iliq munosabatda bo‘ladilar. Qachon savol bilan murojaat qilsak, hech qachon bee’tibor qoldirmaydilar, aksincha, “labbay” deb, butun e’tiborlarini bizga qaratadilar. Bu esa biz, shogirdlar uchun nafaqat quvonch, balki katta dalda hamdir, shuningdek, hech qachon o‘z maslahatlarini ayamasliklari bilan ko‘nglimizdan yaqin joy olganlar. Ustozimizni yaqin olib doimo Xolida opa deb murojaat qilamiz, doimo o‘zimizni qiynayotgan

xoh ilmiy masalalarda, xoh ijtimoiy hayotimizdagi ba’zi bir masalalarda murojaat qilsak, doimo o‘zlarining maslahatlarini, vaqtlarini ayamay javob beradilar, doimo xushmuomalalik bilan gapirishlari, fikrlarining teranligi biz shogirdlarni doimo o‘ziga jalb etadi. |U kishidan olgan eng yaxshi sabog‘im ustozim nafaqat bilim, balki yaxshi inson bo‘lishi, doimo yordamga tayyor turishni va doimo har qanday vaziyatda xushmuomalalik bilan javob qaytarishni o‘rgatdilar. Xolida opaning nutqlari har doim xushmuomalalik bilan sug‘orilgan bo‘lib, ularning har bir so‘zida ma’no va teranlik mujassam. Ular nafaqat ilmiy bilim beradilar, balki o‘zlarining muomala madaniyatlari, sabr-toqatlari va insoniyliklari bilan bizga ibrat bo‘ladilar. Har bir suhbat, har bir maslahat biz uchun katta maktabdir. Ustozim har doim yordamga tayyor turadilar. Ularning bu fazilatlari bizni ham shunday bo‘lishga undaydi. Chunki insonning asl qadr-qimmati uning boshqalarga qanchalik foydasi tegayotganida namoyon bo‘ladi. Xolida opa ana shu haqiqatni o‘z hayotlari bilan isbotlab kelmoqdalar.

Bugun men o‘zimning har bir kichik yutug‘imda ustozimning hissasi borligini chuqur his qilaman. Ularning bergan bilimlari, ko‘rsatgan yo‘llari va aytgan nasihatlari men uchun hayotiy dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Har bir muvaffaqiyatim ortida ustozimizning mehnatlari, sabri va mehrlari mujassam.

Hurmatli ustozimiz Xolida opa! Sizga bo‘lgan cheksiz minnatdorchiligimni so‘z bilan to‘liq ifoda etish qiyin. Doimo sog‘-salomat bo‘ling, biz shogirdlaringizni bundan buyon ham o‘z mehringiz va bilimlaringiz bilan qo‘llab-quvvatlab yuring. Doimo ta’zimdaman, aziz ustozim!

Нозима ХОДИЕВА,
ТДШУ Эроншунослик ва афғоншунослик
олий мактаби катта ўқитувчиси

ФИДОЙИ, БАҒРИКЕНГ ВА МЕҲРИБОН УСТОЗ – АЛИМОВА ХОЛИДА ЗИКРИЛЛАЕВНА

Ҳар бир инсон ҳаётида йўл кўрсатувчи, руҳий қўллаб-қувватловчи ва илм манбаи бўлган устозларнинг ўрни беқиёсдир. Ана шундай инсонлардан бири – Алимова Холида Зикриллаевна. У киши нафақат ўз соҳасининг етук мутахассиси, олима балки юраги кенг, меҳрибон ва фидойи инсон сифатида ҳам атрофдагиларнинг ҳурматини қозонган инсондирлар.

Устознинг энг асосий фазилатларидан бири – бу ўз касбига бўлган садоқатидир. У киши йиллар давомида ўз шогирдларига билим бериш билан бирга, уларни ҳаётга тайёрлаш, тўғри йўл кўрсатишни ўз бурчи деб билади. Ҳар бир шогирди ва ҳамкасбига алоҳида эътибор қаратиши, уларнинг қобилиятини очишга ҳаракат қилиши устознинг юксак педагогик маҳоратидан далолат беради.

Алимова Холида Зикриллаевна бағрикенглиги, меҳрибонлиги ва муомила маданиятлари билан ҳам ажралиб турадилар. Олима ўз соҳасининг етук мутахассиси бўлишига қарамай заррача кибри йуқ, самимий инсон. Атрофидагиларга доимо ёрдам беришга тайёр, инсонларнинг дардига бефарқ эмас. Ён атрофдагиларга фақат илм эмас, балки инсонийлик, меҳр-оқибат, сабр-тоқат каби фазилатларни ҳам сингдириб боради. Шахсан ўзим у кишидан кўп яхши фазилатларни ўрганганман.

Бундай устозлар жамиятимиз учун катта бойликдир. Чунки улар нафақат келажак авлодни тарбиялайди, балки ён атрофдагиларни ҳам тарбиялаб, уларга тўғри йўл кўрсатади ва ҳаётда муваффақиятга эришишларига замин яратади.

Хулоса қилиб айтганда, Алимова Холида Зикриллаевна – фидойи, бағрикенг ва самимий устоз сифатида кўплаб инсонларнинг қалбида чуқур из қолдирган инсонлардан биридир. Бундай устозлар ҳар доим ҳурмат ва эҳтиромга лойиқдир. Умрингиз узоқ, ризқингиз кенг бўлсин, ҳурматли Устоз!

Даврон КАРИМОВ,
Nokhost Transport Solution
компанияси раҳбари, эроншунос

ХОЛИДА АЛИМОВА – ИЛМ ВА ИНСОНИЙЛИК НАМУНАСИ

Устоз Холида опамлар билан Эрон сафари баҳонасида танишганман. 2006 йил магистратура 1-курсида ўқир эдим. Бакалаврда Холида опамларни кўп кўрар эдим. Лекин яқиндан таниш бўлмаганмиз. 2006 йил август ойида Эронга 1 ойлик ўқишга борадиган бўлдик. Холида опа, Маҳмуд ака, Нодир Нуриддинов, Нодир Раҳматуллаев ва мен. Виза ва унга керакли ҳужжатларни тайёрлаш баҳонасида Холида опамларнинг турмуш ўртоқлари Камол ака билан ҳам танишдим. Элчихона ёки қайсидир идорага боришимиз керак бўлса, Холида опамлар «фалон метродан чиқиб туринг, Камол акамлар билан мошинада борамиз, сизни йўлдан оволамиз», дердилар. Бўлмаса, мен бир оддий талабаман ва Холида опамлар ҳам мен билан сафар баҳонасида танишган эдилар. Хуллас Эронга етиб келдик. Холида опамларнинг илмий салоҳиятлари ҳаммага маълум ва машҳур. 28 кунлик курсда ҳам шундай бўлди. Тилшунослик домламиз Др. Ўвранг Изади ҳар дарсда Холида опамлар учун 5-10 дақиқа ажратиб, Ўзбекистон ва рус мактабида айнан биз ўтаётган мавзу бўйича ёндашув, вазиятни айтиб беришларини сўрарди. Курс ёпилишида ҳам Устоз сўзга чиқишларини айнан Др Изади илтимос қилиб, уларнинг исмларини маърузачилар рўйхатига қўшдирган. Лекин мен Устознинг инсоний фазилатлари ҳақида ёзмоқчиман. Биз ватандошлар билан 5-қаватда яшардик, Устоз Қозоқистон, Қирғизистон, Арманистон, Бангладеш ва Туркиядан келган аёллар билар биринчи қаватда яшар эдилар. Эронда 28 кун яшаган бўлсак, хорижлик қизлар учун Холида опамлар онадек бўлиб қолдилар.

Қирғизистонлик қиз Нозгулнинг аллергияси бор экан. Деярли ҳар куни кечки овқатдан кейин аллерголог олдига бориши керак бўлди ва ҳар сафар Устоз Нозгул ёнида бориб, унга оналик вазифасини ўтадилар. Кун давомида врач ёзиб берган дориларни вақтида ичиб туришини эслатиб турардилар. Кетадиган кунимиз Нозгул Устозни қучоқлаб анча йиғлагани эсимда.

Сафар давомида бемор сифатида мен ҳам Устознинг ғамхўрликларидан баҳраманд бўлганман. 2003 йилдан то шу кунга қадар менга ҳамроҳлик қилиб келаётган гайморит, Эронда ҳам қўзғаб қолган. 3 маҳал овқатимиз ётоқхонанинг биринчи қаватидаги ошхонада ташкил қилинарди. Пиқиллаб, пиқиллаб тушликни тугатиб хонага чиқиб кетаётсам, Холида опамлар мени зинада кутиб турган эканлар. Қўлларида ҳамёндан каттароқ сумка. Ичида фақат дори. Орасидан 3-4 та дорини олиб бердилар. Қачон, қанчадан истеъмол қилишимни тушунтирдилар ва ҳар куни сўраб, эслатиб турдилар. Шу сафарда менинг хотирамда Холида опамлар меҳрибон инсон сиймосида шаклланганлар. Бу меҳрибонликни кейинчалик кўп кўрдим. Сафардан қайтганимиздан кейин биргаликда биринчи мумтоз гуруҳига биргаликда даср бердик. Устоз назария, мен амалиёт. Ҳафтада камида бир марта ҳар бир талабани номма-ном айтиб, ўқиши ҳақида сўраб, қайси талаба қаерда оқсаётгани ва олдинга ўтаётгани ҳақида менга айтиб, қаерга кўпроқ эътибор беришимни айтардилар. Айнан шу гуруҳ илмий соҳада энг баракали гуруҳ бўлди. Беш нафар талабадан 3 нафари Саидбек, Рихситилла, Умида докторлик унвонини олди. Бу натижада Устоз Холида опанинг берган тўғри кўрсатмалари, талабаларни илмга меҳрли қилиб тарбиялаш фазилатларининг ўрни катта. Кейинчалик ҳам жуда кўп мавзуларда Холида опамлар билан маслаҳатлашар эдим. Ҳар бир мавзуни диққат билан эшитардилар. Кафедра мудири бўлиб ишлаган давр кафедранинг энг ёркин даврларидан бири бўлгани билан, Устоз айнан шу даврда

саломатликларининг катта қисмини йўқотганлар. Кафедра талабаларининг ҳар бирини, форсми, афғонми, пуштуми ҳаммасини яхши билардилар. Талабаларга нисбатан айтилган танбеҳларни биринчи бўлиб ўзлари қабул қилиб олардилар.

Устознинг укалари Шукрулло акамлар билан яқиндан танишмиз, улар транспорт соҳасида менга Устоз бўладилар. Шукрулло акамлар Холида опамлар ҳақида гап кетганда, «адамлар Холидам опамларни бошқача яхши кўрардилар, орамизда энг кўп ўқийдигани, отамларнинг ҳамма айтганларини тўғри бажарадигани Холида опамлар эдилар. Мана йиллар ўтиб, Отам бошлаган ишни давом эттириб, китобларини чоп қилдилар. Агар отам тирик бўлганларида опамларни ота-ўғил деб чақирган бўлардилар» дердилар.

Устозга 60 ёш муборак бўлсин! Устознинг умрлари илм ўрганишга сарф бўлгани шубҳасиз. Устозга соғлиқ, фарзандлар ва шогирдлар камоли билан яқин келажакда Академик мартабасига эришишларини тилаб қоламан ва шубҳасиз улар бу мақомга лойиқлар.

Форсча айтганда

کوچکترین شاگرد آن استاد بزرگوار
دوران

Нодир НУРИДДИНОВ,
ТДШУ Эроншунослик ва афғоншунослик
олий мактаби бошлиғи, филология фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

ИЛМ ВА МЕҲР ТИМСОЛИ – ХОЛИДА ЗИКРИЛЛАЕВНА АЛИМОВА

"Илм — дунёнинг иззати, охиратнинг шарофатидир."
— Абдулла Авлоний

Зиё таратган умр ҳеч қачон завол топмайди, зеро илм йўлига тикилган ҳаёт нафақат шахснинг, балки миллатнинг ҳам ифтихоридир. Бугунги ўзбек афғоншунослиги, хусусан, дарий ва форс тилшунослигининг ўзаро уйғунликдаги ривожини филология фанлари доктори, профессор Алимова Холида Зикриллаевна каби заҳматкаш олимлар фаолиятисиз тасаввур этиш қийин.

Мен устозни талабалик давримизнинг юқори курсларида таний бошлаганман. Бакалавриатура босқичида бизга дарс ўтмаган бўлсаларда, биз билан битта потокда таҳсил оладиган дарий гуруҳига устозлик қилардилар. 1-курсдан илмий анжуманларда фаол иштирок этганим сабабли, Холида опа Алимова раҳбарлик қилган талабаларнинг юқори натижаларини кўп бор кузатганман. Шу билан бирга, устоз раҳбарлик қиладиган талабаларга ҳавас қилардим. Чунки ҳар бир талабага алоҳида вақт ва эътибор ажратиларди, тадқиқот мавзуси бўйича аниқ кўрсатмалар бериларди, энг асосийси эса устозлик меҳри яққол сезилиб турарди.

2006 йил Эрон Ислом Республикасига амалга оширилган бир ойлик сафар ва малака ошириш ҳаётимда ҳар жиҳатдан янги босқични бошлаб берди. Устозларимиз Холида опа Алимова, Маҳмуд ака Ишматбековни яқиндан танидик, уларнинг ўгитлари, ҳаётий тажрибаларидан

баҳраманд бўлдик. Даврон ака Каримов ва Нодир Раҳматуллаев билан эса қадрдонлигимиз янада ортди. Бир ойлик малака ошириш давомида устозимиз Холида опани ўзим учун кашф этдим. Сабаби шу вақтгача у киши билан суҳбатлашиш ва улардан илм олиш имконига эга бўлмагандим. Ўнга яқин мамлакатдан келган хорижлик ўқитувчи ва талабалар билан малака ошириш жараёнида Холида опанинг кучли тилшунос олима эканликларини ҳис қилдим ва бундан фахрландим. Шу билан бирга, бир ойлик сафар давомида устознинг меҳрибонлик, куйинчаклик, камтарлик, оналарча меҳр каби кўплаб инсоний фазилатларига гувоҳ бўлдим. Шундай қилиб, Холида опа Алимова билан устоз-шогирдлик муносабатимиз ва яқиндан танишувимиз Эронда бошланди.

Магистратурада Лингвистика (форс тили) мутахассислигида таҳсил олиш жараёнида “Эрон тилшунослиги” фани доирасида Холида опа Алимовадан сабоқ олиш орзуйим ушалган. Устознинг дарсларга жиддий ёндашувлари, чуқур илмий-назарий таҳлиллари бизни ўзига жалб этар ва соҳага бўлган қизиқишимизни орттирарди.

2008 йилда магистратурани якунлаб, кафедрада ўз педагогик фаолиятимни бошладим. Педагогик фаолият билан бир қаторда қўшма сўзлар тадқиқига бағишланган мақолалар ёзишга киришдим. Илк мақоламни университетдаги Шарқшунослик илмий журналига берганим, таниқли шарқшунос олимдан танқидий тақриз олганим ҳали ҳамон ёдимда. Назаримда, мақола яхши ёзилган деб ўйлаганим ва бу каби муносабатни кутмаганим учун танқидий тақриз менга қаттиқ таъсир қилганди. Илм йўлига адашиб кирибман шекилли, деган фикр билан тушкунликка тушганимда, менга ҳеч ким олим бўлиб туғилмаслиги, мақолалар тадқиқотдан тадқиқотга сайқалланиб бориши, энг асосийси изланишдан тўхтаб қолмаслик кераклигини айтиб, мени кейинги илмий тадқиқотларга руҳлантирдилар.

Натижада 2011 йили устознинг маслаҳатлари ва тавсиялари билан ТДШУнинг стажёр-тадқиқотчи-изланувчилик институтига, яъни аспирантурага имтиҳон топшириб, қабул қилиндим. Холида Алимова илмий раҳбарлигида *“Форс тилида қўшма сўзларнинг структур-семантик таҳлили”* номли илмий-тадқиқот мавзуси тасдиқланди. Менинг талабалик давридаги Холида опа раҳбарлигида илмий иш қилиш орзуйим ушалганди. Афсуски, бу хурсандчилигим узоққа чўзилмади. Олий таълимдан кейинги таълимда бир босқичли тизим, яъни катта илмий ходим изланувчилик институти жорий этилди. Фан доктори илмий даражасига эга бўлмаган илмий раҳбарлар ўзгартирилди. Гарчи Холида опа расмий равишда илмий раҳбарим бўлмасалар ҳам, ҳеч қачон ўзларининг маслаҳатлари ва тавсияларини аямадилар.

Ва ниҳоят 2020 йил май ойида “*Форс тилида қўшма сўз ва сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари*” мавзусидаги PhD диссертациясини якунлаб, кафедра муҳокамасига тақдим қилдик. Холида опа диссертацияни синчиклаб ўқиб, ишнинг ютуқ-камчиликлари бўйича ўзларининг қимматли маслаҳатларини бердилар. 2020 йил 4 июлдаги илмий семинар, 20 августдаги ҳимоя жараёнида қўллаб-қувватлаганлари, ўзларининг беминнат ёрдам ва маслаҳатларини аямаганларини ҳеч қачон эсимдан чиқармайман. Холида Зикриллаевна нафақат менга, кафедрамиздаги ҳар бир тадқиқотчига бағрикенглик, қўллаб-қувватлаш билан муносабатда бўлишларига кўп бор гувоҳ бўлганман. Шуни алоҳида таъкидлашни истардим, ҳар бир тадқиқотни баҳолаш жараёнида юксак талабчанлик ва масъулият билан ёндашиб, илмий ишнинг сифатига алоҳида эътибор қаратадилар. Кафедрамизда (ҳозирда олий мактаб) бир анъана бор: магистрлик, PhD ва DSc диссертацияси муҳокамалари қатъий талаб ва қоидалар, қизғин илмий баҳс ва мунозаралар асосида ташкил этилади. Кафедра муҳокамасидан ўтган ва устозларнинг

тавсияларига амал қилган тадқиқотчи илмий семинар ва диссертация ҳимояси босқичларида асло қийналмайди. Мана шу анъана йиллар давомида сақланиб, Холида Зикриллаевна каби устозларимиз сиймосида келгуси авлод шарқшуносларига сингдириб келинмоқда.

Алимова Холида Зикриллаевна Тошкент давлат шарқшунослик университети ҳузуридаги илмий даражалар берувчи DSc.03/2025.27.12. Fil.05.03 рақамли Илмий кенгаш қошидаги семинар раиси сифатида ҳам илмий даражали янги авлод шарқшуносларининг тарбияланишига муносиб ҳисса қўшиб келмоқдалар. Илмий семинар котиби сифатида устоз билан ёнма-ён ишлаш мен учун катта масъулият ва шарафдир. Илмий семинарга 10.00.05 – Осиё ва Африка халқлари тили ва адабиёти (филология фанлари), 10.00.06 – Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик (филология фанлари) ихтисосликлари бўйича илмий тадқиқот ишлари ва диссертациялар қабул қилиниб, муҳокамадан ўтказилади. Ҳар бир муҳокама жараёнида ишга синчковлик, адолат ва талабчанлик билан ёндашишлари, семинар аъзолари билан биргаликда муҳим илмий маслаҳат ва тавсияларини беришлари тадқиқот ишларининг янада пухта ва мукаммал бўлишига хизмат қилади.

Холида опанинг 2012-2018 йиллардаги Эрон-афғон филологияси кафедрасига олти йиллик раҳбарликлари мен каби ёш ўқитувчилар учун катта мактаб вазифасини ўтаган. Кафедра тарихига олтин саҳифалар сифатида битиладиган мазкур йилларда қўлга киритилган натижаларга осонликча эришилмаган. Устоз билан кафедрада бирга ишлаш давомида жуда кўп касбий кўникмаларга эга бўлдим: у кишидан ҳар бир ҳужжатни диққат-эътибор билан тайёрлаш, берилган топшириқларга масъулият билан ёндашиш ва раҳбар сифатида ўзи масъул бўлган жамоага қандай муомала қилиш сир-асрорларини ўргандим. Шу билан бир қаторда шогирдлар билан қандай ишлаш, илмий раҳбарлик

қилиш, маслаҳат сўраганларга беминнат ёрдам қўлини чўзиш, ҳамкасбу шогирдлар билан муносабатларда ҳаммага ўрнак бўлиш, самимийлик, меҳрибонлик, камтарлик ва шу каби бошқа кўплаб хислатларига доимо ҳавас билан қараймиз ва Устозимизга ўхшашга ҳаракат қиламиз.

Устозим филология фанлари доктори, профессор Алимова Холида Зикриллаевнага биз шогирдларга берган ўгитлари, илмий муаммолар ечимида доимо қўллаб-қувватлашлари, чуқур билим ва бой тажрибаларини аямай улашганлари ҳамда илмий дунёқарашимизни шакллантиришдаги беқиёс ҳиссалари учун самимий миннатдорлик билдираман.

Устоз, умрингиз узоқ, тану жонингиз соғ бўлсин. Оила аъзоларингиз, шогирдларингиз ва шарқшунослик жамоаси бахтига ҳамиша соғ-омон бўлинг. Узоқ йиллар давомида соҳанинг муносиб давомчилари бўладиган ёш шарқшунос кадрлар етиштиришдан асло чарчаманг. Сизга шогирд бўлганимиздан, Сиз билан бир жамоада эканимиздан фахрланамиз. Қутлуғ ёшингиз муборак бўлсин!

Nodir RAXMATULLAYEV,
TDSHU Turkshunoslik oliy maktabi doktoranti
Dilnoza RAXMATULLAYEVA,
eronshunos

MUNIS VA MO‘TABAR AYOL – ILM VA MA’RIFAT YO‘LIDAGI FIDOYI INSON

Inson hayotida shunday shaxslar bo‘ladiki, ular nafaqat o‘z kasbida muvaffaqiyat qozonadi, balki atrofdagilar uchun ham ma’naviy tayanch, ibrat va ilhom manbaiga aylanadi. Bugun biz ana shunday fazilatlar sohibi, eron tilshunosligi, xususan, dariyshunoslik sohasiga, ilm-faniga beqiyos hissa qo‘shib kelayotgan, ko‘plab shogirdlar tarbiyalab yetishtirayotgan, mehribon ustoz, jonkuyar hamkasb va fidoyi inson – muhtarama olima Xolida opamizning 60 yoshlik muborak yubileyi munosabati bilan samimiy ehtirom va ezgu tilaklarimizni izhor etamiz.

Xolida opa bilan chamasi 20 yillardan beri tanishmiz. Universitet hayotida ustoz bilan ko‘p yo‘llarimiz tutashdi, suhbatlar qurdik, birga ishladik. Bunday aziz va mo‘tabar olima ayol bilan suhbatdosh, hamkasb bo‘lishlikka taqdir qilgan Allohga hamdu sanolarimiz bo‘lsin.

Ustozning hayot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, bu yo‘lda mehnat, sabr, izlanish va fidoyilik kabi ulug‘ fazilatlar mujassam ekanini ko‘ramiz. Ilmga bo‘lgan chuqur muhabbat va mas’uliyat hissi Xolida opamni har doim yangi marralar sari yetaklab keldi. Dariy tili va dariyshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlari, amaliy faoliyati va pedagogik mahorati tufayli ular nafaqat o‘z jamoasida, balki keng ilmiy jamoatchilik orasida ham yuksak obro‘-e’tibor qozonganlar.

Professor sifatida nafaqat bilim beradilar, balki haqiqiy ma’noda inson tarbiyasi bilan shug‘ullanadilar. Ularning darslari shogirdlar uchun oddiy mashg‘ulot emas, balki ma’naviy kamolot maktabiga aylangan. Har bir talaba ustozning e’tiborida,

har bir savol ular uchun muhim. Ustoz o‘z shogirdlariga faqat bilim emas, balki hayotga bo‘lgan to‘g‘ri munosabatni, mehnatsevarlikni, halollik va poklikni ham o‘rgatadilar. Aynan darslarini olishlik nasib qilmagan bo‘lsa-da, hayot darslarida doim qo‘llab-quvvatlab ustozlik qiladilar.

Ularning rahbarligida yetishib chiqqan ko‘plab shogirdlar bugungi kunda turli sohalarda samarali faoliyat yuritmoqda. Ular ustozining mehri va ilmiy maktabi samarasi sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topgan. Bu esa ustozning eng katta yutug‘i va faxridir.

Hamkasb sifatida doimo ochiqko‘ngil, samimiy va yordamga tayyor inson sifatida tanilganlar. Jamoadagi har bir inson ularning mehribonligi va g‘amxo‘rligini his qiladi. Qiyin vaziyatlarda har doim yonida bo‘lib, maslahati va qo‘llab-quvvatlashi bilan boshqalarga kuch bag‘ishlaydilar. Shu jihatdan nafaqat ustoz, balki haqiqiy do‘st va maslahatchi hamdirlar.

Insoniy fazilatlar borasida ham ko‘pchilikka ibrat bo‘la oladilar. Kamtarlik, halollik, adolatparvarlik va mehribonlik ustozning asosiy xususiyatlaridir. Ustozning har bir so‘zida, har bir harakatida samimiyat va insoniylik mujassam. Shu bois ular atrofida doimo hurmat va muhabbat muhiti hukm suradi.

Ustozning ilmiy merosi ham alohida ta’kidga loyiq. Dariy tiliga oid ko‘plab maqola va tadqiqotlari ilmiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholangan. Ular o‘z ilmiy ishlarida nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy yondashuvlarni ham uyg‘unlashtira olganlar. Bu esa ularning ishlarini yanada qimmatli va ahamiyatli qiladi.

60 yillik hayot yo‘li – bu katta tajriba, ulkan yutuqlar va beqiyos xizmatlar davridir. Bu yillar davomida ustoz o‘zining mehnati, sadoqati va insonparvarligi bilan ko‘plab qalblarda o‘chmas iz qoldirdi. Ularning hayoti va faoliyati yosh avlod uchun ibrat maktabidir.

Ayolim ham talabalik onlaridanoq, kafedrada ishlagan vaqtlaridayoq Xolida opa bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Xolida opam haqida u ham o‘z fikrlarini ifodalab o‘tdi. Xolida opaga

ta’rif berishdan oldin, ular juda ham hurmatga va e’zozga loyiq ayol ekanliklarini aytib o‘tish lozimdir. Ularga ta’rif berar ekanmiz, aytiladigan so‘zlar va tillar ojizlik qiladigandek, go‘yo. Allohim ularni har tomonlama mukammal yaratgan. Eng avvalo, ularning qalblari go‘zal bo‘lib, barcha ayollarga xos bo‘lgan ezgu hulq va fazilatlar mujassamlashgan. Shu bilan birga ayollik latofati va chiroyi husnlarini yanada bezagan.

Ular bilan suhbatlashgan insonning qalbi yorishib, suhbatni yakuniga yetkazgisi kelmaydi. Bunday beg‘ubor hislatlarga ega bo‘lgan Xolida opa ham oilalarining baxtiyor bekasilar va ham oliygohimizning noyob, olima xodimidirlar.

Xolida opa mana bir qancha yildirki, Sharqshunoslik universitetida o‘zlarining namunali faoliyatlarini yuritib kelayaptilar. Ular bu yo‘lda samarali mehnat qilib, talabalarga bilim berib, shogirdlar chiqarib, ko‘plab maqolalar, risolalar va kitoblar yaratib kelmoqdalar. Ular nafaqat talabalarga bilim beradigan ustozlar, balki ularga namuna bo‘la oladigan olima ayoldirlar.

Xolida opamdagi eng oliy fazilatlardan bu ularning talaba shogirdlariga, hamkasblariga bo‘lgan g‘amxo‘rliklari, ularning mehribonliklari. U kishiga nazar tashlar ekansiz, sabr-bardoshli, jasoratli, mehribon, kurashuvchan, g‘amxo‘r, shirin so‘z, tarbiyachi, ustoz, oilaparvar, vatanparvar, beg‘ubor ayol timsolini ko‘rish mumkin. Doim suhbatlarimiz davomida uydagilarimiz, oilamiz haqida gaplashib, salomatlik va omonlik so‘rab, oilalarimizga salomlarimizni yo‘llaymiz.

Ular juda g‘amxo‘r, mehribon va jonkuyar ustozlar. Xolida opa Sharqshunoslik universitetining qimmatbaho va mukammal olima ustozlaridan biri ekanliklarini qayta-qayta ta’kidlab o‘z fikrimizga yakun yasaymiz.

Bugungi qutlug‘ sana munosabati bilan muhtarama ustozimizga mustahkam sog‘liq, uzoq umr, oilaviy baxt-saodat va ilmiy faoliyatlarida yanada katta yutuqlar tilaymiz. U kishining ilmiy va pedagogik faoliyati yana uzoq yillar

davomida bardavom bo‘lib, yangi avlod shogirdlarini tarbiyalashda davom etsin.

Hurmatli ustoz! Sizning mehringiz, sabringiz va fidoyiligingiz har doim biz uchun yorqin namuna bo‘lib qoladi. Siz nafaqat ustoz, balki hayot yo‘lini ko‘rsatgan buyuk murabbiysiz. Sizning sharafli 60 yoshingiz muborak bo‘lsin! Yaratgan mo‘tabar va ulug‘ yoshlarni ham qarshi olganingizda tabriklab yurishlikni nasib aylasin.

Sizga hurmat va ehtirom ila shogirdlaringiz Nodir va
Dilnoza, Raxmatullayevlar oilasi.

Zafar NORMATOV,
O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisining
Afg‘oniston bo‘yicha maslahatchisi

USTOZGA EHTIROM — QALBLARDA YASHAYDIGAN NUR

Hayotimizda shunday insonlar bo‘ladiki, ular nafaqat bilim beradi, balki inson bo‘lib shakllanishimizda ham muhim o‘rin tutadi. Men uchun ana shunday ulug‘ zotlardan biri - aziz ustozimiz Xolida opa Alimovadir.

2002-2008-yillar davomida Toshkent davlat sharqshunoslik institutining Eron-Afg‘on filologiyasi kafedrasida tahsil olar ekanman, men faqatgina ilm emas, balki hayot maktabini ham aynan Xolida opa siymosida ko‘rdim. Ularning har bir darslari ilm bilan asoslangan, chuqur mazmunli, har bir so‘zi esa men uchun yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilardi.

Ustozimning eng katta fazilatlaridan biri - har doim yordam berishga tayyor ekanliklaridir. Ertalabmi, kechmi - buning ular uchun farqi yo‘q edi. Qachon murojaat qilsam ham, meni doim ochiq chehra bilan kutib olib, har bir savolimga javoblarni erinmay, sabr bilan tushuntirib berardilar. Ba’zan oddiy ko‘ringan savollarimga ham chuqur yondashib, meni yanada kengroq fikrlashga undaganlari hanuz yodimda. Va eng asosiysi, men o‘rganayotgan pashtu tilidan tashqari Afg‘onistonning yana bir asosiy tili — dariy tilini o‘rganmasdan yetuk va mukammal afg‘onshunos bo‘lish qiyin ekanligini ustoz doimo ta’kidlar edilar. Shu sababli o‘qish davomida bu tilni ham qunt va katta qiziqish bilan o‘rgandim. Mehnat faoliyatimda esa ularning naqadar haq ekanliklarini chuqur his qilyapman.

Xolida opa har doim odil ustoz bo‘lib, har bir talabaga teng va adolatli munosabatda bo‘lardilar. Bu esa men va boshqa kursdoshlarimda nafaqat ustozga, balki adolatning o‘ziga ham hurmat uyg‘otgan. Eng muhimi, ular bizni oddiy talaba sifatida emas, go‘yo o‘z farzandidek qabul qilardilar. Shu mehr va e’tibor

sababli biz ularga nafaqat ustoz, balki yaqin inson sifatida ham qarardik va hamon shunday bo‘lib qolgan.

Keyingi mehnat faoliyatimda ustozimizdan olgan saboqlarim men uchun bebaho yo‘l ko‘rsatkichga aylandi. Ishdagi mas’uliyat, insoniylik, sabr va kasbga sadoqat — ularning barchasi Xolida opadan o‘rgangan hayotiy darslarimdir.

Bugun ustozimizning tavallud ayyomlarida, ularga chuqur minnatdorchiligimni izhor etaman. Siz bergan ilm, ko‘rsatgan mehr va singdirgan tarbiya — mening va men kabi minglab shogirdlaringiz hayoti davomida biz bilan birga yashaydi.

Sizga mustahkam sog‘liq, uzoq umr, oilaviy baxt tilayman. Qalblarda nur sochib, yana ko‘plab shogirdlarga yo‘l ko‘rsatishda davom etishingizni tilab qolaman. So‘zimni quyidagi she’riy parcha orqali yakunlashni istardim, zeroki ustozlar bor ekan — bu dunyoda doim insoniylik nuri porlab turadi!

Ustoz — qalblarga nur sochgan quyosh,
Ilm bilan bezar har bir yo‘limiz.
Mehr ila bizni asrab, yo‘l ko‘rsatgan,
Siz bilan yorug‘dur bugun ongimiz.

Tunlar ham, tonglar ham sizga barobar,
Shogird deb yashadingiz butun bir umr.
Bir savol ortida katta mehr bor,
Har javobingizda sezilar umr.

Bizni farzandidek asrab-avaylab,
Berdingiz joy qalbingizdan mehrga.
Siz bergan saboqlar yo‘l bo‘lib qolib,
Boshlaydi har qadam ezgu safarga.

Ustoz, siz bor — qalblarimizda bahor,
Siz bor - yo‘limizda yorug‘dur chiroq.
Yillar o‘tsa hamki unutilmassiz,
Nomingiz qalbimizda mangudur porloq.

Hurmat va ehtirom bilan,
Shogirdingiz Zafar Normatov

Саида СУЛТАНХОДЖАЕВА,
ТДШУ Эроншунослик ва афғоншунослик
олий мактаби катта ўқитувчиси

ЗАҲМАТКАШ ОЛИМА ВА МЕҲРИДАРЁ МУРАББИЙ: ИЛМ ЙЎЛИДАГИ ИЛК ҚАДАМЛАР ВА УСТОЗ ЎГИТИ

Ҳар бир инсоннинг шахс сифатида камол топишида, айниқса, унинг илмий ва маънавий дунёқараши шаклланишида устознинг ўрни беқиёсдир. Устоз – бу нафақат билим берувчи мутахассис, балки инсоннинг ички салоҳиятини кашф этувчи, уни эзгулик ва илм йўлига бошловчи ҳақиқий мураббийдир. Менинг ҳаётимда ана шундай забардаст илм соҳиби ва меҳридарё инсон – профессор Холида Алимова алоҳида ўрин тутади.

Холида опа ўз соҳасининг етук билимдони, теран илмий тафаккур ва бой тажрибага эга бўлган заҳматкаш олимадир. Уларнинг ҳар бир маърузаси ва илмий мулоҳазаси мен учун ҳақиқий кашфиёт ва билимлар хазинаси бўлиб хизмат қилади. Устознинг илмий фикрлашдаги аниқлиги, таҳлилдаги теранлиги ва назарий билимларни ҳаётий мисоллар билан уйғунлаштира олиши менда бу касбга нисбатан катта ҳавас уйғотган.

Менинг илк жиддий илмий қадамим – бакалаврлик диссертациямни ёзиш жараёнида Холида Алимованинг кўрсатган ёрдамлари ва илмий раҳбарлик маҳоратлари беқиёс бўлди. Мавзу танлашдан бошлаб, тадқиқотнинг методологик асосларини белгилаш, манбаларни синчиклаб таҳлил қилиш ва илмий хулосалар чиқаришда устозимнинг ўгитлари асосий йўлчи юлдуз бўлди. Айниқса, илмий ишни тизимли ташкил этиш ва манбаларга нисбатан танқидий ёндашиш кўникмаларини айнан уларнинг раҳбарлигида шакллантирдим.

Холида опанинг ишга бўлган масъулияти ва заҳматкашлиги алоҳида таҳсинга лойиқ. Диссертациямнинг ҳар бир саҳифасини, ҳар бир бандини синчиклаб ўқиб, ўз тавсия ва изоҳларини берганлари мен учун катта маҳорат мактаби бўлган. Бу жараён менга илмда пухталик, аниқлик ва ҳар бир маълумотга эътиборли бўлиш қанчалик муҳимлигини англатди.

Профессор Холида Алимованинг нафақат олималик, балки инсонийлик фазилатлари ҳам таҳсинга сазовордир. Уларнинг самимийлиги, муомала маданияти ва ҳар бир шогирдга бўлган юксак эҳтироми таълим жараёнини янада файзли қилади. Шу билан бирга, устознинг талабчанлиги – биз шогирдларни доимий изланишда бўлишга, масъулиятни ҳис қилишга ва ўз устимизда тинимсиз ишлашга ўргатди.

Мен учун Холида Алимова – илмга бўлган муҳаббат, меҳнатсеварлик ва комиллик намунасидир. Устозимдан олган билим ва ҳаётий сабоқларим келгусидаги илмий ва касбий фаолиятимда мустаҳкам пойдевор бўлиб қолади. Устозим билан ишлаш ва улардан таълим олиш – мен учун катта бахт ва омаддир!

Берган билимларингиз, чексиз сабрингиз ва меҳрингиз учун Сиздан умрбод миннатдорман, азиз Устозим!

Mirzo Qalandar SAIDMUHAMMAD O‘G‘LI,
TDSHU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik
oliy maktabi katta o‘qituvchisi

USTOZGA EHTIROM: OLIMA, MURABBIY VA MEHRIBON ONA SIYMOSI

Filologiya fanlari doktori Alimova Xolida Zikrullayevnaning 60 yillik muborak yubileylariga

Inson umrining mazmuni faqat yillar silsilasida emas, balki qoldirilgan ilmiy meros, tarbiya ko‘rgan shogirdlar va ko‘ngillarga muhrlangan ezgu xotiralar bilan o‘lchanadi. Bugun o‘zining qutlug‘ 60 yoshini qarshilayotgan ustozimiz, filologiya fanlari doktori **Xolida Zikrullayevna Alimova** ana shunday mazmunli umr sohibasidir.

Biz – shogirdlaringiz uchun Siz nafaqat yirik tilshunos olima, balki har bir talabaning dardi bilan yashaydigan, ularga ham ustoz, ham mehribon ona bo‘la olgan ulug‘ siymosiz. Bakalavrlik davrimizda Sizdan tinglagan **“Leksikografiya va lug‘atshunoslik”** fanining har bir darsi biz uchun haqiqiy ma’rifat maskaniga aylangan edi. Ustozlarga xos bo‘lgan yuksak talabchanlikni onalarimizga xos cheksiz mehr va shafqat bilan uyg‘unlashtira olishingiz biz uchun doimo o‘rnak bo‘lib qoladi.

Ma’ruzalaringizda fors lug‘atshunosligi tarixi va uning zamonaviy yutuqlarini shunchaki bayon etmasdan, balki ularning mintaqamiz lug‘atchilik an’analari bilan uzviy bog‘liqligini chuqur tahlillar orqali tushuntirib berganingiz yosh mutaxassislar xotirasida muhrlanib qolgan. Ayniqsa, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan ilk forscha-o‘zbekcha (chig‘atoy turkcha) lug‘atlarning tarixiy ahamiyati, Markaziy Osiyo lug‘atchilik maktabining shakllanishi borasidagi yorqin dalillaringiz ilm yo‘lidagi ilk qadamlarimizni mustahkamlagan edi.

Sizning kafedra mudiri sifatidagi faoliyatingiz ham alohida e’tirofga loyiq. Siz o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida o‘zaro

hurmat muhitini yarata olgan, rahbarlik mas’uliyatini yuksak insoniylik bilan ado etgan yorqin namunali mudir bo‘ldingiz. Ilmiy faoliyatingizda ham doimo faollik ko‘rsatib, tilshunoslik seminarlari raisi sifatida barcha ilmiy ishlarga xolisona va ochiq ko‘ngil bilan yondashganingiz ilmiy jamoatchilik orasida hurmatingizni yanada yuksaltirdi.

Siz nafaqat o‘z ilmiy yo‘lingizni yaratdingiz, balki ota merosini asrab-avaylashda ham yuksak farzandlik va olimlik burchingizni namoyon etdingiz. Kafedramizning otaxon olimi, rahmatli **Zikrilla Umarovning** ilmiy merosiga ko‘rsatgan ehtiromingiz tahsinga sazovordir. Otaning doktorlik dissertatsiyasi asosida tayyorlangan, o‘z davrida akademik Alibek Rustamov kabi ulug‘ ustozlar e’tirofini qozongan **“Mirzo Mehdixonning ‘Maboniu-l-Lug’at’ eski o’zbek tili grammatikasi”** kitobini nashrga tayyorlab, keng jamoatchilikka yetkazganingiz ma’naviy jasoratdir. Ushbu kitob taqdimotining 2025-yilda o‘tkazilgan Eronshunos va afg‘onshunoslarning birinchi forumida bo‘lib o‘tishi ramziy ma’noda avlodlar o‘rtasidagi ilmiy rishtalarning bardavomligini ko‘rsatdi.

Muhtaram Ustoz!

Ushbu qutlug‘ sana munosabati bilan Sizga uzoq umr, mustahkam sog‘liq va ilmiy faoliyatingizda yangi zafarlar tilaymiz. Sizning nurli siymongiz shogirdlaringiz qalbida hamisha mushfiq va munis murabbiy va ilm fidoiysi bo‘lib qolaveradi.

Sardor QORABOYEV,
TDSHU tadqiqotchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MEHR CHASHMASI

Agar dunyoni muhabbat qutqarsa, inson qalbini mehr qutqaradi!

2005-yil kamina hayotidagi tub burilish sodir bo‘lgan, ham yangilanish, ham murakkab sinov davri edi. Yangilanish TDSHIga o‘qishga kirib, Toshkent shahrida yashashni boshlaganim bo‘lsa, sinov oilamiz boshiga kulfat tushib, sevimli amakim halok bo‘lgan paytlari edi, Toshkentga kelayotganimda qarindoshlarimdan biri "Toshkentda yashash uchun odamning yuragi toshdan bo‘lishi kerak", degan gapi hech esimdan chiqmaydi. Xotiramga o‘rashib qolgan shu gapni ta’sirimi yoki yangi joyga moslashish davomidagi hayot uchun kurash jarayonimi, xullas o‘zimda insonlardan uzoqlashish, notanish bo‘lgan odamlar taqdiriga befarqlik kabi xislatlar shakllanayotganini seza boshladim. Oldingi hammaga yaxshilik qilishga, qo‘lidan kelsa yordam berishga harakat qiladigan kuyunchak Sardor "befarq va takabbur Sardor"ga aylanib borayotgan edi. Shu payt zulmatdan nur taralgandek qarshimizdan Xolida opa chiqdilar. Xolida opaning shaxsiyatlari orqali insoniylikning eng oliy ifodasi - mehr ekanligini tushunib yetganmiz. Mehr - bu inson qalbidan chiqadigan eng pok, samimiy tuyg‘ulardan biri bo‘lib, gamxo‘rlik, rahm-shafqat va e’tibor kabi bir qancha fazilatlarni o‘zida mujassam etadi. Mehr bor joyda ishonch va totuvlik hukm surishini Xolida opaning kabinetlari misolida bilamiz. Xolida opaning doimo talabalar va o‘qituvchilar bilan to‘la fayzli kabinetlari mehr inson hayotida beqiyos ahamiyatga ega ekanligini isbotlab turardi. Ha, Xolida opa o‘z mehrlari bilan toshga aylanayotgan yurakni eritgan, unda samimiylik, iliqlik, shavqat kabi insoniy fazilatlarni qayta ekgan buyuk shaxs sifatida xotiramga muhrlanganlar. Ishonchim

komilki, Xolida opa shaxsiyatlari. yana ham aniqrog‘i mehrlari orqali Sharqshunoslikdek katta bir oilaning a’zosi ekanligini his qilib, jamiyatda o‘z o‘rnini topgan men kabi talabalar soni oz emas Xolida opa, mehringiz bardavom bo‘lsin. Shogirdlar tarbiyalash, ularni katta hayot yo‘llarida chin insoniy fazilatlar bilan boshqalarga namuna bo‘lib yashashga tayyorlashda Yaratgan sizga kuch-quvvat, g‘ayrat ato etsin. Qalbingizdan chiqib, boshqalarning qalbini yoritadigan nuringiz yanada yorqinroq porlasin, hamisha charaqlab tursin.

Hilola UKTAMOVA,
TDSHU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik
oliy maktabi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MUHTARAMA USTOZIM – ALIMOVA XOLIDA ZIKRILLAYEVNAGA!

Ayol – bu dunyoga nur va nafosat olib keluvchi, sabr va muhabbatning tirik timsolidir. Ayol shunday bir olamki, unda **muhabbat hech qachon tugamaydi**. U o'zida ham qattiqqo'llik, ham yengilmas matonatni, ham cheksiz nazokatni jamlay olgan yagona hilqatdir. U – xonadonning fayzi, oilaning ustuni va jamiyatning ma'naviy qiyofasidir. Mana shu xislat va fazilatlarning barchasi mening ustozim Alimova Xolida Zikrillayevnada musajjam.

Universitetga o‘qishga kirgan paytimda ilk bor ustozimning darslariga kirib ularning naqadar yumshoqko‘ngil va jonkuyar ekanliklaridan hayratga tushganman. Shu bilan birga ustozim ham mening yoshimni eshitib hayratda qolgandilar. Mening o‘zimdan kattalar bilan ta’lim olishim ko‘pchilikka ajablanarli holatdek tuyulardi. Shu qatorda ustozim ham keyinchalik ham yosh bo‘la turib, bilimli ekanligimni bot-bot takrorlardilar. Bizlarga 4 yil bakalavrda, 2 yil magistraturada saboq berganlar va ilmiy rahbarlik qilganlar. Qolaversa, yana 3 yil PhD ilmiy rahbarim bo‘lganlar. Hozirda ham ilmiy maslahatchim, yo‘lchi-yulduzimdirlar.

Universitet davrda bir ustozning talabalarga 4 yil yoki 6 yil dars berishi odatiy holat bo‘lmagani uchun ham men ko‘pchilikka meni 6 yil o‘qitgan va yana 15 yildan beri ilmiy rahbarim bo‘lgan ustozim bor, deb maqtanib kelaman. Aynan shu ustozim mendagi ilmga bo‘lgan qobiliyatimni sezib, maqolalar yozishga, ilm yo‘lidan ketishga yo‘naltirganlar. Dunyodagi eng qadrli va hech qachon tanazzulga uchramaydigan narsa ilm ekanligini uqtirganlar. Ustozimning ilmiy jamoatda o‘rinlari nihoyatda beqiyos bo‘lishiga qaramay,

juda kamtarin insonlar. Shu sababdan ham kamina har yerda ustozimga munosib shogird bo‘lishga harakat qilib kelmoqda. Va ustozim ham men doim faxrlanib yurishlarini niyat qilaman.

Yana ustozimdan o‘rgangan eng katta sabog‘im bu – matonat. Inson matonatli bo‘lsagina, sabr ham qiladi, shukr ham qiladi, harakat ham qiladi. Ustozim ham oilani, ham ilmiy faoliyatni, ham rahbarlik faoliyatini katta matonat ila o‘z maromida olib borayotgan inson. Talabalarni o‘z farzandlaridek ko‘rib, ularga hayotiy, kasbiy va ilmiy yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadigan tirik kitob. Vaqtlarini ayamay har bir savolga batafsil javob berib, to‘g‘ri yo‘nalish berib, shu bilan birga talabalarni o‘zini ham izlanishga undab turadigan mehri daryo muallimdir.

Ustozimga chuqur minnatdorchiligimni izhor etgan holda, ularga mustahkam sog‘lik, farzandlar va shogirdlar ardog‘ida uzoq yillar umrguzoronlik qilishlarini tilab qolaman.

Нигора ЭЛМУРОДОВА,
“Севимли” телеканали “Замон” информацион
дастури бошловчиси ва муҳаррири,
ЎзЖОКУ таянч докторанти

МУВАФФАҚИЯТГА БОШЛАГАН ТАСОДИФ ...

2007-йил... Қалбда олам-олам орзулар, мақсадлар билан Тошкент Давлат Шарқшунослик университети остонасига қадам қўйган эдим. Болаликдан энг катта орзуйим – дунё кезиш, олис юртларнинг маданияти билан танишиш эди. Бироқ, 2-сентябрь куни тақдир мени кутилмаган синов билан кутиб олди: мен ўзим орзу қилган тил гуруҳида эмас, балки дарий тили гуруҳида ўқишимни билдим.

Ўша куни нафақат мен, балки барча курсдошларимнинг қалбини ғазаб ва тушкунлик эгаллаган эди. Кимдир бошқа гуруҳга ўтиш учун нажот излар, мен кабилар эса тақдирнинг бу "шўхлиги" олдида лол эдик. Айнан шундай мураккаб вазиятда бизга илк дарсни Алимова Холида опа ўтдилар. Фикру зикри бошқа тилга ўтиш бўлган талабаларни дарсга жалб қилиш, уларнинг кўнглига йўл топиш осон эмасди.

Бироқ Холида опанинг оналарча меҳрибонлиги, ўз касбига бўлган чексиз садоқати ва юксак маҳорати мўъжиза яратди. Вақт ўтиши билан биз бу тилнинг сеҳрига, устознинг эса самимиятига боғланиб қолдик. Натижада ҳеч ким гуруҳдан кетмади ва биз дарий тилини бор вужудимиз билан ўргана бошладик.

Тўрт йиллик талабалик даврмизнинг ҳар бир лаҳзаси қалбимизга муҳрланди ва бу хотираларнинг марказида заҳматкаш устозимиз турар эдилар. Шарқшунослик даргоҳи менга нафақат Афғонистоннинг тили, дини ва маданиятини, балки инсонийлик қадриятларини ҳам англатди.

Бугун орадан йиллар ўтиб, мен ўз орзуйим сари дадил қадам ташлаб, журналист сифатида фаолият юритмоқдаман.

Бир лаҳза бўлса-да, дарий тилини ўрганганимдан афсусланмадим. Зеро, ҳаёт ҳар қадамда ҳеч бир илм бекорга эмаслигини исботлаб келмоқда. Магистрлик ишимда ўзбек матбуотининг илк нашрларини тадқиқ қилганимда, Холида опам ўргатган ҳар бир ҳарф менга йўлчи юлдуз бўлди.

Ҳозирда таянч докторант сифатида миллий матбуотимизда жадидларнинг аёллар масаласига оид қарашларини илмий тадқиқ қиляпман. Устозим берган билимлар ҳар сонияда менга ҳамроҳдир.

Ҳаётимиз йўлларини ёритиб турувчи Холида опа каби нурли шамчироқ ва фидойи устозлар кўпаяверсин. Улар бизга нафақат касб сирларини, балки чинакам инсоний туйғуларнинг қадрига етишни ҳам ўргатадилар.

Бугун олис 2007 йилнинг ўша илк дарсидан бошланган синовли йўл мени фаннинг юксак чўққилари сари етакламоқда. Ҳар гал жадид боболаримизнинг аёллар маърифати ҳақидаги ўтли сўзларини тадқиқ қилганимда ёки эски қўлёзмаларни варақлаганимда, қулоғим остида устозимнинг меҳр тўла овози акс-садо беради. Сиз менга фақат дарий тилини эмас, балки тақдирнинг кутилмаган бурилишларини шукроналик билан қарши олишни ва ҳар бир ҳарф замирида яширинган улкан ҳикматни кўра билишни ўргатдингиз.

Устоз, сиз ёққан ўша маърифат шамчироғи бугун менинг ҳаёт йўлимни ёритиб турувчи сўнмас машъалага айланган. Токи қалбимизда илмга ва инсонийликка бўлган муҳаббат яшар экан, сизнинг заҳматли меҳнатингиз ва оналарча тафтингиз биз эришган ҳар бир муваффақиятда порлаб тураверади. Зеро, чинакам устознинг умри – шогирдларининг камолида, дунёнинг турли чеккаларига сочилган эзгулик уруғларида давом этадиган битмас-туганмас бир достондир.

Назокат ИБРАГИМОВА,
ТДШУ Таржимашунослик, тилшунослик ва халқаро журналистика олий мактаби мустақил тадқиқотчиси

ИЛМГА МУҲАББАТ УЙҒОТГАН УСТОЗ

Инсон ҳаётида биринчи устознинг ўрни беқиёсдир. Айниқса, тил ўрганишдек мураккаб ва нозик жараёнда устоз нафақат билим берувчи, балки илҳом манбаи, руҳий таянч ҳам бўлади. Менинг форс тилига бўлган қизиқишим ва бу тилни ўзлаштиришимда Алимова Холида Зикриллаевнанинг ҳиссаси беқиёсдир. У киши менинг илк устозим сифатида нафақат тил сирларини, балки илмга бўлган муҳаббатни ҳам қалбимга жо этди. Устоз ўзининг юксак педагогик маҳорати, сабр-тоқати ва талабчанлиги билан ажралиб туради. У кишининг дарс ўтиш услуби анъанавий ва замонавий ёндашувларни уйғунлаштирган ҳолда ташкил этилган бўлиб, ҳар бир дарс мазмунан бой ва қизиқарли ўтар эди. Айниқса, форс тилининг нозик жиҳатларини тушунтиришда устознинг мисоллар асосида иш олиб бориши, шеър ва бадиий матнлардан фойдаланиши ўқувчилар учун жуда самарали бўлган. Устознинг энг муҳим фазилатларидан бири – ҳар бир ўқувчига индивидуал ёндашувдир. У киши ҳар бир шогирднинг қобилияти ва қизиқишини ҳисобга олган ҳолда таълим берар, уларни рағбатлантирар ва доимо олға интилишга кўмаклашарди.

Тил ўрганиш фақат грамматика ва луғатни ўзлаштириш эмас, балки ўша тил орқали бутун бир маданиятни англашдир. Алимова Холида Зикриллаевна ана шу ҳақиқатни менга илк бор англатган устоздир. У киши дарс жараёнида форс адабиёти, тарихи ва маданияти ҳақида қизиқарли маълумотлар бериб, менда бу соҳага нисбатан чуқур қизиқиш уйғотди. Айнан устознинг саъй-ҳаракатлари туфайли мен форс тилини нафақат ўрганиш, балки уни чуқурроқ тадқиқ этиш истагига эга бўлдим. Бу эса менинг

келажакдаги илмий ва ижодий йўналишимга катта таъсир кўрсатди. Ҳақиқий устоз шогирд ҳаётида фақат билим берувчи сифатида эмас, балки маънавий тарбиячи сифатида ҳам муҳим ўрин тутади. Алимова Холида Зикриллаевна билан бўлган мулоқотлар, уларнинг насиҳатлари ва қўллаб-қувватлаши мен учун катта ҳаётий мактаб бўлди. У киши ҳар доим билим олишда сабрли бўлиш, қийинчиликлардан қўрқмаслик ва доим ўз устида ишлаш кераклигини таъкидлар эди. Бу каби маслаҳатлар нафақат тил ўрганиш жараёнида, балки ҳаётнинг турли жабҳаларида ҳам менга йўл кўрсатди. Алимова Холида Зикриллаевна менинг ҳаётимда чуқур из қолдирган, мени илм сари етаклаган устозлардан биридир. У кишининг берган билимлари, тарбияси ва илҳоми бугунги кунда ҳам менга куч ва ишонч бағишлаб келмоқда.

“Устозлар изидан” бориш – бу уларнинг ишини давом эттириш, улар қолдирган маънавий ва илмий меросни асраб-авайлаш демакдир. Мен ҳам устозимнинг ишончини оқлаш, улар кўрсатган йўлдан бориш ва келажакда муносиб шогирд бўлишга интиламан.

Dinora YUSUPOVA,
TDSHU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik
oliy maktabi katta o‘qituvchisi

OLTMISH YIL – OLTMISH DOVON: AFG‘ONSHUNOSLIK UFQLARIDAGI YORQIN SIYMO

Tilshunoslik va afg‘onshunoslik fanlari Sharq adabiyoti va madaniyatining eng muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Bu sohalarda olib borilgan izlanishlar nafaqat ilmiy tafakkurni boyitadi, balki xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Professor Xolida Zikrillayevna Alimova ana shunday ilmiy izlanishlarga o‘z hayotini bag‘ishlab, uzoq yillik ilmiy faoliyati davomida lingvistika va afg‘onshunoslikda yuksak natijalarga erishgan olima sifatida tanilgan.

Professor Xolida Zikrillayevna Alimovaning oltmish yillik sermazmun ilmiy-pedagogik faoliyati afg‘onshunoslik va nazariy tilshunoslik sohalarining taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yuksak natijalar bilan xarakterlanadi. Olimaning ko‘p yillik izlanishlari mahsuli bo‘lgan fundamental monografiyalar, tizimli darslik va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek, ko‘plab nufuzli ilmiy maqolalar to‘plami nafaqat milliy sharqshunoslik maktabini, balki transmintaqaviy ilmiy tafakkur paradigmasini ham sezilarli darajada boyitdi. Professorning ilmiy konseptual qarashlari bugungi kunda keyingi avlod tadqiqotchilari uchun metodologik asos vazifasini o‘tamoqda. Ayniqsa, olimaning ustoz-shogird an’analari doirasidagi faoliyati alohida e’tirofga loyiq: uning ilmiy rahbarligida o‘nlab bakalavr, magistr, falsafa doktori (PhD) va fan doktorlari (DSc) o‘z dissertatsiya ishlarini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Bu sa’y-harakatlar natijasida mamlakatimizda o‘ziga xos afg‘onshunoslik ilmiy maktabi shakllandi va tizimli rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi

Bugun biz nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki keng ma’rifat ahli uchun ham g‘oyat qadrli bo‘lgan qutlug‘ sana - professor

Xolida Zikrillayevna Alimovaning oltmish yillik muazzam ijodiy va ilmiy faoliyati tantanasini nishonlamoqdamiz.

Xolida Zikrillayevna nafaqat milliy sharqshunoslik, balki xalqaro akademik doiralarda ham yuksak e’tirof etilgan olima sifatida nazariy lingvistika va afg‘onshunoslik yo‘nalishlarida fundamental tadqiqotlarni amalga oshirdi. Professor o‘zining ilmiy fidoyiligi, tadqiqotlardagi qat’iy halolligi va intellektual salohiyati bilan zamonaviy ilmiy tafakkur taraqqiyotiga, shuningdek, mintaqaviy sharqshunoslik maktabining strategik rivojiga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan yetuk simodir.

Professor Xolida Zikrillayevna Alimovaning ko‘p yillik sermazmun ilmiy faoliyati davomida yaratilgan fundamental asarlari, konseptual tadqiqotlari va boy ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘zining metodologik dolzarbligini saqlab kelmoqda. Olimaning izlanishlari zamonaviy sharqshunoslikning yangi ufqlarini belgilab berib, keyingi avlod tadqiqotchilari uchun mustahkam nazariy-metodik zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

Professor o‘zining ensiklopedik bilimlari, samimiy ustozlik mahorati va yuksak ma’naviy fazilatlari bilan nafaqat milliy, balki xalqaro ilmiy hamjamiyatda ham chuqur hurmat qozongan. U talaba-yoshlar uchun ilhom manbayi, o‘ziga xos afg‘onshunoslik ilmiy maktabini shakllantirgan va tizimli rivojlantirgan betakror siymo sifatida e’tirof etiladi. Xolida Zikrillayevna o‘zining sermahsul faoliyati davomida nafaqat ilmiy bilimlar ulashuvchi ziyo maskani, balki yosh tadqiqotchilarni yuksak marralarga ruhlantiruvchi ma’naviy rahnama darajasiga ko‘tarilgan yetuk ustozdir.

Kaminaning Xolida Zikrillayevna bilan ilk tanishuvimiz sharqshunoslik akademik litseyida o‘qib yurgan davrimga to‘g‘ri keladi. Bir marotaba ustozning darslarida ishtirok etishimning o‘zi ilm yo‘lining naqadar qiziqarli, shu bilan birga mashaqqatli ekanini anglashimga sabab bo‘lgan. Keyinchalik universitetga tashriflar chog‘ida Eron-Afg‘on kafedrasi qoshidagi lingafon xonasiga ilk bor Xolida Zikrillayevna olib kirganlari mening ilmiy dunyoqarashimda chuqur iz qoldirgan.

Mazkur ilk taassurot mening ilm yo‘liga bog‘lanishimni va sharqshunoslik ilmiga mehr qo‘yishimda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Sharqshunoslik instituti talabasi bo‘lgan davrimdan boshlab, ustoz Xolida Zikrillayevnaning ilmiy faoliyatini muntazam kuzatib, ularning yutuqlariga havas ko‘zi bilan qaradim. Bakalavr ta’limining to‘rt yillik jarayonida professor maxsus fakultativ fanlardan saboq berganlari mening ilmiy dunyoqarashimni kengaytirib, ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishimni yanada mustahkamladi. Professor Xolida Zikrillayevna nafaqat ilmiy izlanishlari, balki ustozlik faoliyati orqali ham ko‘plab yoshlarni ilmiy yo‘lga yetaklagan, ularning dunyoqarashini shakllantirishda beqiyos hissa qo‘shgan olima sifatida e’tirof etiladi.

Mazkur yillar hayotimda ulkan maqsadlar va yutuqlarni qo‘lga kiritish uchun mustahkam poydevor bo‘lib, ilmiy faoliyatning keyingi bosqichlariga yo‘l ochdi. Shunday qilib, ustozning ta’limiy va tarbiyaviy faoliyati nafaqat ilmiy bilim berish, balki shogirdlarining hayotiy maqsadlarini shakllantirishda ham beqiyos ahamiyat kasb etgan. So‘nggi 10 yil davomida ustoz bilan bir dargohda, so‘ng bir jamoada faoliyat yuritish baxti menga nasib etganidan g‘oyatda mamnunman. Ushbu e’tiroflarga qo‘shimcha tarzda shuni aytishni istardimki, professor Xolida Zikrillayevnadek yuksak ilmiy sharafga erishish va ustoz darajasiga yetish - har bir sharqshunos olimning oliy orzusidir. Ular bilan bir safda mehnat qilish esa men uchun nafaqat kasbiy tajriba, balki hayot darsidir.

Professor Xolida Alimova sharqshunoslikning murakkab va zahmatli sohasini shunchaki kasb emas, balki butun umrini shu ilm yo‘liga bag‘ishlagan siymodir. Uning oltmish yillik faoliyati - bu faqatgina kitoblar va maqolalar to‘plami emas, balki o‘zbek afg‘onshunosligining turg‘unlikdan taraqqiyotga o‘tish davrini yoritib bergan ilm mash’alidir. Olimaning lingvistik tadqiqotlarida so‘zning shunchaki grammatik qobig‘i emas, balki uning ortidagi ilmga bo‘lgan muhabbat, ilmiz izlanishlarga

bo‘lgan intilishi ustuvorlik qiladi. Bu esa haqiqiy sharqshunosga xos bo‘lgan intuitiv sezgirlik va akademik mahorat sintezidir.

Sharqshunoslik an’analarini qadrlab, ulug‘lab va zamon talablari asosida rivojlantirish yo‘lida fidoyilik bilan mehnat qilayotgan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ko‘p sonli jamoasi, professor-o‘qituvchilari hamda shogirdlari nomidan aziz olimamizni muborak 60 yillik yubiley yoshlari bilan samimiy tabriklaymiz. Ustozimizga mustahkam sog‘liq, uzoq umr, farzandlari va nabiralarining kamolini, shogirdlarining yuksak yutuqlarini ko‘rib yurish baxtini tilaymiz.

Oybek MUHAMMAD,
TDSHU Eronshunoslik va
afg‘onshunoslik oliy maktabi doktoranti

HALIMLIK VA FIDOYILIK TIMSOLI BO‘LGAN USTOZ

Xolidapa ustoz haqida so‘z borganda, avvalo, zehnimda u kishining betakror muloyimligi va halimligi namoyon bo‘ladi. Ustozdek xushmuomala, yumshoqso‘z insonni uchratmaganman desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Talabalik davrimda ham, o‘qituvchilik faoliyatimda ham — ustoz oddiy o‘qituvchi bo‘lgan paytlarida ham, kafedra mudiri sifatida faoliyat yuritgan davrlarida ham — u kishining biror insonga qattiq gapirganini eslay olmayman. Hatto jahllari chiqqan holatlarda ham, so‘zlarni nihoyatda nozik tanlab, muloyim ohangda, lekin ta’sirchan tarzda fikr bildirganlarini ko‘rganman.

Bu jihatlari bilan ustoz go‘yo Qur’oni karimdagi Oli Imron surasining 134-oyatida ta’riflangan fazilatlarning jonli ifodasidir: “...(u taqvodor zotlar) g‘azablarini ichga yutadigan va odamlarni (xato-kamchiliklarini) afv etadigan zotlar. Alloh bunday yaxshilik qiluvchilarni sevadi”. Shuningdek, Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilingan hadisda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Albatta, Alloh muloyimdir va har bir ishda muloyimlikni yaxshi ko‘radi”, deb marhamat qilganlar (Imom Buxoriy va Muslim rivoyati). Ushbu ma’naviy mezonlar ustoz shaxsiyatida o‘zining yorqin aksini topganini ko‘rish mumkin.

Shu bois, ustozning tug‘ilganda qo‘yilgan ismlari Xolidaxon bo‘lsa-da, hayot davomida orttirgan fazilatlari asosida u kishini Halimaxon deb atash ham o‘rinlidir, deb o‘ylayman.

Ustozning fidoyiligi, o‘z sohasining yetuk mutaxassisi ekanligi va chuqur ilm sohibasi bo‘lganliklari barchaning e’tirofiga sazovordir. U kishi men uchun nafaqat ustoz, balki ilmiy yo‘limda doimiy yo‘lko‘rsatuvchi maslahatchi ham bo‘lib kelganlar. Magistraturaga kirishimda ustozning rag‘bat va tavsiyalari muhim omillardan biri bo‘lgan. Kafedradan vaqtincha

uzoqlashganimda bildirgan achinishlari, doktoranturaga kirish jarayonida bergan maslahatlari va universitetga qaytganimda samimiy quvonch bilan kutib olganlari ustozning insoniy fazilatlari naqadar yuksak ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ustoz ko‘pincha “umr qisqa, sog‘liq — omonat” ekanini ta’kidlab, ilmiy izlanishda sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslikka undaydilar. Bizni o‘zlariga yaqin insonlar sifatida ko‘rib, ana shunday samimiy va mehrli munosabatda bo‘lishlari esa o‘z navbatida bizni yanada mas’uliyat bilan ishlashga, ilm yo‘lida qat’iyat bilan harakat qilishga ruhlantiradi.

Ustozning yana bir e’tiborga molik fazilatlaridan biri — yuksak ilmiy darajaga erishib, professor unvoniga sazovor bo‘lganlari, shuningdek, katta tajribaga ega ustozlardan bo‘lishlariga qaramay, kamtarlik va mustaqillikni o‘z faoliyatlarida ustuvor tutishlaridir. Ko‘plab hollarda ayrim ustozlar tomonidan universitet talab etadigan turli hujjatlar yoki shaxsiy ishlar talaba va shogirdlarga yuklatilishi kuzatiladi. Xolidapa ustoz esa bunday yo‘l tutmaydilar. Vaholanki, shogirdlari har doim “labbay” deb xizmatga tayyor turishadi. Shunga qaramay, ustoz bu kabi masalalarda boshqalarga ortiqcha yuk bo‘lishni lozim topmay, mas’uliyatni o‘z zimmalarida olib boradilar.

Bu holat ustozning nafaqat ilmiy salohiyati, balki yuksak axloqiy fazilatlari, adolat va mehr-oqibatga asoslangan munosabatining yana bir yorqin ko‘rinishidir. Zero, bunday sifat har bir ustozda ham uchrayvermaydi va aynan shu jihati bilan Xolidapa ustoz alohida hurmat va e’tirofga loyiqdirlar.

Yakun sifatida, ustozga ilmiy faoliyatlarida yanada yuksak muvaffaqiyatlar, izlanishlarida baraka, mustahkam sog‘liq va uzoq umr tilaymiz. Shogirdlar ardog’ida doimo ana shunday yuksak fazilatli ustoz sifatida e’zozlanib yurishlari tilakdoshimiz.

Фирдавс ҲАМДАМОВ,
«Sogdiana Trans» МЧЖ етакчи мутахассиси-таржимон,
Балх вилояти, Ҳайратон шаҳри, Афғонистон

ҲОЖИ ХОНУМ ЁХУД ДОКТОР ХОНУМ

Ҳақ йўлинда ким санга бир ҳарф ўқутмиш ранж ила,
Айламак бўлмас адо онинг ҳақин юз ганж ила.
Алишер Навоий

2011-йил 5-сентабр душанба куни ТошДШИда айнан дарий-инглиз гуруҳи талабаси эканлигимдан хабар топдим. Ўша куни узтоз Холида Алимова билан 804-хонада илк бор кўришдим. Устоз ўзларини жуда мулойим овозда, самимий табассум билан таништирдилар ва бизни талаба бўлганимиз билан табриклаб: *“энди сизлар билан биз 4 йил давомида Афғонистоннинг расмий тили бўлмиш дарий тилини ўрганамиз”* – деганларида, эндигина кўришиб турган талабалар ҳаммамиз бир-биримизга қараб таажжубланиб қолдик. Кейинчалик маълум бўлди-ки, 9 нафардан ҳеч биримиз дарий тилига ариза бермаган эканмиз. Устоз Холида Алимовага шогирд бўлиш, тақдиримдаги ҳақ таолонинг менга битган марҳамати экан.

Устозни биринчи дарсларда нега энди биз Афғонистоннинг тилини ўрганишимиз керак, биз бу тилни ўрганиб қаерда ишлаймиз деган саволлар билан қийнаб қўярдик. Устоз эса ҳар доим оптимистик руҳият билан жавоб берар эдилар ва доим худонинг ҳар бир ишида ҳикмат борлигини эслатиб ўтардилар.

Талабалик даврининг биринчи йилларида аста-секин институт жамоасини ва бошқа гуруҳлар билан ўзимизни таққослаганда, энг интизомли гуруҳ дарий-инглиз ва энг меҳрибон АШТ ўқитувчиси бизни устоз бўлиб туюларди назаримизда. Кейинчалик ҳақиқатда ҳам шундай эканлигига ўзимиз амин бўлдик.

Устоз Холида Алимова билан боғлиқ илиқ хотираларимиз жуда кўп. Мен доим устоздан очиқ дарс сифатида ўқув хонасида “сладкий стол” ташкиллаштиришни илтимос қилар эдим. Рухсат текканда, хурсанд бўлиб самоваримни олиб келиб, унда Эроннинг қора муаттар чойини дамлаб, уни ҳар доим чилонзор бозоридан “сникерс” деган торти билан нуши жон қилар эдик. Устоз бизнинг илтимос ва хоҳишларимизни ҳеч вақт четда қолдирмаганлар. Бироқ дарслар ҳам ҳеч вақт режадан ортда қолмаган. Устозни дарсга келмаган ёки ушланиб қолиб, кечроқ қелганларини эслай олмайман. Ҳар бир мавзуга жуда катта масъулият ва жиддий эътибор билан ёндошган ҳолда дарсларни ўтардилар. Марҳум устоз Аҳмаджон Қуронбеков кафедра мудирлигини устоз Холида Алимовага топширганларида ҳам дарсларимизнинг сифати ҳеч қанча камаймаган. Бу эса, устознинг ўз касбининг ҳақиқий фидоийси эканидан далолат беради.

Устоз Холида Алимова биринчи курслигимизда гуруҳимизни Амир Темур музейига олиб борганлар. Экскурсия давомида кўзимизга тушган нарсани дарийчаси нима бўлади дея сўраб устозни тинч қўймаганмиз. Гарчанд музей билан таниш бўлсак-да, устоз билан келганимиз учун бўла керак ҳудди биринчи бор ташриф буюргандек катта қизиқиш билан томоша қилганмиз. Бу сайр биз учун ҳали-ҳануз унутилмас воқеа бўлиб қолган.

Эронда эркаклар ўзидан ёши катта аёлларга эҳтиром билдирган ҳолда ва ҳаж сафарига бориш насиб этсин дея “Ҳожи хонум” деб чақиришади. Кунларнинг бирида устозга *“сизга худди эронликлардек Ҳожи хонум дея ҳурмат билан мурожаат қилмоқчиман”* – деганимда жуда илиқ қабул қилдилар. Ўша пайтдан бошлаб устозга доим “Ҳожи хонум” дея мурожаат қилардим. 2019 - йилда устоз филология фанлари доктори даражасини олганларида, у кишини чин қалбдан табриклаб, *“энди сизга Ҳожи хонум эмас, Доктор хонум деб мурожаат қилишим керак”* – деб кулиб айтсам,

устоз пастроқ овозда, аммо бутун вужудлари билан ҳеч иккиланмай *“менга биринчи вариантингиз кўпроқ ёқади”* – дея кулиб қўйдилар. Устознинг бу жавобларидан жуда таъсирландим. Бундай жавоб у кишининг ҳаётдаги диний-ирфоний масалаларга бўлган муносабатларини билдирарди. Бу эса устознинг нафақат дунёвий илм соҳиби, балки юқори исломий маърифат эгаси эканлигидан далолат беради.

Бакалавр даври жуда тез ўтди ва меҳнат фаолиятим бошланди. Ҳозирда Ўзбекистоннинг Афғонистон ҳудудида фаолият олиб бораётган нуфузли ва ўта масъулиятли корхоналаридан бирида ишлаяпман. Ҳар куни афғон фуқаролари билан мулоқотда бўламан. Учрашувларда ёзма, оғзаки таржима қилаётганимда устоз ва у кишининг сабоқлари доим ёдимга келади. Таржимада ўзингиздан сўз кўшманглар, бирор сўзни ҳам қолдириб кетманглар дея такрор-такрор айтардилар. Таржима вақтида таржимондаги масъулият ва аниқлик, учрашувдаги тарафларнинг муваффақиятини деярли тўлиқ белгилаб беради деб ўйлайман. Талабадаги, шахсан мендаги айнан шу жиҳатларни шакилланишига устоз Холида Алимова 4 йил давомида жуда жиддий ёндашганлар.

Узтоз билан боғлиқ самимий ва илиқ хотираларимиз жуда кўп. Лекин бир нарсани айтиш жоиз-ки, бугунги кунда келиб, мутахассис сифатида ижтимоий ва молиявий ютуқларимизга, барча муваффақиятларимизга, ҳамда эришган мартабаларимизга тангри устоз Холида Алмовани сабабчи қилиб қўйганлигини тушундим. Шу билан бирга, устознинг *“ҳар бир ишда ҳикмат бор”* деганлари бор-бор ёдимга келади.

2011-2015 йилларда ўқиган дарий-инглиз гуруҳининг барча талабалари ва шахсан ўз номимдан устозни муборак ёшга тўлганлик билан чин дилдан ва самимона табрик изҳор этаман.

Азиз устозим, сизга дунёдаги барча эзгу тилакларни билдириб қоламан. Илм ва маърифат йўлидаги

хизматларингизнинг роҳатини кўриб юринг. Сиз доимо бизнинг ардоғимизда, ёдимизда ва қалбимиздасиз! Сизни яқин фурсатда Ҳаж зиёратидан кутиб олиб табриклаш насиб этишини парвардигордан сўраб қоламан. Ишонаман-ки, бу нашрда жой олмаган хотираларимиз кейинги юбилейингизнинг хотира тўпламларидан албатта жой олади.

Afzuna NAZAROVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“QALBIMDA BIR NUR BOR — U SIZDAN, USTOZ…”

Sharqshunoslik... Jahon tillari universitetidan uch yillik “yiqilish”lardan keyin hayotimda quyosh kabi balqqan, kelajagimni belgilab bergan, faqat va faqat yaxshi insonlarni uchrashtirgan maskan. 13yildan buyon o’ziga ohanrabodek tortib turgan, ochiq chehralar, qaynoq mehrlar, har burchagida ilmiy atmosferani his qilish mumkin bo’lgan samimiy tabassumlar makoni...

“Zdaniya”lari o’zgarsa-da insonlari (insoniyligi, oqibati) o’zgarmaganim, banogoh ko’changdan o’tsam, ko’nglim allanechuk bo’lib, qayerda bo’lsam ham senga talpinganim, qalbimning bir chetidan ipsiz bog’lab turgan sehrli dunyoyimsan!

Qanchalar samimiy insonlarni uchratdim, qanchalar ilmda tengsiz insonlar bilan tanishdim bu yerda. Birlarini ustozim, birlarini onam, otam, akam, opam, do’stim deb bildim...

Eng avvalida shu maskanga mehr uyg’otgan insonim, ilm ummonida suzishga o’rgatgan Ustozim – Alimova Xolida opa Zikrillayevna!

Ilk marta partaga sekin o’tqizib,
Jajji qo’lginamga qalam tutqizib,
Menga harf o’rgatgan mehri jahonni,
Aslo unutmasman o’sha insonni!

1-sinfga borganimda shu she’rni ayam o’rgatgandilar, 1-ustozimga aytib berishim uchun… 1-ustoz bitta bo’ladi deb o’ylagan bo’lsam kerakki shu bilan bu she’rni eslasam, faqat birinchi ustozim Gulsum To’rayeva esimga kelardilar. Ammo yillar o’tib to’rt yillik urinishlardan keyin ilk marta talaba bo’lganimda bu she’r yana bir ustozimga atalganligini bildim.

Biz respublikaning uzoq-yaqinidan kelgan 7 qiz-yigitlar 2011-2015-yil Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining (u vaqtlar institut edi) Sharq filologiyasi fakulteti arab tili

guruhida o’qish uchun kelgan edik. Ammo taqdir ekan, o’qish kunining 1-haftasi oxirida taqsimot bo’ldi-yu bizni dariy-ingliz guruhiga kiritishdi. 8-qavat 804-xona… Hammamiz hayratda, “qanaqa til bu?”, “qaysi davlatni tili?”, “nomini nima deyishdi o’zi, duru tili deyishdimi?” har birimizni o’ylantirgan, goh oshkora bir-birimizdan, goh ichimizda o’zimizdan so’rayotgan savollarimiz edi. Shu on bizga dariy tili ustozi etib Alimova Xolida opa Zikrillayevnani tanishtirishdi. Qalbimizga quyoshdek balqib, musofir yurtda guyoki onamizdek bo’lib kirib keldilar. Albatta jajji qo’lginamiz bo’lmasa-da ammo ilk marta dariy alifbosi bilan tanishtirib, harflarini yozishni o’rgatgan ustozimiz. Kechagidek esimda hamma-hammasi… alifbo daftar tuttirib avval o’zlari yozib ko’rsatganlari xuddi birinchi sinf bolasiga yozib ko’rsatilganidek edi.

Hammamiz arab tilini o’rganish uchun kirgan, arab tilini o’rganib nimadir ishlar, rejalar qilib qo’ygan bo’lsak-da, ammo dariy tiliga mehrimiz tushdi. Shuning uchun bo’lsa kerakki, hozir guruhimizning 3 nafari ustozimiz bilan bir joydamiz, yana birimiz – Firdavs ham dariy tilidan tarjimonlik qilyapti.

Guruh taqsimotining 2-kuni dariy tili darsida Ustozim bizga dariy tili, Afg’oniston haqida tanishtiruv darsini o’tyaptilar, mening hayolimda esa “nahotki, shu “qandaydir” afg’on tilida o’qiymanmi?” – deb sassiz, ko’zimdan yoshlar dumalab ketyapti, “keyin nima ish qilaman?” deb, xafa bo’lib, rosa yig’lagandim o’shanda. Ne ajabki, ayni kunlarga kelib o’rnim shu dargohda, hayotim shu dariy tili va adabiyoti bilan bog’langan ekan. Bu til mening bir bo’lagimga, mehrim tushgan suyuklilarimdan biriga aylandi. Bu mehrni siz uyg’otdingiz, Ustoz. Buning uchun doimo ta’zimdaman sizga!

Siz doim bizni qo’llab-quvvatlab kelgansiz. 4 yillik o’qishimizning deyarli har kuni siz bilan, sizning bergan ta’limingiz, nasihatlaringiz bilan o’tdi desam xato bo’lmaydi. Uyga vazifani ommaviy bajarmaganimizda vaziyatdan chiqish uchun so’zamol kursdoshimiz Firdavs og’aga so’z berganimizda ham, sezib qolib “shunday qilib hozir hech kim uyga vazifani

bajarmaganmi?” – deb hayron qarab turardingiz. Hecham qattiq urishmay, faqat hafsalasiz bo’lib qolganingiz bizga yetar, keyingi safar sizni xafa qilmaslik uchungina vazifani bajarardik. Hech bo’lmaganda 2 kishi bajarar, qolganlar ulardan ko’chirar edi.

Aytib berganingiz yodimda: 1-kursligimizda “ko’chada (institut hovlisida) bir yigit to’xtatib, “Siz Afzunani oyisimasmisiz, rosa o’xsharkansiz” – deb aytib qoldi”, man “man Afzunaga emas, Afzuna manga o’xshaydi” dedim” deb aytgan edingiz. Iloho siz kabi ilmda, mehrda, insoniylikda tengsiz, shogirdlarning sevimli ustozi bo’lib yurish nasib etsin, Ustoz. Sizdan nafaqat bilim oldik, balki muomalada nazokat sehrini ham o’rgandik.

Bakalavrdan keyin magistratura, keyin PhD doktoranturada ham doim ustozimning maslahatlari bilan qadam tashladim. Esimda, bakalavrda kompyuterda ishlasak yonimizda turib eng elementar, hamma ham e’tibor bermaydigan, ammo matnni chiroyli qilib, ishni osonlashtiradugan texnik ishlarigacha erinmay o’rgatib kelganlar. PhDda tilshunoslikdan emas adabiyotshunoslik bo’yicha ilmiy ish qilayotgan bo’lsam ham har bir qadamimda maslahatlariga suyana oladigan mehrli tog’im Ustozim. Nafaqat o’qish, balki shahsiy hayotimda ham doimiy maslahatlari, yo’l-yo’riqlari bilan hayotimni yo’lga qo’ya oldim. Men hech kimga aytolmagan gaplarimni ham Ustozim – Xolida opamlarga ayta olar va maslahat so’rab keldim. Shu tahlit har doim yonimizda, jonimizda bo’lgan Ustozimizsiz! Mehringiz taftida hayotni o’rgandik, ulg‘aydik.

Ilohim doimo sog‘-salomat bo‘lib, shogirdlaringiz ardog‘ida, bizning yo‘lboshchimiz bo‘lib yuring. Sizni judayam yaxshi ko’raman va Allohga beadad shukrlar deymanki, hayot yo’lim sizdek inson bilan kesishdi va duo qilamanki, bu yo’l hech qachon uzilmasin. Hadsiz so’raymanki, baxtimizga doimo sog‘-salomat va xursandchilikda yuring, Ustoz!

Husniddin INOMIDDINOV,
TDSHU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik
oliy maktabi katta o‘qituvchisi

TOSHKENTDAGI ONAM!

2011-yil azim Toshkentga ikkinchi marta talaba deb atalmish nomga erishish uchun keldim. Chunki 2010-yil ham Toshkent davlat sharshunoslik institutining “Jahon siyosati” yo‘nalishiga hujjat topshirib, imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘ta olmagan edim. O‘tgan bir yil davomida yana o‘zimni ustimda ishlab, yana shu institutning Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishiga, arab tilini o‘rganaman deb hujjatlarni topshirdim. Bu yil Allohga ming shukr talaba bo‘ldim, lekin arab tili emas, turk tiliga ballim to‘g‘ri kelibdi. U paytlarda to‘plagan ballingizga qarab tillarga taqsimlanardi. 2011-yil 5-sentabrdan o‘qish boshlandi, guruh bilan tanishdim qarasam butun guruhda bitta men o‘g‘il bola, qolganlar hammasi qizlar. O‘zimga ham noqulay bo‘ldi shuncha qizni orasida o‘qish, ikkinchi tarafdan dadamga turk tili o‘rganishim yoqmadi. Hujjatlarni topshirgani kelganda dadam bilan birga kelgandik, dadam Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishida pashtu, dariy, urdu tillari borligini ko‘rgan ekanlar. Turk tilidan shu uchta tilning biriga o‘tasan, deb maslahat berdilar va biz bir kursdoshim bilan “tilimiz”ni almashdik. U paytlar boshqa sharq tilining bir talabasi sizning sharq tilingizga o‘tmoqchi bo‘lsa ikki kishini arizasi olinardi va masala shu yerda hal qilinardi. Xullas bu jarayonga bir oy vaqt ketdi va men oktabr oyidan dariy tili guruhiga kelib qo‘shildim. Darsga kirdim, qanday til ekan, qaysi davlatning tili ekan, deb o‘ylab turganimda hammadan ham bu til o‘qituvchisi diqqatimni tortdi. Chuqur bilim, yuksak ma’naviyat, halim, mehribon, oq ko‘ngil va latofatli ustoz darsni boshladi. Bo‘ldi shu kundan boshlab men dariy tiliga va uning ustoziga mehr qo‘ydim. Bir oydan oshiq darslardan qolib ketgan bo‘lsam ham, lekin bu ustozning yuziga qarab vazifa qilmadim yoki bilmadim

deyishdan odam uyalardi. Shu zaylda darslarga kirishib ketdik, ustozning mehri guruhga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan edi. 2011-yil Toshkentga kelganimda o‘z uyimdan, oilamdan, yaqinlarimdan, yashash joyimdan birinchi marta uzoqqa chiqqan edim. U paytda yosh bola edik, garchi 19 yoshga kirgan bo‘lsamda, 19 yillik ona mehridan birinchi marta uzoqlashgan edim. Turk tilidan dariy tiliga o‘tguncha bir oy ham yaqinlarni topish muammosi bir bo‘lsa, sharq tilini almashtirish ikkinchi muammo bo‘ldi va bu orada men juda ko‘p qiynaldim. Asosiy sharq tili dariy tiliga o‘zgarishi bilan hammasi sekin-sekin iziga tushdi. Ichki xotirjamlik, onamdek mehribon inson meni kutib oldi va hozirda ham onamdek yonimda turadilar. Onamdek mehr beradilar. Alloh umrlarini uzoq qilsin.

To‘rt yil birga bitta guruhda o‘qigan bo‘lsak kursdoshlarimiz bilan biror marta oramizdan yomon gap o‘tmadi. Buning sababi ustozning bizga bergan tarbiyasi va odobi deb bilaman. Darsga kech kelganimni eslay olmayman, lekin vazifa qilmagan bir kunimda ham (albatta uning sababi bor edi) ustoz chunchaki qaraganlar va besh-olti soniya jim turganlar shuni o‘zi kifoya qilgan. Guruh bo‘lib biror marta ustozning darsiga kirmaslik yoki darsdan qochish haqida hayolimizga ham kelmagan. Darsga kirar edik va hamma e’tiborimizni ustozga qaratar edik. 2012-yil Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasi (hozirgi Eronshunoslik va afg‘onshunoslik oliy maktabi) mudiri lavozimiga tayinlandilar. Biz u paytda 2-kurs edik. 2018-yilga qadar ushbu kafedrani boshqargan bo‘lsalar, aniq eslayman biror marta darsimizda na sifat tushgan, na biror bir yengillik bo‘lgan. Har doimgidek katta mas’uliyat va e’tibor bilan darslar davom etgan. To‘g‘risini aytganda, magistraturaga ham shu ustozni yaxshi ko‘rib, oldilaridan ketgim kemaganidan topshirganman.

2015-2017-yillarda magistratura bosqichining deyarli 50 foiz darslarini ustoz bilan o‘tdik. Magistraturada ham bakalavr bosqichida qanday ustozdan qo‘rqib, hurmat qilib, sevib dars o‘tgan bo‘lsak, vaziyat shu zaylda davom etdi. Ham bakalavr, ham magistrlik ishimda ilmiy rahbarim bo‘ldilar. Xudo xohlasa,

keying ilmiy ishimni ham ustozni yordamlari, ko‘maklari, maslahatlari, duolari bilan himoya qilish nasib qilsin.

Ustoz Xolida Alimovani umrlari uzoq, ilm yo‘lidagi mehnatlari hamisha ravshan, ikki dunyolari saodatli bo‘lsin. Bizga ham sizni yo‘lingizni Yaratgan bersin.

Kamola JUMAYEVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SAMIMIY, MEHRIBON, JONKUYAR USTOZ

Hayotda shunday insonlarni uchratamizki, ular bilan ko‘rishganimizda ko‘zlarda o‘zgacha quvonch, qalblarda surur va hayajon-la gaplashamiz. Ularning samimiy va iliq munosabatlari ko‘rinmas rishtalar orqali bizni o‘ziga bog‘layveradi. Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori Alimova Xolida Zikrillayevnani men xuddi shunday xotiralar bilan eslayman…

2014 – yil, avgust oyining o‘rtalarida talaba bo‘lish baxtiga musharraf bo‘lganman. O‘sha zamonlar kimning o‘g‘li yoki qizi talaba bo‘lsa, ayniqsa poytaxtning eng nufuzli oliygohlaridan biriga o‘qishga kirsa, bu nafaqat bir oilaning, balki butun mahallaning faxri, iftixori bo‘lardi. Birgina o‘qishga kirish yetti mahalla oralab dong‘i ketgan mashhur inson bo‘lishizga sabab bo‘lgan yillar edi… Ha, men o‘sha zamonlarda Toshkentda o‘qiyman deb harakat qilgan avlodlardan biriman. Esimda, talabalikning ilk kunlaridan bizga zabardast ustozlar, o‘z sohasining yetuk mutaxassislari dars bera boshlagan. Shuning uchun bu ilmiy va adabiy muhit meni o‘ziga chorlayvergan. Buning zamirida Toshkent davlat sharqshunoslik instituti va albatta, Eron-Afg‘on kaferasi ustozlarining beminnat mehnatlari turibdi!

Xolida opa Alimova 2012-2018-yillar Eron-Afg‘on kaferasining mudiri bo‘lganlar. Talabalikning oltin davrlari bevosita uztoz bilan bog‘liq holda o‘tgan. Ustoz kafedra mudiri bo‘lgan chog‘lari biz u kishidan ko‘p narsa o‘rgandik. Avvalo, sharqshunos kim? U o‘zini qanday tutushi kerak! U qanday odob va etiketga rioya qilishi kerak. “Eronshunos bo‘lish baxti va bu oliy dargoh bitiruvchilari kimlar bo‘lganligi, biz talabalar buni yoddan chiqarmagan holda shunga xos o‘zimizni tutishimiz lozimligi” Xolida opa ma’ruzalaridan bizga yod bo‘lgan. O‘sha

yillar Xolida opa doim talabalari haqida qayg‘urganlari, jon kuydirganlarini ko‘rganman va har doim buni his qilib yurganman. Esimda, biz talabalar qandaydir muammoga duch kelganimizda Xolida opa bizni eshitib, mushohada bilan javob berishlari, bizni to‘g‘ri eshiklarga yo‘naltirib, har doim masalaga yechim berishlari kishi diqqatini o‘ziga tortardi. Ustoz Eron-Afg‘on kafedrasi talabalar uchun tez-tez uchrashuvlar o‘tkazib, bizni o‘sha paytdagi yangiliklar va zamonasining dolzabr masalalaridan ogohlantirardilar va albatta bunday yangiliklarga befarq qaramaslikka da’vat etardilar. Bunday uchrashuvlardan men o‘zimga juda xo‘p va xo‘p xulosalar olganman. Ustozning da’vatlaridan ilmga qiziqishim va rag‘batim oshganini yaxshi xotirlayman. Shuning uchun bo‘lsa kerak institut miqyosidagi turli tadbirlar va konferensiyalarga faol qatnashib yurganman. Hozir erishgan natijalarimga Xolida opaning hissalari bor deb bilaman, haqlariga duo qilaman!

Men Alimova Xolida Zikrillayevnadagi samimiylik, mehribonlik, fidoiy va jonkuyarlik sifatlarini hamda har bir ishga mas’uliyat bilan yondashishlarini juda qadrlayman. Xolida opa Alimovaning shogirdlari bo‘lmasam-da, o‘z vaqtida u kishining ilmiy maktablarini ko‘rgan, suhbatlarini eshitgan va aytganlariga ma’lum darajada rioya qilgan avlodlardan biriman deya olaman.

Yaqinda ilmiy ishim bilan bog‘liq muammoga duch kelganimda, Alimova Xolida Zikrillayevna shu masalaning ustasi ekanliklarini bildim. Ustoz oldilariga borganimda u kishi xuddi avvalgiday meni tinglab, masalaning mohiyatini aniq, tiniq va ravon tushuntiribgina qolmay, diqqatimni aynan nimalarga qaratishim kerakligini ta’kidladilar. Juda qisqa davom etgan suhbat davomida u kishi haqidagi fikrlarim to‘g‘ri ekanligiga amin bo‘ldim! Ta’kidlash joizki, ustozning vaqni qadrlashlari, oldilariga kelgan ilm ahlini quruq jo‘natmaslik sifatlari hammaga ham xos emas.

Alimova Xolida Zikrillayevnaga yuksak ehtiromimni izhor qilgan holda, ilm yo‘lida ziyo taratishdan tolmasliklarini, bu

sharafli kasb ortidan doim shogirdlari ardog‘ida yurishlarini tilab qolaman. Siz kabi ustozlar bor ekan ilm chirog‘i hech o‘chmas, bu buloq also qurimas! Xolida opajon 60 yoshingiz muborak bo‘lsin deya, sizga eng samimiy tilaklarimni izhor etaman!

Dilorom SAIDORIPOVA,
TDSHU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik
oliy maktabi katta o‘qituvchisi

ILMGA BAG‘SHIDA UMR SOHIBASI

Ilm yo‘lini tanlagan inson o‘z umrini nafaqat o‘z kamoloti, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham bag‘ishlaydi. Umrini ilmga bag‘ishlagan inson esa doimo hurmat va e’tirofga loyiqdir. Shunday insonlardan biri – filologiya fanlari doktori, professor Alimova Xolida Zikrillayevnadir.

Ustozimiz nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi murabbiy sifatida ham hurmat qozongan. Ularning mehnatsevarligi, tartib-intizomi va mas’uliyat hissi barchamiz uchun ibratdir. U har bir topshiriqqa jiddiy yondashib, uni mukammal bajarishga intiladi. Ustozimizning ilmiy faoliyati ham tahsinga sazovor bo‘lib, u yaratgan ilmiy ishlar, maqolalar va qo‘llanmalar o‘z sohasi rivojiga munosib hissa qo‘shmoqda.

Ustozimiz Xolida Zikrillayevna haqida gap ketganida, ularning “bolajonim” deb mehribonchilik bilan o‘rgatishlari, xatolarimizni yotig‘i bilan, erinmasdan tushuntirib berishlari va to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishlari, samimiyliklari ochiqko‘ngilliklari ko‘z oldimda gavadalandi. Ulardek professor olima ayol bo‘lishni orzu qilaman. Shunchaki professor bo‘lishni emas, ulardek har tomonlama ilmli, bilimli, teran fikrli olima bo‘lishni xohlayman.

Har ko‘rishganimizda ko‘zlari porlab hol-ahvol so‘rab turishlari, kamtarlik, hokisorlik bilan muomala qilishlari inson qalbiga iliqlik bag‘ishlaydi. Ustozning bunday samimiyligi har bir suhbatdoshni o‘ziga yaqinlashtiradi, ularga nisbatan hurmat va mehr tuyg‘ularini yanada mustahkamlaydi. Ayniqsa, har bir kishining holidan xabar olishga intilishi, kichik e’tiborlar orqali ham katta mehr ko‘rsatishi uning yuksak insoniy fazilatlaridan dalolat beradi.

So‘zim yakunida ustozimizga mustahkam sog‘liq, uzoq umr, ilmiy faoliyatida yanada ulkan yutuqlar tilab qolaman. Shogirdlaringiz safi kengayib, mehnatingiz samarasi ko‘p bo‘lsin!

Kibriyoxon SULTONOVA,
Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi

MUHTARAMA USTOZIMIZ ALIMOVA XOLIDA ZIKRILLAYEVNAGA

Muhtaram ustozimiz inson sifatida juda ajoyib inson, mehribon va qalbidaryo, bag‘rikeng va ochiqko‘ngil ayol hisoblanadilar. Shu xislatlari tufayli ham doimo qalbimizda va duolarimizdadirlar. Ustozni juda hurmat qilaman va yaxshi ko‘raman. Sharqshunoslik universitetidagi har bir ustozimizning qalbimizda o‘z o‘rinlari bor. Negaligini bilmadimu, lekin bizni universitetdagi ustozlar tomonidan mehr, hurmat, talabalarga nisbatan ajralib turadigan samimiyat, qo‘llab-quvvatlash va oqibat juda o‘zgacha. Shuning uchun ham menimcha, universitetimiz talabalari har sohada ilg‘or va har qaysi tashkilotda o‘z o‘rniga ega yetuk mutaxasis hisoblanishadi.

Mehrimiz bo‘lakcha ustozlarimizdan biri Xolida apa haqida gap ketar ekan, ko‘z oldimizga latofatli, onamizdek mehribon bir go‘zal ayol keladi. Xolida apa shunaqa yurakdan bor ilmlarini, tajribalarini bo‘lishib dars o‘tar edilar. Juda ko‘p xotiralarimiz bor ustozimiz haqida. Shulardan ba’zilarini sizlar bilan bo‘lishmoqchi edim. Bir gaplari doimo yodimda va hali hanuz o‘zim ham talabalarimga shuni aytib o‘tib ketaman, ustozim aytgan edilar deb:

-Agar siz non topib yemoqchi bo‘lsangiz, o‘z mutaxasisligizni mukammal bilishingiz kerak. Agar o‘sha nonga asal va sarig‘yog‘ surtib yemoqchi bo‘lsangiz shu mutaxasisligingizga kamida bitta yoki 2-3 ta tilni qo‘shib o‘rganishingiz kerak.

Mana shu gaplari, iboralari biz shogirdlariga o‘z xohishimiz bilan rivojlanib, ko‘proq kitob o‘qishga intiltirgan edi.

Shuningdek, bir darsda dariy tilidan bir hikoyani tarjima qilayotgan edik. Keyin men “vooooy” deb xafa bo‘lib o‘qib qoldim.

Ustoz “Ha Kibriyo, nima bo‘ldi?” dedilar. Men esa, “-ustoz, dadasi vafot etib qoldi” dedim. Ya’ni hikoya qahramonining otasi olamdan o‘tgan edi. Shunda ustoz javob berdilar:

-Voy Kibriyo, ota-onangizga raxmat. Sizni gard yuqtirmay katta qilishganda.- deb kulib qo‘ydilar.

Men esa:

-Voy ustozjon sizga ham raxmat. – dedim tushunmasdan.

Endi tushunib boryapmanki, ustoz mening ota-onam meni qanchalik mehr-muruvvat bilan katta qilib, voyaga yetkazishganini aytgan ekanlar. Shuningdek, ota-onamdan qanchalik minnatdor bo‘lishim kerakligini ham ta’kidlab o‘tgan ekanlar. Muxtarama ustozimizning bizni har bir gapimizdan fikrimizni ilg‘ab olishlari ham, ta’lim berish bilan bir qatorda tarbiya ham berishlari va shu tarbiya jarayonida o‘zlari eng buyuk namuna bo‘lganliklarini juda qadrlayman. Shunday qalbi ummon insonlardan dars olganimdan cheksiz minnatdorman.

Shuningdek, muxtarama ustozimiz talabalarga nisbatan shunaqangi samimiy edilarki, hattoki davomat olganda ham orqasidan sizlab gapirishni ustozdan o‘rganganman. Masalan, “-Aliyeva kelmadiLARmi? Kasal bo‘libdiLARmi? Tuzalib ketsinLAR..” kabi.

Ustozimiz doim ko‘p kitob o‘qishning foydalari haqida aytardilar va bizga eng kerakli namuna sifatida Eron islom respublikasidagi fuqarolarning qanchalar ko‘p kitob o‘qishini ta’kidlardilar. “-Bizda rasta-rasta kiyim bozor bor bo‘lsa, Eronda rasta-rasta kitob bozorlari bor”- der edilar.

Muxtarama ustozimiz Xolida apa qalbimizdan, nafaqat bir ilmli, olima ustoz sifatida balki maftunkor va latofatli, haqiqiy oqila ayollikning go‘zal bir timsoli sifatida ham joy egallaganlar. Ustozimizni juda yaxshi ko‘raman, hurmat qilaman va taqlid qilaman. (Shuning uchun ham ustozga o‘xshay deb har doim ko‘zoynak taqib yuraman))…) Muxtarama ustozimizdan Alloh rozi bo’lsin, umrlari uzoq, martabalari bundanda yuksak bo’lib boraversin.

Shahlo NARZULLAYEVA,
TDSHU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik
oliy maktabi tadqiqotchisi

ILM VA MEHR UYG‘UNLIGI

Bugungi kunda jamiyat hayoti va taraqqiyotining omili yoshlarning ma’naviy ta’lim tarbiyasida ustozlarning – olimalarning ishtiroki katta ahamiyatga egadir. Buyuk ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat:“Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim”, deb yozgan edi.

Ayol barcha jabhalarning tamal toshidir. Ayniqsa ayol ilmli, ta’limi yetuk bo‘lsa, jamiyat hayoti ham ilmli va salohiyatli shaxslarga to‘la bo‘ladi. Mana shunday ilm yo‘lida o‘z hayotini bag‘ishlagan olima ayollardan biri ustozimiz Xolida Alimovadir.

Afg‘onshunoslikdagi yagona fan doktori, professor Alimova Xolida Zikrillayevna bugungi kunga qadar tilshunoslik ilmini keng qamrovli darajada tolibi ilmlarga yetkazish bilan birga fanga ilmiy yangiliklar kiritib kelmoqda.

Hozirda yozadiganlarim ustozimizning ilmiy ishlariga aloqador emas, balki biz shogirdlarning xotiramizda qolgan mehr va samimiylik yo‘g‘rilgan lahzalardan kichik bir parchadir.

Ushbu voqea bizning guruhimiz 2-kurs, bakalavrlik vaqtida, 2020-yil 3-may kuni, aynan ustozning tug‘ilgan kunlari bo‘lgan kunda bo‘lib o‘tgan edi.

Guruhimiz bilan yig‘ilishib Xolida opaga qanday sovg‘a olishni ancha “muhokama” qilgan edik. O‘sha vaqtda o‘n bitta talabaning o‘n bir xil fikridan so‘ng, ustozga oladigan sovg‘amizni kelishib olgandik.

Ustoz darsga keladigan vaqtlari doskamizga “Tug‘ilgan kuningiz muborak bo‘lsin!” degan yozuvni dariy tilida yozish va bezatish ham biz talabalar uchun juda hayajonli bo‘lgan edi. Ustoz kirib kelishlari bilan barchamiz yosh bolalarcha bir barakayiga “Tug‘ilgan kuningiz bilan!” deya shovqin-suron bilan tabrikladik. Albattaki, mehribon ustozim kutilmagan

tabrikdan juda sevindilar. Keyin biz ustozga dil izhorlarimiz bilan birga olgan hadyamizni berdik. Xolida opam samimiy tabrikdan xursand edilar, ammo bergan sovg‘amizni olishdan juda xijolat bo‘ldilar. Olingan hadyamiz ham aslida juda oddiy, bitta kitob va gul edi xolos. Ustozim ming xijolatla kitob va gulni oldilar-u, so‘ngida o‘zining samimiy bir gaplarini bizga aytdilar: “Bolajonlarim, sizlar mening farzandlarim qatoridasizlar! Bugungi e’tiboringiz va tabrigingiz uchun barchangizdan minnatdorman! Lekin endi bunday sovg‘a olib kelmang. Ota-onangiz sizning “kontragingizni” to‘lab, sizga imkon qadar yaxshi sharoit yaratib berishga harakat qilishadi. Sizning shu yerda bekam-u ko‘st ilm olishingiz uchun mablag‘ bilan ta’minlaydi. Ana shu pulni ilmingiz va o‘zingiz uchun ishlating. Sovg‘a olamiz deb, pulingizni xarajat qilmang! Men sizlarni shundoq ham juda yaxshi ko‘raman!” deya gapirib, samimiy jilmayib turardilar.

Yuqoridagi jumlalar, balki oddiy so‘zlardir. Biroq biz shogirdlar xotirasida ustozimizning bu qadar oddiy, samimiy va mehrli so‘zlari bir umrga saqlanib qolgan edi. Yozganlarim aslida “Dengizdan tomchi” deganlaridek, ustoz bilan o‘tgan yillarimizdagi mehrli lahzalardan kichik bir xotira edi xolos.

Mohlaroyim MUXAMEDOVA,
TDSHU Filologiya va tillarni o‘qitish
(dariy tili) yo‘nalishi 2025-yil bitiruvchisi

HURMATLI VA MUHTARAM USTOZIM XOLIDA ZIKRILLAYEVNA ALIMOVA!

Xolida Alimova Zikrillayevna bizning jonkuyar va qalbi doimo mehr- muruvvatga limmo-lim ustozim Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 4 yil o’qigan bo’lsam,ustozimiz dariy tilini men va kursdoshlarimga astoydil o’rgatishga harakat qilib kelganlar. Bizga 3- kursdan dars bera boshlaganlar men u paytlar o’zimni dariy tilidan yaxshi bilaman deb o’ylab yurar edim toki bizga Xolida Alimova Zikrillayevna ustozimiz kirgunlaricha. Bizga har bir grammatikani o’rgatgan chog’larida o’zimni xuddi okean oqimiga tushib qolgandek his qilganman. Matnlarni shunday chiroyli va ravon o’qir edilar xuddi Afg’on ustozi o’qib berayotgandek tuyular edi. Shu vaqtgacha bunday chiroyli va ravon nutq sohibasini umrim bino uchratmaganman. Xatto uyimdagilar ham lol qolishgan. Menga har bir darslari yoqadi. Biz bu ustozdan nafaqat til o’rgandik, balki o’qituvchi qanday bo’lishi kerakligini ham bilib oldik. Yana bir voqeani yozar ekanman, uni eslamaslikni sira ham ilojisi yo’q. Talabalik yilllarimizda men qattiq betob bo’lib qolardim, shunda ustozimiz mendan rossa xavotirlangan edilar va men tuzalishim uchun jon kuydirib maslahatlar berganlar, bizning jonkuyar ustozimiz. Har doim ochiq chehra va tabassum bilan bizni kutib olar edilar va a’lo kayfiyatda dars o’tar edilar. Biror- bir mavzuni yoki vazifani tushunmay qolsak, maydalab birma-bir tushunmagunimizcha tushuntirib berar edilar. Hech qachon ortga surmasdilar, bizga hamisha xushmuomilada bo’lganlar. 3-kursda sharq tillari bo’yicha kurs ishi yozishimiz kerak edi. Bu bizning ilk kurs ishimiz bo’lgandi. Shuning uchun biz uni

qanday yozishni ham bilmasdik shunda ustozimiz bizga boshidan oxirgacha ilmiy tarzda chiroyli qilib tushuntirib berganlar. Bizning guruhimizni hamisha qo'llab- quvvatlab kelganlar. Bizga xuddi onamizdek mehribon bo'lganlar.Bizda qandaydir muommolarimiz bo'lgan bo'lsa uni yechimini doimo topishga va maslahatlar berishga harakat qilganlar. Biz o'zimizga ustozimiz Xolida Alimova Zikrillayevnani naqat ustoz deb bilamiz, balki ilm chashmasi deb ham ayta olamiz. Universetetda biz bilim olibgina qolmay haqiqiy o'qituvchi qanday bo'lishi kerakligini ham o'rganib oldik. Ustoz bilan o'tgan juda ham ko'p go'zal va shirin xotiralarimiz bor. Men ustozimizni ilm cho'qqisining sohibasi deb bilaman va shu ustozimizdek o'qituvchi bo'lishga astoydil harakat qilyapman.Ustozimiz doimo bizning xotiramizda serqirra va xushmuomila, go'zal xulqli inson bo'lib qoladilar. Shunday o'qituvchi dars berganlaridan faxrlanamiz.

Toxirbek KENJABOYEV,
TDSHU Filologiya va tillarni o‘qitish
(dariy tili) yo‘nalishi 2025-yil bitiruvchisi
“APEX INSURANCE” AJ xodimi

MUSLIHDOR!

Amir Temur xiyobonidan Mirzo Ulug‘bek nomidagi metro bekatiga turli yo‘nalishlar bo‘ylab yetib kelish mumkin. Shubhasiz, bu yo‘lda bir necha bor to‘xtashga majbur bo‘lasan kishi. Ana o‘sha har bir to‘xtagan joying bekat deb nomlanadi! Ushbu yo‘nalishlarni, albatta, har bir shaxs o‘ziga maqbulini tanlash imkoniyatiga ega!

Aslida inson umri ham hayot yo‘li deb nomlanishi bejiz emas. 20 yoshlik kaminaning ham navbatdagi bekatim Sharqshunoslik edi. Ta’lim ko‘chasiga kirganimizda bizga universitetning eng yaxshi ustozlari yo‘l ko‘rsatuvchilik qilishdi. Ularga behad tashakkur aytaman. Men chiqqan yo‘nalish bosh “haydovchi”laridan biri Professor Xolida ustoz Alimova edilar! Ustozning boshqa odamlardan ajralib turadigan katta farqlaridan biri, ustoz inson bo‘la olganlar! Qolgan insonlardan ustun jihatlari Ustoz ham bo‘la olganlar! Aslida topilish mushkulligi muqarrar bo‘lgan yana ko‘plab insoniy jihatlar egasi, inson qanday bo‘lishi kerakligini o‘rgansa bo‘ladigan namuna ham! Bog‘bon o‘zi ekkan daraxt novdasini butagandagi e’tibor, haykaltarosh qarshisidagi xarsangni o‘yayotgandagi mehr, naqqosh o‘z mehnatiga beradigan joziba, dehqon ekinlari ichidan zararli o‘tlarni uzayotgandagi diqqat - bularning hammasini ustoz o‘z shaxsiyatlarida mujassamlashtirganlar. Quyida Ustozni shaxsiyatlari va o‘gitlaridan xulosa olgan holda yozganimiz, agar ularni she’r deb atash joiz bo‘lsa, bir nechta she’rlarimizni ilova qildik!

Aslida!

Oppoq tunda qilib tilovat
Mahzun qalblar topib halovat
Raqib bo‘lgan nafsga aytasan
"O‘tgan ishga, mayli, salovat"

Kun pardasin ochillib qirdan
Chiqib kelar sahnaga quyosh
Hissiz quyosh yig‘laydi birdan
Sabab, Shayton ko‘taradi bosh

Qara! U bosh sendadir do‘stim
Qilig‘ingga kulgim keladi.
Somon to‘la - ustida po‘stim
Tiriklayin o‘lgim keladi.

Aslidachi, seni o‘ylayman,
Farishtadek tug‘ilgan eding.
Kar og‘aynim, senga so‘ylayman
O‘z go‘shtingni bir o‘zing yeding.

Har kimsaga qarab suqilib
Aytding "ochman iltimos keting"
Qalbing yeyar chog‘ing tiqilib
So‘ng so‘zingda bularni deding:

"Odamman deb kerilib ketma,
Bo‘ylar cho‘zib tog‘larga yetma,
Xush ko‘nglingni xuftonlar etma,
Baribir ibtidong - tuproq aslida.

Birisi bozorda iymon sotadi,
Birisi "bismillah" deb aroq otadi,
Yana biri bomdodda uxlab yotadi,
Yetar chin Muslim soniga - barmoq aslida.

MDH, Yunisef , BMT tuzdik,
Nasa tashkil etiboq koinotda suzdik,
Hamma teng manzildan izimiz uzdik,
Qabriston ahli ko‘p, lek qabrlar - tarqoq aslida

Bugun Mo‘min boshqasin g‘iybat qiladi,
E voh , bola bugun ona ko‘ksin tiladi,
Yetim boshin , afsus , qabr toshlar siladi,
Nuqta qo‘ygan umring oxir - so‘roq aslida

Bu dunyoda insonga rizqdir muhabbat,
Oshiq ko‘ngil oshuftasi yakkadir har vaqt,
Sevib sevilmoqlik bu dunyoda taxt,
Chin sevgiga komil loyiq - toq aslida.

O‘ng tomoning yaxshi tortadi,
Chap tomoning shayton tortadi,
Oldi orqang - zulmat ortadi,
Sajda qilar qiblang - bir yoq aslida.

Rejalar tuzishdan to‘xtama hech ham,
Tashlagin qo‘rqmasdan odimlab qadam,
Taqdirda bo‘lmasa qilmasin alam,
Hayot berar narsa - saboq aslida.

"O‘qimayman" - dema olimlar bo‘lgin,
Ilm osmonida oydayin to‘lgin,
Ilmning sochiga osilib o‘lgin,

Sochning asl ustozi - taroq aslida.

Inson bir daraxtdir - istaydi unish,
Inson fitratiga xos - xatolar qilish,
Lekin istamas hech nogahon sinish,
Daraxtning xatolarimi - butoq aslida

Qora qoshlar qalblarga eshik qoqadi,
Qora ko‘zda jilvalab yoshlar oqadi,
Qaro kiprik, qaro sochlar menga yoqadi,
Shuncha qora joylashgan yuz - oppoq aslida.

Rizq teraman deb o‘zni o‘tga tashlama,
Nasib bo‘lmas ishga bevaqt ko‘zing yoshlama,
Qush rizqini berar bordir, yoddan tashlama
Sichqon yemak istar, joyi - tuzoq aslida"

Ayyub chashmasidan ruhing sipqorib,
Qalb jarohatlarin bittiray bugun.
Kiprigim qabringga aylabon jorub,
Nafsim "charxi dun" dan qilindi surgun.

Masih kabi iymonim osilsin xochga,
Jasadim boji -iymonim, durdir.
Asil dur arziydi haqiqiy tojga,
Farosatim izlar ko‘zoynak - ko‘rdir.

Sipqordim nasihatdan oqqan jolani,
She'rimga ko‘chirdim ushbu nolani,
Lek tarbiya berolmam, senrdan so‘raram,
Tarbiyala soch-soqoli oppoq Bolani!"

Nigina SHUKRULLAYEVA,
TDSHU Filologiya va tillarni o‘qitish (dariy tili) yo‘nalishi 2025-yil bitiruvchisi

HURMATLI VA MUHTARAMA USTOZIM!

Xolida Alimova Zikrillayevna bizning jonkuyar va qalbi doimo mehr- muruvvatga limmo-lim ustozim Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 4 yil o’qigan bo’lsam,ustozimiz dariy tilini men va kursdoshlarimga astoydil o’rgatishga harakat qilib kelganlar. Bizga 3- kursdan dars bera boshlaganlar men u paytlar o’zimni dariy tilidan yaxshi bilaman deb o’ylab yurar edim toki bizga Xolida Alimova Zikrillayevna ustozimiz kirgunlaricha. Bizga har bir grammatikani o’rgatgan chog’larida o’zimni xuddi okean oqimiga tushib qolgandek his qilganman. Matnlarni shunday chiroyli va ravon o’qir edilar xuddi Afg’on ustozi o’qib berayotgandek tuyular edi. Shu vaqtgacha bunday chiroyli va ravon nutq sohibasini umrim bino uchratmaganman. Xatto uyimdagilar ham lol qolishgan. Menga har bir darslari yoqadi. Biz bu ustozdan nafaqat til o’rgandik, balki o’qituvchi qanday bo’lishi kerakligini ham bilib oldik.

Yana bir voqeani yozar ekanman, uni eslamaslikni sira ham ilojisi yo’q. Talabalik yilllarimizda men qattiq betob bo’lib qolardim, shunda ustozimiz mendan rossa xavotirlangan edilar va men tuzalishim uchun jon kuydirib maslahatlar berganlar, bizning jonkuyar ustozimiz. Har doim ochiq chehra va tabassum bilan bizni kutib olar edilar va a’lo kayfiyatda dars o’tar edilar. Biror- bir mavzuni yoki vazifani tushunmay qolsak, maydalab birma-bir tushunmagunimizcha tushuntirib berar edilar. Hech qachon ortga surmasdilar, bizga hamisha xushmuomilada bo’lganlar. 3- kursda sharq tillari bo’yicha kurs ishi yozishimiz kerak edi. Bu bizning ilk kurs ishimiz bo’lgandi. Shuning uchun

biz uni qanday yozishni ham bilmasdik shunda ustozimiz bizga boshidan oxirgacha ilmiy tarzda chiroyli qilib tushuntirib berganlar. Bizning guruhimizni hamisha qo’llab- quvvatlab kelganlar. Bizga xuddi onamizdek mehribon bo’lganlar.Bizda qandaydir muommolarimiz bo’lgan bo’lsa uni yechimini doimo topishga va maslahatlar berishga harakat qilganlar. Biz o’zimizga ustozimiz Xolida Alimova Zikrillayevnani naqat ustoz deb bilamiz, balki ilm chashmasi deb ham ayta olamiz. Universetetda biz bilim olibgina qolmay haqiqiy o’qituvchi qanday bo’lishi kerakligini ham o’rganib oldik. Ustoz bilan o’tgan juda ham ko’p go’zal va shirin xotiralarimiz bor. Men ustozimizni ilm cho’qqisining sohibasi deb bilaman va shu ustozimizdek o’qituvchi bo’lishga astoydil harakat qilyapman.Ustozimiz doimo bizning xotiramizda serqirra va xushmuomila, go’zal xulqli inson bo’lib qoladilar. Shunday o’qituvchi dars berganlaridan faxrlanamiz.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ДОКТОРИ, ПРОФЕССОР АЛИМОВА ХОЛИДА ЗИКРИЛЛАЕВНАНИНГ

ИЛМИЙ ИШЛАРИ РЎЙХАТИ

1. «sar» сўзининг қўшма сўзлар таркибида ишлатилиши // Шарқшунослик. – № 1. – Т.: ТошДШИ, 2001. – Б. 46-49.
2. Таркибида соматик компонентлари бўлган қўшма сўзларнинг структур ва семантик таснифи // ЎзР ФТДК ва ОАК томонидан ўтказилган V республика илмий конференцияси материаллари, 2001 йил, 4-6 июль.
3. Эрон тилшунослигида қўшма сўзлар ва уларнинг таснифи // Шарқшунослик. – № 2. – Т.: ТошДШИ, 2002. – Б. 13-18.
4. Дарий ва ўзбек тилларининг солиштирма-қиёсий грамматикаси. Ўқув қўлланма. З.Умаров билан ҳаммуаллифликда. – Т.: ТошДШИ нашриёти, 2002. – 120 б.
5. От+от моделидаги қўшма сўз таркибий қисмлари ўртасида *fak(k)-e ezâfa* ҳолатининг сабаблари // Шарқшунослик. – № 1. – Т.: ТошДШИ, 2003. – Б. 6-10.
6. Соматик қўшма сўзлар ҳосил бўлишида лексикализация усули // Шарқшунослик. – № 1. – Т.: ТошДШИ, 2004. – Б. 3-8.
7. Ясама сўз таркибидаги соматик морфемаларнинг семантик структураси // Шарқшунослик. – № 2. – Т.: ТошДШИ, 2004. – Б. 16-22.
8. Дарий тилида соматизмларнинг структур ва семантик таснифи. Автореферат. – Т.: ТДШИ, 2005. – 1,5 б.т.
9. Мирзо Меҳдихоннинг «Мабони ул-луғат» асари – эски ўзбек тили грамматикаси // Тил ҳуқуқи – эл ҳуқуқи («Давлат тилининг ҳуқуқий мақоми: муаммолар, ечимлар» мавзуида ўтказилган илмий-анжуман материаллари). – Т.: ТДЮИ, 2006. – Б. 20-23.

10. Дарий тилида соматик қўшма сўзлар // Шарқшунослик. – № 1. – Т.: ТошДШИ, 2007.– Б. 15-20.

11. Форс, дарий, тожик тилларининг шаклланиш босқичлари: умумийлик ва фарқлар *(фонетик таҳлил)* // Шарқшунослик. – № 1-2. – Т.: ТошДШИ, 2008.– Б. 20-27.

12. Значения суффикса چی *-či* в языке дари // Востоковедение. – № 1-2. – Т.: ТашГИВ, 2008. – С. 104-107.

13. Мирзо Меҳдихон. Мабони ул-луғат. (Форсийдан З.Умаров таржимаси). Монография. – Т.: «Ўзбекистон» Нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. – 125 б.

14. Dariy tili (morfologiya). Ўқув қўлланма – Т.: «O‘zbekiston» Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.

15. Дарий тилида گر *-gar* суффикси воситасида ясалган сўзларнинг семантик таснифи // Эрон-афғон филологиясининг долзарб муаммолари. – Тошкент, 2009. – Б. 63-71.

16. Дарий тилида инкор префикслари // Шарқшунослик. – № 1-2. – Т.: ТошДШИ, 2009. – Б. 22-27.

17. Дарий тилида بان *-bân* /وان *-wân* ва والا *-wâlâ* суффиксларининг семантик хусусиятлари // Шарқшунослар анжумани. – №2. – Тошкент, 2009.– Б. 10-15.

18. Дарий тилида نده *-enda* суффиксли сифатдошларнинг семантикаси // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. – Т.: ТошДШИ, 2010. – Б. 82-85.

19. ی *-i* суффикси воситасида ясалган нисбий сифатларнинг семантик таснифи // Шарқшунослик. – № 1. – Т.: ТошДШИ, 2010. – Б. 22-29.

20. Дарий тилида шахс оти ясалишида маҳсулли-маҳсулсизлик ва сўз ясаш имконияти (аффиксал усул мисолида) // Эроний тилларнинг лексикологияси. – Тошкент, 2010. – Б. 28-39.

21. Сўз ясовчи транспозиция масаласига доир (дарий тили материаллари асосида) // Шарқшунослар анжумани. – № 4. – Тошкент, 2010. – Б. 6-11.

22. Вопросы классификации сложных слов в иранском языкознании // Восточные языки и культуры: Материалы III Международной научной конференции 25-26 ноября 2010 года. – Москва: Российский государственный гуманитарный университет, 2010. – С.13-16.

23. Дарий тилида *-ak/-gak* суффикси ва унинг сўз ясаш имконияти // Шарқшунослар анжумани. – №6. – Тошкент, 2011. – Б. 3-11.

24. Персидско-таджикские словообразующие аффиксы в узбекском языке // Словообразование в тюркских языках: проблемы и исследования: материалы Международной тюркологической конференции, посвященной 80-летию Фуата Ганиева (Казань, 20-21 сентября 2010 г.) – Казань, 2011. – С.124-129.

25. Дарий тилида сифатдошлар иштирокида аффиксал сўз ясалиши // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. – Т.: ТошДШИ, 2012. – Б.27-30.

26. Eron tilshunosligi tarixi. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ТошДШИ нашриёти, 2012.

27. Форс-дарий тилларида ўтган замон сифатдошларининг отлашуви // Илмий-таҳлилий ахборот. – №1. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2012. – Б.54-57.

28. Форс-дарий тилларида ҳозирги ва келаси замон сифатдошларининг отлашуви // Илмий-таҳлилий ахборот. – №2. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2012. – Б.53-56.

29. Бир ва турли субъектли модал тузилмаларнинг ўзаро муносабати ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. – Т.: ТошДШИ, 2013. – Б.21-25.

30. Fors tili. Дарслик. Х.Махамадалиев, Г.Агзамова билан ҳаммуаллифликда. – Т.: Hilol-Nashr, 2013. – 444 б. 27,5 б.т.

31. Dariy tili (morfologiya). Ўқув қўлланма. – Т.: ТДШИ, 2013. –108 б.

32. Fors-dariy tillari nazariy grammatikasi. Ўқув қўлланма. Т.Зияева билан ҳаммуаллифликда. – Т.: ТДШИ, 2013. – Шартли 7,5 б.т., 121 б.

33. Мирзо Меҳдихоннинг «Мабони ул-луғат» асаридаги грамматик материал // Марказий Осиёда луғатчилик: анъаналар ва ҳозирги замон илмий мактаблари. − Т.:ТошДШИ, 2013. − Б. 49-53.

34. Дарий тилидаги тескари модал тузилмалар ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. – Т.: ТошДШИ, 2014. – Б. 90-93.

35. Шарқ тилларини ўқитишда ёзма нутқ малакаларини ўстиришга доир машқлар // Шарқ тилларини ўқитишнинг долзарб масалалари. − Т.:ТошДШИ, 2014. − Б. 22-26.

36. Дарий тилида خوانده میتوانم *xânda mêtawânam* типидаги модал тузилмалар // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. – Т.: ТошДШИ, 2015. – Б. 13-18.

37. Дарий тилида аффиксал омонимик қаторлар // Sharq mash’ali. – № 1. – Т.: ТошДШИ, 2015. – Б. 45-49.

38. Сопоставительная грамматика дари и узбекского языков. Учебное пособие. – Т.: ТашГИВ, 2015. – 140 с.

39. Дарий тилида олд кўмакчили сўз бирикмалари // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. – Т.: ТошДШИ, 2016. – Б. 11-18.

40. Дарий тилида сўз ясовчи транспозиция // Шарқшунослик. – № 4. – Т.: ТошДШИ, 2016.– Б. 18-28.

41. Дарий тилида кўчирма гапли тузилмалар // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. – Т.: ТошДШИ, 2017.

42. Иноязычные заимствования в военной терминологии современного языка дари *(на примере англицизмов)* // Sharq mash’ali. – № 3-4. – Ташкент, 2017. – С. 71-75.

43. Fors tili. Дарслик. Х.Махамадалиев, Г.Агзамова билан ҳаммуаллифликда. – Т.: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2017. – 28,25 б.т. – 472 б.

44. Fors tili. Дарслик. Х.Махамадалиев, Г.Агзамова билан ҳаммуаллифликда. Т.: TDShI, 2017. – 25,5 б.т. – 408 б.

45. Дарий тилида *-ak/-gak* суффиксли ясалмаларнинг семантикаси // Sharq mash'ali. – № 1. – Т.: ТошДШИ, 2018. – Б.14-22.

46. Дарий тилида кўчирма гапли тузилмаларда муаллиф гапининг синтактик хусусиятлари // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. – Т.: ТошДШИ, 2018.

47. Вопросы классификации сложных слов в иранском языкознании (в сопоставлении с японским) // O'zbekiston va Yaponiya madaniy aloqalarining dolzarb masalalari: til, tarjima va adabiy jarayonlar: Xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari. 2018- yil, 16-17- mart. – Toshkent, 2018. – B. 302-307.

48. The derivational possibility of the suffixes *-ak/-gak* in Dari language // Paradigmata Poznání. – № 3. – Prague, 2018. – S. 77-84.

49. Чет тилларни ўқитишда ёзув нутқ фаолиятининг тури ва малака сифатида // Ҳарбий соҳада мақсадга йўналтирилган чет тилларни ўқитишдаги муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари. – Тошкент, 1918 йил, ноябрь. – Б.15-18.

50. Dariy tili. Дарслик. Ю.Хўжақулов, Г.Курбанова билан ҳаммуаллифликда. – Т.: Fan va texnologiya, 2018. – 15 б.т. – 248 б.

51. Словообразовательные возможности суффикса چی *-či* в языке дари // Вестник Челябинского государственного университета. Филологические науки. Вып. 116. – № 4 (426). – Челябинск, 2019. – С. 14-20.

52. اسم مصدر *esm-e masdar* 'ҳаракат номи' ясалишида маҳсулли-маҳсулсизлик ва сўз ясалиш имконияти // Марказий Осиёда луғатчилик: анъаналар ва ҳозирги замон илмий мактаблари. − Т.: ТДШИ, 2019. − Б. 56-60.

53. طبقه بندی معنایی پسوندهای فاعلی -گر-*gar* -گار، -*gâr* -کار، *kâr*ی در زبان فارسی // Первый международный конгресс

Евразийской ассоциации иранистов. Тезисы. Электронная публикация. – Санкт-Петербург, 2019. – С. 122-125.

54. Ҳозирги дарий тилидаги форсча лексик интерференциялар // Афғонистон XX ва XXI асрлар чорраҳасида: тарихий, иқтисодий ижтимоий,сиёсий жиҳатлари ва унинг Марказий Осиё мамлакатлари билан ўзаро муносабати масалалари: Халқаро илмий конференция материаллари. 2019 йил 21-22 июнь. – Тошкент, 2019. – Б. 242-248.

55. Дарий тили сўз ясалиши. Монография. Тошкент, 2019. – 232 б. (14,5 б.т.)

56. Дарий тилида сўз ясалишининг ички лингвистик усуллари. Автореферат. – Т.: “Академия ноширлик маркази” Давлат унитар корхонаси, 2019. – 4,6 б.т.

57. Dariy tili. Дарслик. Ю.Хўжақулов билан ҳаммуаллифликда. Т.: Zamin Nashr, 2019. – 440 б. (27.5 б.т.)

58. Афғонистон конституцияларида давлат тили мақоми // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. № 11. – Т.: ТошДШИ, 2020. – Б. 22-29.

59. Дарий тилида содда феъллар асосида ясалган қўшма феъллар // Филологиянинг долзарб масалалари: Халқаро илмий-амалий интернет конференция материаллари. 2020 йил 29 апрель. – Илмий нашр. – Фарғона: ФарДУ, 2020. – Б. 94-97.

60. Дарий тилида аффиксал сифат ясалиши // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – № 3 (32). – Тошкент, 2020. – Б. 10-27.

61. The status of the state language in the Constitutions of Afghanistan // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal https://saarj.com ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 6, June 2020 – pp. 892-898. (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal) Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13.

62. Reduplication in Persian Language // Palarch’s Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology 17(7), pp. 5443-5450.

ISSN 1567-214x D.Ahmedova, N.Nuriddinov билан ҳаммуаллифликда.

63. Dari Word-forming Transposition Phenomenon // International Journal of Pharmaceutical Research, Dec 2020, Vol 12, Supplementary Issue 3, pp. 516-521. ISSN 0975-2366 DOI: https://doi.org/10.31838/ijpr/2020.SP3.070

64. Дарий тилида сифатдошларнинг отлашуви // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – Тошкент, 2020. – № 5 (34). – Б. 10-19 (Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, No 5 (34), 10-19 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online))

65. Adjective Forming by Affixation in the Dari Language // Revista Geintec – Gestao, Inovacao e Tecnologias, Vol. 11 No. 2 (2021), pp. 1609-1619. ISSN: 2237-0722 (Received: 18.03.2021 – Accepted: 18.04.2021) http://www.revistageintec.net/index.php/revista/article/view/1784

66. Analysis of affixal quality making in Dari language // Academicia Globe: Inderscience Research, Volume 2, Issue 5, May, 2021, pp. 554-559. ISSN: 2776-1010 Impact Factor: 7.425 https://agir.academiascience.org/index.php/agir/article/view/229

67. Dariy tili. Ю.Хўжақулов билан ҳаммуаллифликда. – Т.: TDShU, 2021. – 220 б. (13.75 б.т.)

68. Дарий тилшунослигида сўз ясалиши тадқиқи масалалари // Sharqshunoslik. – № 1. – Тошкент, 2021. – Б. 32-48.

69. Дарий тилида گر *-gar*, گار *-gâr,* کار *-kâr* шахс оти ясовчиларининг сўз ясаш имконияти // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – № 5 (40). – Тошкент, 2021.– Б. 37-55. https://doi.org/10.36078/1638773821 (Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2021, No 5 (40), 37-55. https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online))

70. Fors tilidagi otlashgan sifatdoshlarning o‘zbekcha tarjimasiga doir // O‘zbekiston tarjimashunoslari Forumi – 2021 (ilmiy maqolalar to‘plami). –T.: TDSHU, 2021. − B. 91-94.

71. Dariy tilida fe’l negizlarining otlashuvi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Scientific Journal, December 2021, Volume 1, Special Issue 2, pp. 35-47. ISSN 2181-1784 Impact Factor SJIF 2021: 5.423 (www.oriens.uz)

72. Чет тили бўйича аудиториядан ташқарида талабаларнинг мустақил фаолиятини ташкил этишда ўқув материалларини танлаш: муаммо ва ечимлар // Таълимда интеллектуал технологиялар: Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари. 2021 йил 24 декабрь. – Тошкент, 2022. – Б. 337-346.ISBN 978-9943-4812-0-6 (msu.uz)

73. The stylistic features of nouns and adjectives in Iranian newspaper texts // Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования. Сб. ст. по материалам LVI междунар. науч.-практ. конф. – № 1 (50). – М., Изд. «Интернаука», 2022. – С. 95-102. ISSN 2541-9870 Akhmedova D., Azimdjanova D., Nuriddinov N. билан ҳаммуаллифликда.

74. On some issues of verbal synonymy in the Persian language ISJ Theoretical & Applied Science, 2022, 03 (107), pp. 852-858. http://s-o-i.org/1.1/TAS-03-107-63 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS Azimdjanova D., Akhmedova D., Nuriddinov N. билан ҳаммуаллифликда.

75. Мактаб яратган шарқшунос // Илмга бахшида умр. Аҳмаджон Қуронбеков замондошлари хотирасида. – Тошкент: ТДШУ, 2022. – Б. 39-42.

76. Афсонага айланган ҳақиқат // Илмга бахшида умр. Раҳмонхўжа Иномхўжаев замондошлари хотирасида. – Тошкент: ТДШУ, 2022. – Б. 17-20.

77. Dariy tilidagi modal tuzilmalarning o‘zbek tiliga tarjimasi xususida (میتوانم خوانده *xânda mêtawânam* tipi misolida)

// “Tarjimashunoslar forumi – 2022” (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). 1-kitob. – Toshkent: TDSHU, 2022. – B. 101-107. (https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences?i=1116055) https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-101-107

78. Persian-tajik word-forming affixes of the agent noun in the uzbek language // Hybrid Mode International Conference (12-13 May, 2023) on the theme **'Advance Research in technology, management, social science, sustainable development and humanities'** at DAV Institute, Faridabad. https://www.eurchembull.com/issue-content/persian-tajik-word-forming-affixes-of-the-agent-noun-in-the-uzbek-language-7890 Eur. Chem. Bull. 2023,12(Special Issue 9), 563-568 Azimdjanova D., Akhmedova D., Nuriddinov N. билан ҳаммуаллифликда.

79. Хорижий тилларни ўқитишда маданий хусусиятларнинг ўрни // Oliy harbiy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishning lingvodidaktik masalalari: Respublika uslubiy konferensiyasi materiallari to‘plami. – Chirchiq: ChOTQMBYu, 2023. – B. 8-10.

80. Fors tilida diniy terminlarning struktur-semantik tahlili // Oriental Journal of Philology. Volume 3, No.03. Volume03 Issue03, May 1, 2023. pp. 96-110. ISSN: 2181-2802 https://www.supportscience.uz/index.php/ojp/issue/view/65 DOI:https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-03-03-14 Fayzullaev M. билан ҳаммуаллифликда.

81. Fors va dariy tillari nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: TDShU, 2023.

82. Fors va dariy tillarida so‘z turkumlarini tasniflash muammolari // Sharq mash’ali. – № 3. – Toshkent, 2023. – B.40-51.

83. Polysemy of Simple Verbs in The Persian Language // The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies- 2023 | PAMIR 2023, pp.96-107. Scopus Q4

https://spast.org/techrep/article/view/4448
https://spast.org/techrep/article/view/5025 Akhmedova D., Azimdjanova D., Nuriddinov N., Azimbayeva N., Arifdjanov Z. билан ҳаммуаллифликда.

84. Fors va dariy tillarida otlarda son kategoriyasi // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – № 1 (54). – Toshkent, 2024. – 10-jild. – B.7-16. DOI: 10.36078/1709621706 ISSN: 2181-8215 (online) https://journal.fledu.uz/uz/fors-va-dariy-tillarida-otlarda-son-kategoriyasi/

85. Mirzo Mehdixonning “Maboniu-l-lug‘at” asari va uning turkologiyadagi o‘rni // “Markaziy Osiyoda leksikologiya va leksikografiya: an’analar va hozirgi zamon ilmiy maktablari” xalqaro konferensiya materiallari Oriental Journal of Philology. Vol. 4 No. 03 (2024): Vol 04, Issue 03, 2024, pp. 425-434. ISSN: 2181-2802. https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-04-03-56

86. Eron va afg‘on tilshunoslarining asarlarida nisbat kategoriyasi talqini // “Markaziy Osiyoda leksikologiya va leksikografiya: an’analar va hozirgi zamon ilmiy maktablari” xalqaro konferensiya materiallari Oriental Journal of Philology, Vol. 4 No. 03 (2024): Vol 04, Issue 03, 2024, pp. 21-28. ISSN: 2181-2802. https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-04-03-04

87. Mirzo Mehdixonning “Maboniu-l-lug‘at” asarida morfemalar tahlili // Adabiy ta’lim metodologiyasi: xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman (2024-yil 30-sentabr)

88. Mirza Mehdi Khan’s work “Mabani’l-Lughat” // Grammar of the old Uzbek language in Persian Science and Innovation International Scientific Journal Volume 3 Issue 11 November 2024, pp.4-9. ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ https://doi.org/10.5281/zenodo.14160095

89. The Dari language and word formation issues in Iranian studies // Science and Innovation International Scientific Journal Volume 3 Issue 11 November 2024, pp.34-41. ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ https://doi.org/10.5281/zenodo.14251400

90. Gradual Development of The Vowel System in Dari and Persian Languages // **(Q3)** Journal of Lifestyle and SDG'S Review. Florida, USA, 2024. Vol. 4, e01584. pp. 01–17. https://sdgsreview.org/LifestyleJournal/indexing https://www.scopus.com/sourceid/21101201902#tabs=2 https://portal.issn.org/resource/ISSN/2965-730X Uktamova Kh., Mirzakhmedova Kh., Nuriddinov N., Azimdjanova D., Nishanbaeva A. билан ҳаммуаллифликда.

91. Zikrilla Umarov. Mirzo Mehdixonning “Maboniu-l-lug‘at” eski o‘zbek tili grammatikasi. Monografiya. – T.: Ganjina, 2025

92. Язык дари. Морфология (в сопоставлении с русским языком). Учебное пособие. – Т.: ТГУВ, 2025

93. The issues of word formation in Dari // info@persianatesocieties.org

94. Dariy tilida iqtisodiy terminlar va ularning yasalish modellari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Scientific Journal, pp. 70-80. (E)ISSN: 2181-1784 5(8), 2025 (www.oriens.uz) https://oriens.uz/media/journalarticles/11 Sirojiddinova R.

95. Hozirgi dariy tili iqtisodiy terminologiyasida forscha leksik interferensiyalar // Sharq mash’ali. – T.: TDShU, 2025. – № 4. – B. 48-53. Sirojiddinova R. билан ҳаммуаллифликда.

96. Active models of calques in the persian language // TPM Vol. 32, No. S8, 2025. ISSN: 1972-6325 https://www.tpmap.org/ Axmedova D., Azimdjanova D., Nuriddinov N. билан ҳаммуаллифликда.

FOTOXOTIRALAR

Xolida Alimovaning otalari dotsent Zikrilla Umarov

Xolida Alimovaning onalari Mas’uda Umarova

Xolida Alimova - maktab o‘quvchisi

Sharq fakulteti talabasi

Afg‘on pionerlariga tarjimon (1985-yil)

Afg‘on bo‘limi talabalari paxta mavsumida (1983-yil)

Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasi (2009-yil)

Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasi (2016-yil)

Xolida Alimova ilmiy ish himoyasida (2011-yil)

Professorlar Adhambek Alimbekov va Rahmonxo‘ja Inomxo‘jayev bilan davra suhbatida (2018-yil)

TDSHU huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash a’zolari himoyadan so‘ng (2020-yil)

TDSHU huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash a’zolari himoyadan so‘ng (2025-yil)

TDShU da o‘zbek olimalari davrasida

O‘zbekiston Qahramoni Suyima G‘aniyeva bilan

Eron Islom Respublikasi elchisining Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasiga tashrifi (2018-yil)

Eronlik professor Amirrezo Vakilifard bilan birga (2018-yil)

Xolida Alimova filologiya fanlari doktori ilmiy ishi himoyasida (2019-yil)

Ustozlari professorlar Abdurahim Mannonov va Ahmadjon Quronbekov bilan birga (2019-yil)

Ustoz-shogirdlar (2018-yil)

Professorlar Sh. Safarov, H. Islamdjanova va PhD M.Umarova bilan

Kafedra a’zolari EIRning O‘zbekistondagi elchixonasi tadbirida

Kafedra a’zolari afg‘onistonlik boburshunos olima Shafiqa Yorqin bilan

Alloma Tabotaboiy universiteti. Eron. Tehron (2017-yil)

Sa’diy fondi taqdirnomasi. Eron (2017-yil)

EIR elchixonasi TDSHIda

Professor Jasur Ziyamuhammedovning DSc himoyasidan so‘ng

Hindshunos olim Sirojiddin Nurmatovning DSc himoyasidan so‘ng

Nodir Nuriddinov va Sabohat Hoshimova bilan birga

Xolida Alimova shogirdi PhD Hilola Uktamova bilan

Hamkasblar davrasida

Hamkasblar davrasida



Sevimli shogirdlar ardog‘ida

Sevimli shogirdlar ardog‘ida

Navro‘z bayrami tadbiridan so‘ng

Afg‘oniston elchixonasi bilan birgalikdagi tadbir

EIRning O‘zbekistondagi elchisi va xonimi bilan (2026-yil)

EIRning O‘zbekistondagi elchixonasi tadbirida (2026-yil)

Turmush o‘rtog‘i va farzandlari bilan (1996-yil)

Turmush o‘rtog‘i Kamol Alimov va farzandlari Shahbora, Shahboz

Xolida Alimova oila a’zolari bilan birga

Farzandlarim – dilbandlarim

Opalari Nafisa Yusupova bilan “Olimlar bayrami”da

Opalari Nafisa, ukalari Shukrulla bilan

МУНДАРИЖА

Филология фанлари доктори, профессор Алимова Холида Зикриллаевнанинг илмий-педагогик фаолияти ҳақида..... 3
Гулчеҳра Рихсиева. Фидойи педагог ва шарқшунос олима…… 8
Абдураҳим Маннонов. Холидахон ҳақида кўнгил тўридаги сўзларим..... 12
Муҳаммаджон Имомназаров. Холидахон Алимова ҳақида..... 17
Qosimjon Sodiqov. Xolida Zikrilla qizi nashrga tayyorlagan ikki kitob haqida ikki og‘iz so‘z..... 18
Shorustam Shomusarov. Ustozining munosib shogirdi..... 23
Улфатхон Муҳибова. Энг қадрдон ҳамкасбим..... 25
Салимахон Рустамий. Ота изидан: илм ва фидойилик йўли..... 28
Qudratulla Omonov. Ota duosini olgan sharqshunos-olima..... 33
Акрамжон Каримов. Олима, она ва мураббий..... 36
Хайрулла Ҳамидов. Шарқшунос-афғоншунос-дарийшунос олима..... 39
Jasurbek Ziyatixamedov. Zamonaviy o‘zbek ayolining yorqin timsoli…..…… 43
Жумали Шабанов. Илм ва қалб уйғунлиги: шарқшунос олима Холида Алимова феномени..... 46
Динара Азимджанова. Посвящается Холиде Зикриллаевне Алимовой. Моей коллеге и подруге……. 51
Авазбек Вахидов. Илмга бахшида умр ва садоқат тимсоли……..... 53
Юсуфбек Хўжақулов. Зиё уммонида мунаввар гавҳар.. 55
Севара Шомуродова. Заҳматкаш олима ва камтарин инсон…… 58
Dilfuza Axmedova. Tanqiddan kamolotga: ustoz bilan yo‘l……..... 65
Ҳулкар Мирзахмедова. Катта фикрли шахс!..... 67

Маликахон Насирова. Холидахон Алимова — камтарлик ва самимият билан безалган умр йўли…….. 70
Марям Эшмуҳаммедова. Ҳазрати аёл……..... 72
Nafisa Zikrillo qizi. Aziz singlim Xolidaga!..... 74
Нигора Абдусатторова (Сайфутдинова). Қутлов…… 76
Гулнора Муталова. Инсонийлик ва самимиятни мужассам этган олима……..... 78
Oydin Turdiyeva. Mehr va fidoyilik timsoli…… 80
Рихситилла Алимухамедов. Устозим Холида опа тўғрисида……. 81
Lola Sultanova. Sharq ayoli namunasi: Alimova Xolida Zikrillayevna timsolida ilm, matonat va fidoyilik…… 83
Шукрулла Зикрилло ўғли. Опа тимсолида устоз…… 85
Nargiza Shoaliyeva. Mo‘tabar ayol va sharqshunos olima siymosi…….. 87
Saidbek Boltabayev. Mushfiq ustoz haqida qaysar shogirdining xotiralari…….. 90
Feruza Nizamova. Ilm-fan fidoyisi……..…… 94
Умида Мавлянова. Замонамиз зиёли аёлининг ёрқин намоёндаси!..... 96
محمدرضا اصلانی. در ذکر فضیلت و مکرمت بانو خالده، استاد فرهیخته…… 99
Nilufar Xodjayeva. Sharqshunos olima va ibratli ustoz siymosi…….. 101
Muhabbat Xabibova. Hayot yo‘llarimdagi ustozim…… 103
Нозима Ходиева. Фидойи, бағрикенг ва меҳрибон устоз – Алимова Холида Зикриллаевна…….. 105
Даврон Каримов. Холида Алимова – илм ва инсонийлик намунаси……. 107
Нодир Нуриддинов. Илм ва меҳр тимсоли – Холида Зикриллаевна Алимова……... 110
Nodir Raxmatullayev, Dilnoza Raxmatullayeva. Munis va mo‘tabar ayol – ilm va ma’rifat yo‘lidagi fidoyi inson…… 115
Zafar Normatov. Ustozga ehtirom — qalblarda yashaydigan nur…… 119

Саида Султанходжаева. Заҳматкаш олима ва меҳридарё мураббий: илм йўлидаги илк қадамлар ва устоз ўгити…….. 121
Mirzo Qalandar Saidmuhammad o‘g‘li. Ustozga ehtirom: olima, murabbiy va mehribon ona siymosi…….. 123
Sardor Qoraboyev. Mehr chashmasi…….. 125
Hilola Uktamova. Muhtarama ustozim – Alimova Xolida Zikrillayevnaga!…… 127
Нигора Элмуродова. Муваффақиятга бошлаган тасодиф..... 129
Назокат Ибрагимова. Илмга муҳаббат уйғотган устоз……. 131
Dinora Yusupova. Oltmish yil – oltmish dovon: afg‘onshunoslik ufqlaridagi yorqin siymo……... 133
Oybek Muhammad. Halimlik va fidoyilik timsoli bo‘lgan ustoz…….. 137
Фирдавс Ҳамдамов. Ҳожи хонум ёхуд доктор хонум.... 139
Afzuna Nazarova. Qalbimda bir nur bor – u sizdan, ustoz…”…… 143
Husniddin Inomiddinov. Toshkentdagi onam!..... 146
Kamola Jumayeva. Samimiy, mehribon, jonkuyar ustoz……..... 149
Dilorom Saidoripova. Ilmga bag‘shida umr sohibasi..... 152
Kibriyoxon Sultonova. Muhtarama ustozimiz Alimova Xolida Zikrillayevnaga……. 153
Shahlo Narzullayeva. Ilm va mehr uyg‘unligi……. 155
Mohlaroyim Muxamedova. Hurmatli va muhtaram ustozim Xolida Zikrillayevna Alimova !..... 157
Toxirbek Kenjaboyev. Muslihdor!..... 159
Nigina Shukrullayeva. Hurmatli va muhtarama ustozim!.. 163
Филология фанлари доктори, профессор Алимова Холида Зикриллаевнанинг илмий ишлари рўйхати. 165
ФОТОХОТИРАЛАР 176

Устозлар изидан: хотиралар мангу, ҳаёт бардавом. Шарқшунос, профессор Алимова Холида Зикриллаевна замондошлар нигоҳида. – Тошкент: ТДШУ, 2026. 198 б.

Масъул муҳаррир:
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD), доцент
Нодир Нуриддинов

Тузувчилар:
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), кат.ўқитувчи
Ҳилола Ўктамова
Катта ўқитувчи
Ҳусниддин Иномиддинов

Тошкент давлат шарқшунослик университети
Кенгаши томонидан нашрга тавсия этилган
(2026 йил 27 апрелдаги 9-сонли баённома).

Босишга рухсат этилди: 01.05.2026
Бичими 60x84 1/16 Шартли 12,3 б.т.
50 нусхада босилди. Буюртма №
Тошкент давлат шарқшунослик
университетининг кичик босмахонаси.
Тошкент, Амир Темур кўчаси, 20 уй.

© Тошкент давлат шарқшунослик университети, 2026